



**МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ФЕРГАНСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ ОБЩЕСТВЕННОГО ЗДОРОВЬЯ**

МАТЕРИАЛЫ

международной научно-практической онлайн конференции

**«Гигиена окружающей среды и охрана здоровья населения,
имплантируемые биоматериалы, проблемы и их решения»**

29 марта 2022 года

Фергана - 2022

Сборник трудов международной научно-практической онлайн конференции «Гигиена окружающей среды и охрана здоровья населения, имплантируемые биоматериалы, проблемы и их решения» включает работы ученых ведущих научных и образовательных учреждений Беларуси и Узбекистана.

Сборник предназначен преподавателям, специалистам медико-профилактического профиля, студентам, всем интересующимся новыми научными и практическими достижениями медицины.

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: А. СИДИКОВ – д.м.н., профессор, ректор Ферганского медицинского института общественного здоровья.

Заместитель главного редактора: М. КАДИРОВА – PhD, доцент, проректор по научной работе и инновациям Ферганского медицинского института общественного здоровья; М. АШУРОВА – PhD, доцент, проректор по учебной работе Ферганского медицинского института общественного здоровья.

Члены редакционной коллегии:

Ферганского медицинского института общественного здоровья

Р. АХМАДАЛИЕВ – PhD, руководитель отдела научных исследований, инноваций и подготовки научных педагогических кадров; М. АШУРОВА – к.м.н., доцент, заведующая кафедрой «Коммунальной гигиены и гигиены труда»; М. МАМАЖОНОВ – заведующий кафедрой «Биофизики и медицинской техники»; М. БОТИРОВ – PhD, доцент кафедры «Биофизики и медицинской техники»; Г. МАМАТХАНОВА – заведующая кафедрой «Общественного здоровья, организации и управления здравоохранением»; М. АЗИМОВА – старший преподаватель кафедры «Коммунальной гигиены и гигиены труда»; Д. АТАДЖАНОВА – старший преподаватель кафедры «Коммунальной гигиены и гигиены труда»; У. ТЕШАБОЕВ – ассистент кафедры «Питания, гигиены детей и подростков»; К. САЙДУЛЛАЕВА – ассистент кафедры «Питания, гигиены детей и подростков»; Г. АХМАДАЛИЕВА – ассистент кафедры «Биофизики и медицинской техники».

KEKSA INSONLAR ORGANIZMIDA RUHIY VA FIZIOLOGIK SILJISHLARNING KELIB CHIQISH SABABLARINI O'RGANIB TAHLIL QILISH

Abdukadirova L.K., Muxidinova Sh.B.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Farg'ona jamoat salomatligi instituti

Sir emas, hozirgi kunda dunyodagi barcha mamlakatlar va davlatlar aholisining o'rtacha umr ko'rish muddati yildan-yilga oshib bormoqda; o'z-o'zidan ko'rinib turibdi-ki, bunday jarayon bir qator muammolarni yuzaga keltirib chiqaradi. Statistik ma'lumotlarning xabariga ko'ra 80% dan ortiq qariyalarning taqdiri hozirgi kunda jamiyat hayotidan tashqarida qolganligini ko'rsatadi, tabiiyki, bunday holat bu yoshi o'tgan insonlar organizmida ruhiy va fiziologik siljishlarning kelib chiqishiga asos bo'ladi.

Keksalik inson umrining sokin davridir. Chunki odam keksayganida katta hayotiy tajribaga, teran aqlga ega bo'ladi. Shunday paytda, ularning ko'magi va maslahatiga yoshlar ehtiyoj sezadilar. Agar yoshlarimiz mehnatsevar, halol, diyonatli, el uchun fidoyi bo'lib, tarbiya topishni istasalar, keksa avlod vakillarining hayotiy tajribalaridan foydalanishlari lozim.[1].

Inson hayotini mevali daraxtga qiyoslashadi. Keksalik esa, xuddi mevalari yetilgan mo'jizaviy boqqa o'xshaydi. Farzandlar uchun ota-onasining pand-nasihatlariga rioya etish farz hisoblanadi.

Ha, hayotning o'ziga xos achchiq va shirin tomonlari bor. Keksalar e'tiborga, mehr-muruvvat va shafqatga juda muhtoj bo'ladilar. Kishi yetmishga yetsa, yanada tabarruklashadi. Bunday insonlarga quloq tutmoq va pandu nasihatlarini olmoq lozim. Oilani oyoqqa turg'azgan, o'g'il-qizlarni o'stirib, yedirib-ichirgan, oila, farzandlar kamolini deb yelib yugurganlar ham shular.

Shu bilan birga, keksalikning muayyan mushkulotlari, murakkabliklari bor. Bemorlik, ko'z xiralashishi, oyoq-bel og'rishi, kuchdan qolish, avvalgi zavq-shavqlarning susayishi, qadamning mayda, yo'llar esa olis bo'lib qolishi... Hayotda, atrofimizda yaxshi kishilar borligidan, ular bilan yonma-yon yashayotganimizdan quvonishimiz kerak. Unutmaylik, imon-e'tiqodli qariyalar bo'lmagan joyda yaxshi tarbiyali yoshlar ham bo'lmaydi. [2].

Yoshi ulg'ayib borayotgan odam organizmida shaxsiy xususiyatlarning, noadekvat reaksiyalarning transformatsiyasi nomoyon bo'la boshlaydi; hayotga, ertangi kunga ishonchsizlik, o'z-o'zidan norozi bo'lish xissiyoti, kayfiyatning buzilishi, yakkalanib qolishdan qo'rqish xissiyoti, moddiy qiyinchiliklarga duch kelish qo'rquvi kabi holatlar yuzaga keladi. Yoshi o'tayotgan odamlarning ko'pchiligi pessimist bo'lib qoladi, hayotiy muvaffaqiyatlardan quvonish pasaya

boradi, tashqi dunyoga bo'lgan qiziqish kamayadi, o'z badani va organizmiga bo'lgan diqqat-e'tibori orta boradi. Yosh o'tgan sayin odamda ruhiy faollik pasaya boradi, hayotdan, kundalik turmush bezish, siqilish holatlarni ustunlikka erishadi, nevroz holatlari paydo bo'ladi va u uzoq muddat davom etishi mumkin. Juda ko'p yoshi o'tgan odamlarda psixopatologik sindromlar: asteno-vegetativ holat, alahsirash, xotiraning pasayishi, adashish holatlari, ruhiy holatning parchalanishi kuzatiladi.

Albatta ko'rsatib o'tilgan belgilar hamma yoshi o'tgan odamlarda bo'lishi kuzatilavermaydi va hammada ham bir ko'rinishda nomoyon bo'lmaydi. Juda ko'p yoshi o'tayotgan kishilarda qarilik yoshi yaqinlashishi bilan ularda sahovatlik, aqli donolik, yoshlarga nisbatan g'amho'rlik, har bir vaziyatli masalaga ijobiy yondoshish, maslahatgo'ylik xususiyatlari yuzaga keladi. Ilmli va o'qimishli kishilarda regressiya darajasi sekin va ko'zga ko'rinmas darajada bo'lib, qoida bo'yicha bunday holat yuqori darajadagi o'qimishli kishilarda yorqinroq ko'rinishga ega. Xalqimizda shunday dono bir maqol bor: "Ilm bilan mashg'ul bo'lgan kishilarni qarilik chetlab o'tadi".

Qari yoshdagilar psixogigiyenasining asosida atrofda bo'layotgan jarayonlarga to'g'ri yondoshish xususiyati juda xosdir.

Laroshfukoning fikriga ko'ra qarishni ham bilish kerak va bu yo'nalishda har bir shifokorning vazifasi shundan iborat-ki, odamlarda fiziologik qarish va keksayishning fiziologik asoslarini odamlarga astalik bilan uqtirib, o'rgatib borish xisoblanadi. Odamlarni keksayishga o'rgatish quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

-keksayish - bu ob'yektiv jarayon, bu jarayonda atrof muhit omillariga bo'ladigan talablarni qisqartirish lozim, jumladan, o'z faoliyatini biroz bo'lsada qisqartirish, keksayishni kuch orqali sekinlashtirishga urinmaslik kerakligini har bir odam anglab yetishi lozim;

-keksaygan chog'da ham sog'lom va faol bo'lish uchun yuqori darajadagi intellekt, sport mashqlari bilan shug'ullanish yordam beradi;

-ruhiy kayfiyat, keksayish uchun ruhan tayyorlanish, bu jarayonni optimistik tarzda kutib olishga sharoit yaratadi;

-jamoat ishida faoliyat ko'rsatganlardagi keksayish jarayoni, yolg'iz yashaydiganlardagiga qaraganda kechroq ro'yobga chiqadi;

-har bir odam o'zini qarilikda belgilanadigan nafaqaga o'z vaqtida chiqishga tayyorlab borishi lozim;

-yangi qarilik turmush tarziga moslashish, ilgari kasbdoshlari bilan aloqalarni uzmaslik, moddiy ta'minlanganlikning ahamiyati juda kattadir.

Keksaygan va yoshi o'tgan shaxslarda kuzatiladigan belgilarga atrofdagi odamlar befarq bo'lishlari, qariyalarga nisbatan hurmat va ehtiromli bo'lish talab

etiladi. Aholi o'rtasida umumiy kasallanish, bolalikdan nogironlik, qari yoshdagi kishilar o'rtasida ba'zi kasalliklarni ortib borishining asosiy sabablaridan biri- har bir oilada sog'lom turmush tarzining to'g'ri targ'ib qilinmasligi, oila a'zolari, qolaversa keksa yoshdagi kishilarning ayrim xolatlarda tibbiy ongini yetarli saviyada emasligidir. Shunday ekan oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish, oila a'zolarining tibbiy ongini oshirish bugungi kunning dolzarb muammosi bo'libgina qolmay, balki davr talabi hamdir.

Biz ko'p takrorlaydigan sog'lom turmush tarzi deganda nima tushunamiz, inson sog'ligi nimalarga bog'liq, sog'lom turmush tarziga amal qilish uchun inson qanday bo'lmog'i lozim, sog'lom turmush tarzi afzalliklari nimada. Ayni yuqorida qo'yilgan savollarga quydagicha javob berish mumkin. Sog'lom turmush tarzi bu inson hayot tarzi bo'lib, bunda kishi o'zining va atrofdagilarning sog'ligini saqlash, mustahkamlash va kasalliklarni oldini olish bilan bog'liq tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Sog'lom turmush tarziga amal qilish uchun inson -yuksak ma'naviyatli, madaniyatli, qat'iyatli, irodali bo'lmog'i lozim. Sog'lom turmush tarzi afzalliklari – bu birinchi navbatda inson sog'lig'ini mustahkamlanishi, mehnat qobiliyatining yaxshilanishi, umr ko'rishining uzayishi bilan ta'riflanadi. Sog'lom turmush tarzi asosini quyidagilar tashkil qiladi:

- kun tartibiga amal qilish;
- ertalabki badantariyani imkoniyatga qarab 7-10 daqiqa davomida bajarish, toza havoda sayr qilish;
- shaxsiy va umumiy gigiyena qoidalariga amal qilish: ertalab, badantariyadan keyin yuvinish, nonushtadan so'ng va kechki uyqu oldidan tishlarni tozalash, ovqatlanish oldidan qo'lni sovunlab yuvish;
- harakatlanish faolligiga amal qilish, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish;
- sog'lik uchun zararli odatlarga barham berish: chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish kabilardan voz kechish.
- fe'l-atvorda mavjud bo'lgan nuqsonlarni bartaraf etish, ya'ni emotsional holatni jilovlay olish arzimagan sabablar bilan kayfiyatning buzilishi va atrofidagilar kayfiyatini buzishdan saqlanish;
- ratsional va tartib jihatdan tenglashtirilgan ovqatlanish, ortiqcha vazndan qutulish.

Agar biz ratsional yoki oqilona ovqatlanishni sog'lom turmush tarzining asosiy ko'rsatkichlaridan biri deb aytsak, keling shu haqda bir oz to'xtalib o'tsak.

Sifatli ovqatlanish aholining salomatlik holatini belgilab beruvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi va muhim ijtimoiy omil sifatida butun dunyo aholisiga taalluqlidir. Butun dunyo SST berayotgan ma'lumotlarga qaraganda ovqatlanishdagi kamchilik va nuqsonlar tufayli yer yuzidagi 500 mln dan ortiq

aholi jabr ko‘radi. Bu holat ko‘proq darjada kam rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar aholisiga to‘g‘ri keladi. Hozirgi kunda ovqatlanishning sifati bilan salomatlik ko‘rsatkichlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik bor ekanligi isbotlangan, chunonchi: tug‘ilish va umr ko‘rish muddati; aholining kasallanish soni; bolalar va o‘smirlarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari va h.z. Aytish joizki, bu ko‘rsatkichlarning eng muvofiq ko‘rinishlari “qanchalik ko‘p ovqat iste‘mol qilinsa shuncha yaxshi” degan printsip bo‘yicha emas, balki ovqatlanishning sifat va miqoriy ko‘rsatkichlari fiziologik ovqatlanish me‘yorlariga muvofiq tashkil etilganda yaxshi deb baholanadi.

Bizning Respublikamizda ko‘p holatlarda to‘g‘ri ovqatlanmaslik natijasida ovqat maxsulotlari bilan organizmga tushishi lozim bo‘lgan ba‘zi makro va mikro elementlarning kamayib ketishi ham turli kasalliklarni kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi, masalan alimentar anemiya, endemik bo‘qoq va boshqalar. Masalan alimentar anemiya – O‘zR dagi o‘tkir muammolardan biri hisoblanadi. G‘arbiy Yevropa davlatlari va yuqori taraqqiy etgan davlatlarda TTK (temir tanqisligi kamqonligi) kasalligi 18-20% dan oshmagan holda, Afrika davlatlarida TTK belgilari aholining 75-80% aniqlanadi. Keltirilgan ma‘lumotlarni hisobga olsak, O‘zR dagi vaziyat bundan yaxshi ko‘rinishga ega emasligining guvohi bo‘lamiz. O‘tgan asrning 90–chi yillarida o‘tkazilgan tadqiqotlarning yakuniga ko‘ra TTKning respublikadagi ayrim regionlar bo‘yicha tarqalganligi (QQR, Xorazm vil) 80% dan ortadi, umuman O‘zR bo‘yicha o‘rtacha esa: ayollarda – 60%, bolalarda – 61% ni tashkil etadi.

Mehnatga qobiliyatli erkaklar uchun ovqatlanishning kunlik energetik qiymati 2100 kkal-dan (1guruh: 40-59 yoshlilar) 4200 kkal gacha bo‘lishi nazarda tutiladi.. Ayollar uchun esa 1800 kkalgacha deb qabul qilingan.

Keksalar uchun agar ularning yoshi 60-75 atrofida bo‘lsa kunlik ovqat ratsionining energetik qiymatini 5% ga kamaytirish, 75 yoshdan o‘tganlar uchun 10-15% ga pasaytirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. L.K.Abdukadirova. Qariyalar salomatligini mustahkamlashda sog‘lom turmush tarzi va to‘g‘ri ovqatlanishning ahamiyati /“Yosh avlodni milliy qadriyatlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, keksa avlodni hurmat qilish va e‘zozlash ruhida tarbiyalashda ta‘lim tizimining o‘rni” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari-T., 2015 153-155 b.
2. L.K.Abdukadirova. Keksalik-kasallik emas /“Yosh avlodni milliy qadriyatlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, keksa avlodni hurmat qilish va e‘zozlash ruhida tarbiyalashda ta‘lim tizimining o‘rni” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari-T.,2015. 151-153 b

**“COVID-19” KASALLIGIGA TASHXIS QO’YISHDA
KOMPYUTER TOMOGRAFIYA USULI QO’LLANISHI VA GIGIYENIK
BAHOLASH**

**Abdukadirova L.K., Xalmuratov B.Z., Tursinbayev A.A.
Toshkent tibbiyot akademiyasi**

Xech kimga sir emas, oxirigi 2020-2021 yillar butun dunyoga og’ir keldi – COVID-19 koronavirus kasalligi pandemiyasi butun dunyoni qamrab oldi. Kasallikning asosiy alomatlari isitma, yo’tal va nafas qisishi bilan kechishi xamda kasallik bemorda pnevmoniya xamda o’tkir nafas qisishi xolatini keltirib chiqarish extimoli yuqori ekanligini ma’lum bo’ldi. Kasallikka tashxis qo’yishda esa rentgenodiagnostikaning kompyuter tomografiya usulidan juda keng foydalanildi va foydalanib kelinmoqda. Kompyuter tomografiya - rentgen usullarining eng yukori texnologiyasi xisoblanadi. Bu yerda xam asosan rentgen nurlari qo’llaniladi. Kompyuter tomografiya amalga oshirilganda nurlanish oddiy rentgen usulidagi nurlanishdan yukori xisoblanadi: masalan o’pka rentgenografiyasi – 0.15 mkZv, o’pka KT – 20 mkZv). Dunyo axolisi o’rtasida esa shifokor ko’rsatmasi bo’lmasada, takror takror KT uslubidan foydalanish avj olmoqda. Bu esa, o’pkani KT qilish odam organizmiga nurlanishning yuqori bosimini keltirib chiqarishi mumkin, hatto koronavirus tasdiqlangan bo’lsa-da, KT faqat shifokor tavsiyasi bilan qilish shart deb hisoblamogda. Olimlarning so’zlariga ko’ra, COVID-19 bilan xastalangan bemorlarga o’rtacha 2,5mkZv/s KT to’g’ri kelmoqda. Ilmiy ma’lumotlariga ko’ra, mart - iyun oylarida Moskva, Sankt-Peterburg va Leningrad viloyatida ommaviy nurlanish dozasi 1,5 barobar oshgan. Bu kelajakda radiatsiya bilan bog’liq xastaliklarni vujudga keltirishi mumkin. Bu esa o’z navbatida uzoq muddat, to’xtovsiz KT bilan ishlash rentgenolog shifokorlar xamda med personallarga xam salbiy ta’sir etishi muqarrar.

Bemorlarga tashxis qo’yishda keng qo’llanadigan rentgen apparatlari bilan ishlovchi xodimlar salomatligini nazorat qilish, ularni organizmiga ta’sir etuvchi spetsifik va nospetsifik omillarni o’rganish va ularni mexnat qilishlari uchun optimal shart-sharoit yaratish xozirgi kunning eng muxim va dolzarb muammolaridan biridir.

**ANALYSIS OF THE ALCOHOL DRINKING BEHAVIOR AND
INFLUENCING FACTORS AMONG ADULTS (MEN)**

Avezova G.S.

Tashkent medical academy

Alcohol consumption is major risk factor for burden of disease, particularly bouts of heavy drinking. Diseases in which alcohol has a detrimental effect

include unintentional or intentional injuries, cancer, liver cirrhosis, cardiovascular diseases, diabetes mellitus, and neuropsychiatric disorders, with an estimated 3.8% of all global deaths and 4.6% of global disability-adjusted life-years attributable to alcohol [5,6,10]. Based on the World Health Organization (WHO) Global Status Report on Alcohol and Health 2014, an average of 6.13 L pure alcohol (defined as 100% ethanol) was consumed worldwide each year in individuals aged 15 years or older [9,11]. The countries with the highest overall consumption were in Eastern Europe.

5.1% of the global disease and injury burden can be attributed to drinking alcohol [9]. In recent years, the analysis of international trends and investigations into the determinants of substance use has revealed alcohol consumption as one of the substances typically used and abused by adolescents and young adults [1,2,4]. Heavy drinking has largely been a phenomenon of emerging and young adulthood [5, 6], which places individuals at risk for adverse health and social effects [4]. It is believed this vulnerability is in part due to the dramatic life changes in relationships, employment, accommodation and roles of the individual as they transition into adulthood. Harmful drinking behaviors in young years have been associated with greater risk of severe psychiatric and other drinking problems in adults [7,8,12]. Reducing high risk drinking patterns remain a major public health challenge.

Purpose of study. Analysis of the alcohol drinking behavior and influencing factors among adults (men), to evaluate high-risk alcohol consumption using the Alcohol Use Disorders Identification Test (AUDIT), which provides a framework for intervention to identify hazardous and harmful drinking patterns as the cause of alcohol-use disorders, as well as heavy alcohol drinking.

Objectives and methods. This study evaluated the prevalence of and factors associated with high-risk and heavy alcohol drinking in Uzbekistan adults (men). This study analyzed 800 of the 1000 participants in the 2020-2011 in Uzbekistan (Xorezm and Karakalpakstan).

High-risk alcohol drinking was defined as Alcohol Use Disorders Identification Test (AUDIT) scores 16, which provides a framework for intervention to identify hazardous and harmful drinking patterns as the cause of alcohol-use disorders, according to World Health Organization guidelines.

To assess high-risk alcohol drinking in this study, we used the AUDIT, which was developed by the WHO as a simple method of screening for excessive drinking. The AUDIT comprises three domains: hazardous alcohol use (frequency of drinking, typical quantity, and frequency of heavy drinking), dependence symptoms (impaired control over drinking, increased salience of drinking, and morning drinking), and harmful alcohol use (guilt after drinking, blackouts, alcohol-related injuries, and other concerns about drinking). The AUDIT scores were categorized into three groups according to the WHO guidelines: low-risk, 0 to 7 points; intermediate-risk, 8 to 15 points; and high-risk, 16 points. We found that with AUDIT scores of 8 to 15 it was most appropriate to provide simple advice focused on a reduction in hazardous drinking or medium-level alcohol problems, whereas AUDIT scores 16 represented high-risk alcohol drinking, suggesting the

need for counseling and continued monitoring or further diagnostic evaluation for alcohol dependence.

The survey was designed using a complex, stratified, multistage probability-sampling model; consequently, individual participants were not equally representative of the Uzbek population. To obtain representative prevalence rates from the dataset, it is necessary to consider the power of each participant (sampleweight) as representative of the Uzbek population. We received a survey dataset that included information regarding the survey location, strata by age, sex, and various other factors, and the sampleweight for each participant.

Results and their discussion.

The consequences of alcohol consumption on health outcomes are largely determined by two separate, but related, dimensions of drinking: the total volume of alcohol consumed and the pattern of drinking. Most epidemiological studies focus on the amount of alcohol consumed and do not consider the pattern of drinking.

Demographics and clinical characteristics of the study population Among the 1000 participants in the 2020-2021, 200 individuals who lacked AUDIT scores were excluded. Ultimately, this study analyzed 800 participants.




Figure. Age distribution of the respondents involved in the study

Figure shows the age distribution of the respondents involved in the study. As can be seen from the picture, 1/3 of those involved in the study were respondents aged 40-49 years.

Table

Demographic characteristics of the study population

	AUDIT score							
	total		low-risk (0-7)		harmfull (8-15)		Alhogol dependce (16<)	
age	n	%	n	%	n	%	n	%
18-29	20	3,7	12	2,218	7	1,294	1	0,18
30-39	118	21,8	23	4,251	80	14,79	15	2,77
40-49	209	38,6	48	8,872	128	23,66	33	6,1

50-59	150	27,7	39	7,209	70	12,94	41	7,58
60-80	44	8,13	9	1,664	29	5,36	6	1,11
total	541	100	131	24,21	314	58,04	96	17,7
education								
	n	%	n	%	n	%	n	%
secondary	62	11,5	6	1,109	42	7,763	14	2,59
vocational	348	64,3	95	17,56	189	34,94	64	11,8
Incomplete higher	17	3,14	11	2,033	6	1,109	0	0
higher	114	21,1	19	3,512	77	14,23	18	3,33
total	541	100	131	24,21	314	58,04	96	17,7
occupation								
	n	%	n	%	n	%	n	%
workers (doctors, teachers....)	117	21,6	39	7,2	55	10,17	23	4,25
employees (agriculture....)	312	57,7	64	11,83	195	36,04	53	9,8
students	17	3,14	11	2,033	6	1,109	0	0
does not work	95	17,6	17	3,142	58	10,72	20	3,7
total	541	100	131	24,21	314	58,04	96	17,7
marital status								
	n	%	n	%	n	%	n	%
never married	12	2,22	8	1,479	4	0,739	0	0
currently married	490	90,6	121	22,37	303	56,01	66	12,2
separated	39	7,21	2	0,37	7	1,294	30	5,55
total	541	100	131	24,21	314	58,04	96	17,7

Table shows the demographic characteristics of the study population. The mean AUDIT score was 2 points. The percentages of subjects with low-, intermediate-, and high-risk AUDIT scores were 24,1%, 58,0%, and 17,7%, respectively. The weighted average alcohol intake was 20,1 (95% CI: 19.4±20.9) g/day. The overall weighted prevalence of heavy alcohol consumption (alcohol 30 g/day) was 24,1% (95% CI: 20.8±22.6%).

Table shows the weighted prevalence of high-risk (AUDIT score 16) and intermediate – or high-risk alcohol drinking (AUDIT score 8) in Uzbek adults. Overall, the prevalence of high-risk drinking was 17,7%, with the highest prevalence of 13,6% found in middle-aged adults (40±60 years).

According to age, the mean AUDIT score was highest in individuals aged 19±29 years and lowest in those aged 60 years. Age was negatively associated with the AUDIT score ($P<0.001$).

Concerning occupation, clerical support workers and service and sales workers ($P<0.001$) had higher mean AUDIT scores than managers and professionals. The marital status and household income did not influence high-risk

alcohol drinking. The factors associated with heavy alcohol drinking, based on an average of 30 g alcohol per day or more, and high-risk alcohol drinking, using the AUDIT score, were similar, with the exception of the marital status.

Conclusion. The research focused on the alcohol drinking behaviors of this particular age group, and the findings of the present study strongly supported the significant impact of social and cultural background and age-specific characteristics on the drinking behaviors.

In a representative sample of Uzbek adults, the prevalence of high-risk alcohol drinking was 17,7%, with the highest prevalence of 13,3% found in middle-aged men (40±59 years). This study suggests that young male, low education level, and service and sales workers were vulnerable to high-risk drinking pattern. Factors associated with high-risk alcohol drinking should be considered in policy-based interventions to reduce the high-risk pattern of drinking and related alcohol-attributable disease.

References

1. Gilvarry E. Substance abuse in young people. *J Child Psychol Psychiatry*. 2000; 41(1): 55–80.
2. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). Vital signs: binge drinking prevalence, frequency and intensity among adults United States, 2010.
3. Costa JS, SilveiraMF, Gazalle FK, Oliveira S, Hallal PC, Menezes AM, et al. [Heavy alcohol consumption and associated factors: a population-based study]. *Revista de saude pública*. 2004; 38: 284±291.
4. Glantz MD, Leshner AI. Drug abuse and developmental psychopathology. *Dev Psychopathol*. 2000;12(4):795–814.
5. Roerecke M, Rehm J. Alcohol consumption, drinking patterns, and ischemic heart disease: a narrative review of meta-analyses and a systematic review and meta-analysis of the impact of heavy drinking occasions on risk for moderate drinkers. *BMC Med*. 2014; 12: 182.
6. Song DS, Chang UI, Choi S, Jung YD, Han K, Ko S, et al. Heavy Alcohol Consumption with Alcoholic Liver Disease Accelerates Sarcopenia in Elderly Korean Males: The Korean National Health and Nutrition Examination Survey 2008±2010. *PLoS One*. 2016; 11: e0163222±e0163222.
7. Steinhausen H, Eschmann S, Heimgartner A, Metzke CW. Frequency, course and correlates of alcohol use from adolescence to young adulthood in a Swiss community survey. *BMC Psychiatry*. 2008; 8(1):5.
8. Substance Abuse and Mental Health Services Administration. Results from the 2010 National Survey on drug use and health: National Findings. Rockville, MD: Office of Applied Studies; 2011. HHS publication no. (SMA).
9. World Health Organization. Global status report on alcohol and health 2014.
10. World Health Organization. World: prevalence of heavy episodic drinking among current drinkers (%),2010. Global Health Observatory Map Gallery. 2014.
11. World Health Organization. World: Total alcohol per capita consumption, in litres of pure alcohol, projected estimates, 2015. World Health Statistics 2016.

12. Yoon S, Lam WW, Sham JT, Lam TH. Learning to drink: how Chinese adolescents make decisions about the consumption (or not) of alcohol. *Int J Drug Policy*. 2015; 26(12):1231–7.

SALOMATLIK UCHUN SUVNING AHAMIYATI

Atadjanova D.Sh., Soliyev B.

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Bugungi kunda suv - Yerdagi hayot manbai ekanligini hech kim inkor etmaydi. Inson, bu hayotning bir qismi sifatida, aksariyat hollarda suvdan iborat. Masalan, embrionning 97%, o‘rta yoshdagi odamni 65-75%, keksa odam organizmining 60-65% suvdan iborat. Insonning yoshi qancha katta bo‘lsa, unda suyuqlik miqdori shunchalik kam bo‘ladi. Tana a‘zolarimiz o‘z tarkibida juda ko‘p miqdorda suv tutadi. Masalan, qon - 83%, miya, yurak, mushaklar - 75%, suyaklar - 20% suvdan iborat.

Odam organizmida barcha jarayonlar me‘yorida kechishi uchun iste‘mol qilinadigan suvning optimal miqdori tana vazni 70 kg bo‘lgan odamuchun 2,5 l ni tashkil etib, undan 1,2 l ichimlik suvi, 1 l ovqat mahsulotlari orqali, 0,3 l esa yog‘lar, oqsillar va uglevodlarni oksidlanishi natijasida organizmga tushadi. Xuddi shuncha miqdordagi (2,5 l) suv sutkasiga organizmdan chiqariladi: 1,5 l siydik, 0,5 l ter, 0,4 l nafas havosi va 0,1 l najas orqali.

Bugungi kunda olimlar zamonaviy kasalliklarning juda ko‘pchiligi organizmning suvsizlanishi bilan bog‘liq ekanligini aniqladilar. Organizmning suvsizlanishi qanday oqibatlarga olib kelishini ko‘rib chiqaylik:

- Qalqonsimon bez faoliyatining buzilishi;
- Yurak-qon tomir tizimi va asab tizimining faoliyatidagi buzilishlar;
- Ortiqcha vazn to‘plash;
- Bosh og‘riqlari, tez toliqish, qon bosimidagi o‘zgarishlar;
- Sochlarning quruqshashi, tirnoqlar sinuvchanligi, terining erta qarishi;
- Og‘iz qurishi, tildagi karashlar, og‘izdan badbo‘y hidlar kelishi;
- Ich qotishlar, buyrakda va o‘t pufagida tosh paydo bo‘lishi.

Xo‘sh bunday salbiy oqibatlarni oldini olish uchun suvni qanday va qancha miqdorda ichish kerak? Suvni har kuni ichish zarur. Suvni faqat chanqoq hissi paydo bo‘lgandagina emas, balki undan oldin ichish zarur. Sababi chanqoq hissi organizmning suvsizlanishi natijasida kelib chiqadi. Demak, biz suvni organizm suvsizlanmasidan oldin qabul qilishimiz zarur. Suv iste‘molining minimal sutkalik miqdori 1,5 l. Lekin ayrim omillarga bog‘liq holda kundalik suv iste‘molini oshirish kerak bo‘ladi. Masalan, odamlarda ortiqcha vazn mavjud bo‘lganda har 1 kg tana vazniga 30 ml suv hisobidagi formuladan foydalanish zarur. Keks odamlarga ham suv iste‘molini oshirish zarur, sababi yosh o‘tgan sayin chanqoq hissi pasayib boradi, lekin yosh o‘tgan sari dorilarni qabul qilishga ehtiyoj ortadi va bu qabul qilinayotgan dori vositalari suvsizlanishga olib kelishi mumkin. Shuningdek issiq kunlarda, kuchli jismoniy zo‘riqishlarda va sport bilan shug‘ullanishda kundalik suv iste‘molini oshirish zarur bo‘ladi.

Optimal suv muvozanatini saqlash uchun suyuqliklarni bir xil porsiyalarda ma'lum vaqt oralig'ida ichish zarur.

Ichimlik suvini qabul qilib turish juda oson ish bo'lishiga qaramay, ko'plab insonlar bu zaruratni unutishadi. Ammo suyuqlik ichish rejimiga amal qilish - mustahkam sog'lik negizi ekanligini unutmasligimiz kerak.

VITAMINLARNING SALOMATLIK UCHUN AHAMIYATI

Atadjanova D.Sh., Soliyeva D.B.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institute

Vitaminlar inson organizmida yuzlab vazifalarni bajaradi. Biz ularsiz yashay olmaymiz. Yaxshiyamki, ular biz iste'mol qiluvchi turli xil oziq-ovqat mahsulotlarida mavjud.

Kanada oziq-ovqat qo'llanmasiga ko'ra, odam har kuni quyidagi 5 ta guruhning har biridan oziq-ovqat iste'mol qilib turishi shart: 1) non, yorma va makaron mahsulotlari; 2) sabzavotlar va mevalar; 3) hayvon mahsulotlari (go'sht, tuxum, baliq); 4) sut mahsulotlari; 5) yog'lar, moylar, shirinliklar. Bu organizmdagi hayotiy jarayonlarni qo'llab-quvvatlash uchun yetarli miqdorda energiya, vitaminlar va minerallarni olish uchun zarurdir.

B guruhi vitaminlari asab tizimining normal ishlashi, organizmning barcha to'qimalarining tiklanishi va sintezi, shuningdek eritrotsitlar hosil bo'lishi uchun zarurdir.

Vitamin B 12 (sianokobalamin) ni nafaqat hayvon mahsulotlarida, masalan, mol go'shti, cho'chqa go'shti, parranda go'shti, baliqda, balki sut mahsulotlari va tuxumlarda ham uchratish mumkin.

Antioksidantlar: C vitamini, E vitamini, beta-karotin va selenni hujayralarni zararlanishidan himoya qiladi. Biz antioksidantlarni o'simlik mahsulotlaridan, masalan, sabzavot, meva, yong'oq, donli va dukkaklilardan olishimiz mumkin.

Beta-karotin yorqin rangli sabzavot va mevalarda, masalan, sabzi, o'rik, oshqovoq va boshqalarda uchraydi.

E vitamini deyarli barcha o'simlik moylarida, avakado, bug'doy, yong'oq va mag'izlarda mavjud.

C vitamini sitrus mevalar, qulupnay, qalampir, pomidor va brokkoli kabi ko'plab sabzavot va mevalarda uchraydi. C vitaminiga boy ovqatlarni ko'proq iste'mol qilishga harakat qiling, chunki issiq kunlarda ko'p terlash ushbu vitamin yetishmasligiga olib kelishi mumkin.

D vitamini sog'lom suyaklar va tishlar uchun, shuningdek mushaklar, gormonal va asab tizimlarining to'g'ri ishlashi uchun muhimdir. D vitamini immunitet tizimining to'g'ri ishlashi uchun ham javobgardir. Ratsioningizga doimo ushbu vitaminlarni o'z ichiga olgan oziq-ovqat mahsulotlarini kiriting.

D vitamini oziq-ovqat mahsulotlarini cheklangan miqdorida mavjud. Faqat tuxum sarig'i va yog'li baliq (masalan, losos, skumbriya va tunets)larda ko'p miqdordagi D vitamini bo'lishi mumkin. Boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, masalan, apelsin, ba'zi turdagi pishloqlar va qatiqlarda bu vitaminning bir qismi bo'lishi mumkin, ammo unchalik ko'p emas.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, agar sog'lom bo'lishni istasangiz yuqorida keltirilgan 5 turdagi turli xil oziq-ovqat mahsulotlaridan iste'mol qilsangiz, qimmat dorilarni qabul qilishga ehtiyoj qolmaydi. Sababi dori shaklida chiqarilayotgan vitaminlar biz iste'mol qilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarimizda ham mavjuddir.

**JAMOA SALOMATLIGI SAQLASHDA ISHLAB CHIQUARISH
SANITARIYASI AHAMIYATI
Axmadaliyev R.U., Umaraliyev Sh.R.
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti**

Ma'lumki, xalq xo'jaligining ayrim sohalarida, jumladan, qishloq xo'jaligi, neft va gaz quduqlarini qazish va ulardan foydalanishda ko'pgina ishlar ochiq havoda o'tkaziladi. Bunday holda ishchilarga meteorologik sharoitlar, yani havoning harorati, namligi, bosim, qor, yomg'ir, quyosh radiatsiyasi va boshqa shu kabi omillar katta ta'sir etadi. Ushbu omillar ikki xil yo'l, yani, havo orqali yoki bevosita muloqotda bo'lish orqali ta'sir etishi mumkin. Odam nafas olganda o'pkaga kirayotgan havo tarkibida kislorod 21%, chiqarayotganda 16% ni tashkil qiladi. Havo tarkibidagi zararli moddalar (gazlar, bug'lar, chang va b.) inson uchun juda zararli bo'lib, har xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Sof toza havo tarkibida 77% azot, 21% kislorod, 1% is gazi va boshqa aktiv gazlar, 1% inert gazlar (argon, neon va b.) mavjud. Havo tarkibi qanchalik kislorodning manfiy ionlari bilan to'yingan bo'lsa, inson organizmini kislorod bilan ta'minlanish darajasi shunchalik yaxshilanadi. Lekin ishlab chiqarish sharoitida tabiiy sof toza havo deyarli uchramaydi.

Chunki ko'pgina texnologik jarayonlar har xil zararli moddalarni ajralib chiqishi bilan kechadi. Yirik changlar nafas olganda burun bo'shlig'ida qolib, o'pkaga kirmaydi. Mayda changlar esa (asosan, o'lchami 10 mk.dan kichik bo'lgan changlar) nafas orqali burun bo'shlig'idan o'tib, o'pkaga o'rmasadi va vaqt o'tishi bilan turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, diametri 0,3 mk.dan kichik changlar qonga tushishi ham mumkin. Changlar o'z zarrachalari yuzasida turli xil zararli moddalar (mishyak, berilliy, kadmiy, nikel, qo'rg'oshin, xrom, mis, asbest, vanadiy va b.) bilan bog'lanib insonni kuchli zaharlanishiga sabab bo'ladi. Yuqorida keltirilgan chang turlari ichida, ayniqsa, metall changlari, jumladan, qo'rg'oshin changlari inson uchun juda xavflidir.

Qo'rg'oshin changlarining havo tarkibidagi juda oz konsentratsiyasi ham inson sog'lig'iga salbiy ta'sir etadi. Masalan, 100 ml qon tarkibida 35 mkg qo'rg'oshin bo'lishi insonning bosh miyasi funksiyasining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari qo'rg'oshin qonda gemoglobin sintezining buzilishiga, muskul tizimlarini susayishidan tortib shol bo'lishigacha, jigar, buyrak va miya faoliyatini buzilishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda jahon bo'yicha 3,3 mln. tonna qo'rg'oshin ishlab chiqarilmoqda. Faqatgina avtomobillardan chiqadigan gazlar bilan havoga har yili 250 ming tonna qo'rg'oshin chiqarilmoqda. Amerikalik olimlar tomonidan bundan 1600 yil oldin yashagan janubiy Amerika tub

aholisining suyak skeleti tarkibidagi qo'rg'oshin miqdori bilan hozirgi zamondagi odamlarning suyak skeletidagi qo'rg'oshin miqdori taqqoslanganda, bu miqdor hozirgi zamon odamlarida 700–1200 marta ko'p ekanligi aniqlangan.

Kasb kasalliklarining oldini olish, shuningdek, korxonada va u joylashgan hududda sanitariya-gigiena me'yorlariga rioya qilish, ishchi-xizmatchilarning ish joylarini yoritish, isitish, shamollatish (ventilyatsiya) va h. k. ning gigiena talablari darajasida bo'lishini ta'minlash zarur. Bulardan tashqari, ishlab chiqarish omillari, masalan, havodagi chang, kimyoviy moddalar miqdori, shuningdek, vibratsiya kuchi, shovqin va h. k., shuningdek, harorat, namlik va boshqa(lar)ning maromida bo'lishini doimiy nazorat bolishi lozim. Korxonada qurilishi va ishlab chiqarishga topshirilishigacha bo'lgan jarayonlarda sanitariya me'yorlari va gigiena qoidalariga asoslangan holda ish yuritadi.

Ishchi-xizmatchilarga zararsiz va xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, ishlab chiqarishda xavfsizlik texnikasining zamonaviy vositalarini qo'llash korxonada rahbariyati zimmasida bo'lib, ular davlat tomonidan belgilangan maxsus me'yorlarga asoslangan holda ish ko'rishlari talab etiladi. Korxonada, muassasada, tashkilotlarning gigiena normalariga, sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilinayotganligi ustidan davlat sanitariya nazorati organlari, kasaba uyushmalari hamda texnika va huquq mehnat inspeksiyalari nazorat qiladi.

YURAK QON – TOMIR PROTEZLARI TURLARI VA ISHLAB CHIQRILADIGAN MATERIALLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Axmadaliyeva G., Qosimova G.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti


Annotatsiya. Bugungi kunda yurak qon-tomir kasallaiklari o'limning asosiy sabablaridan biridir. Yurak doimiy ravishda qonni haydab turadigan mushak organidir. Vaqt o'tishi bilan qon-tomirlari qalinlashib ichki qoplamalar hosil qiladi. Bu ichki qoplama qon – tomirlarni vazifasini bajarishida katta noqulaylik tug'diradi. Natijada yurak-ishemik kasalliklari vujudga keladi. Bu turdagi kasalliklarni oldini olishdan tashqari, hozirgi kunda jarrohlik yo'li bilan yurak qon-tomirlariga stent qo'yish bilangina bartaraf etish mumkin.

Organizm orqali hujayralarnikislorod va ozuqa moddalari bilan boyitiladi. Bunday qon qon-tomir koronar arteriyalar tarmog'i orqali yurak mushaklariga yetkaziladi. Arteriyalar kichik, lekin ularyurak mushaklarining faoliyatida qo'llab-quvvatlovchi muhim qon tomirlardir.

Aortadan chiqadigan ikkita koronar arteriya mavjud. O'ng koronar arteriya ikkita asosiy tarmoqqa bo'linadi: orqatushuvchi va chap qorincha. Chap koronar arteriya ham ikkita asosiy tarmoqqa bo'linadi: oldingi tushuvchi va egluvchi arteriyalar; ular o'z navbatida kichikroq shoxlarga bo'linadi. Yosh o'tishi bilan koronar arteriyalarning ichki qoplamasida xolesterin moddalar kabi yog'li konlar paydo bo'ladi. Bu yog'li birikmalari aterosklerotik qoplamalar deb ataladi (1-rasm). Ularning paydo bo'lishiga hayvon yog'lari va xolesteringa boy oziq-ovqat bilan ovqatlanish, chekish, past jismoniy harakatchanlik, stress, gipertoniya kasalliklari, metabolizm buzilishi, irsiyat va boshqalar sabab bo'ladi.

Arteriyadagi ortiqcha qatlamlarning paydo bo`lishi uni notekis qiladi, va tomirning elastikligini pasaytiradi. Vaqt o`tishi bilan ular qalinlashib qon – tomirlarni yanada toraytiradiarteriyalar va yurak mushagiga qon oqimiga to'sqinlik qiladi. Xolesterinni bunday joylashishi koronar arteriyalarnishaklini o`zgartirib, yurakning ishlashiga turlicha ta`sir ko`rsatadi.

Biroq, har qanday torayish va undan ham ko'proq koronar arteriyalarning to'liq to'silib qolishi yurakka qon ta'minotini kamaytiradi. Yurak hujayralari ular kisloroddan foydalanadilar va shuning uchun qondagi kislorod darajasigajuda sezgir. Xolesterin to`plami kislorodiyetkazib berishni sekinlashtiradiva yurak mushaklarining ishlab chiqarish funksiyasini kamaytiradi.



1-rasm. Yurak va uning arteriyalari (a), koronar tomirda aterosklerotik qoplama (b)

Natijada, yurakning oziqlanishi, ayniqsa, jismoniy faoliyatdavomida buziladi. Bu qo'llarga yoki pastki jag'ga berishi mumkin bo'lgan ko`krakning orqa qismida yengil va o'rtacha og'riqlarga olib keladi. Bundayholat stenokardiya deb ataladi. Qon – tomirlarda yoritilishini to'liq berkilishi yurak miokard infarktiga olib keladi. Bunday holatlarda yurak qon – tomirlariga jarroxlik yo`li bilan stent qo`yishbilangina bartaraf etish mumkin.


Stentlarni ishlab chiqish bo'yicha ko`plab materiallarni xossalari o`rganilgan va sinovdan o`tkazish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan.

Stentlar - arteriya devorining siqilish kuchiga qarshilik ko'rsatish uchun qattiq, tomirning burilish joylari uchun egiluvchan, bri vaqtning o`zida qon – tomir to`qimalariga moslanuvchan bo`lishi kerak.

Stentlarga quyidagi talablar qo`yiladi:

1. To'qima suyuqliklari bilan jismonan yumshatilmasligi kerak
2. Kimyoviy inert bo'lishi kerak
3. Yallig'lanish yoki rad etishni keltirib chiqarmasligi kerak
4. Kanserojen xususiyatga ega bo'lmasligi kerak
5. Allergiya yoki sensibilizatsiyaga olib kelmasligi kerak
6. Mexanik kuchga ega bo'lishi kerak
7. Zavod ishlab chiqarish uchun mos bo'lishi kerak
8. Sterilizatsiya uchun mos bo'lishi kerak

Stentlar zanglamaydigan po'latdan, tantaldan, kobalt va nikel-titan, titan va magniy qotishmalardan tayyorlanishi mumkin.



2-rasm. Turli xil firmalar stentidan namunalalar.

Adabiyotlar:

1. J. Puel, U. Sigwart, N Engl. Intravascular stents to prevent occlusion and restenosis after transluminal angioplasty // J. Med. 1987, v.316, p.701-706.
2. Handbook of coronary stents. Second ed. Rotterdam. Thorax Center Group./ Ed. By P.W. Serrugs, V.Y. Kutzuk, M. Dunitz. London, 1998, 343 p.
3. И.И. Папилов, Г.Ф. Тихинский. Структура и механические свойства мелкозернистого деформированного бериллия // ФММ. 1970, т.29(5), с. 1057.
4. И.И. Папилов, Г.Ф. Тихинский. Пластическая деформация бериллия. М.: «Атомиздат», 1973.
5. В.Е. Иванов, И.И. Папилов и др. Сверхпластическая деформация бериллия II ДАН СССР. 1974, т. 216, с. 1258-1260.

**OSHQOZON-ICHAK TIZIMI KASALLIKLARI, TABIIY DAVOLASH
USULLARI VA UNING PROFILAKTIKASI**

**Axunjonova H.A., Valiyev A.L., Turg'unboyev F.A.
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti**

Annotatsiya. Bemorlarda yallig'lanishning birinchi belgilar ko'ngil aynishi va oshqozon-ichak traktining buzilishi bilan namoyon bo'ladi. Oshqozon-ichak traktining buzilishi yallig'lanishni keltirib chiqaradi - gastrit, enterit. Surunkali kasalliklar - xoletsistit, pankreatit kuchayishi mumkin. Turli mualliflarning fikriga ko'ra, so'nggi yillarda uning chastotasi 2-2,5 baravar oshdi, bu yuqori ovqat hazm qilish traktining yallig'lanishi bilan og'rikan bemorlar sonining haqiqiy ko'payishi bilan ham, diagnostikaning yangi usullaridan foydalanish bilan ham bog'liq. Yallig'lanishni dorilar yordamida va parhezga rioya qilgan holda yengish mumkin. Gastrit, enterit, xoletsistit, pankreatit, gastroduodenit uchun parhez davolashning eng muhim komponentidir. Tadqiqotning nazariy usulidan foydalanildi. Xalqaro olimlarning ko'plab maqola va dissertatsiyalari tahlil qilindi, ular turli kitoblar, dissertatsiyalar, shuningdek, elektron jurnallar asosida tayyorlandi.

Kalit so'zlar: Gastrit, regeneratsiya, terapiya, parhez, oshqozon-ichak trakti. Hozirgi kunda ovqatlanish sistemasining asosini tashkil etadigan; oshqozon-ichak kasalliklari, bunday kasalliklar ko'p hollarda sifatsiz yoki noto'g'ri ovqatlanish (oshqozondagi kislotali muhitni o'zgartirish) oqibatida kelib chiqadi. Oshqozondagi turli yara kasalliklar haqida ma'lumot ularning asoratlari, birinchi belgilari, ularni

uy sharoitida davolash ko'nikmalari bilan batafsil tanishamiz. Oshqozon va ichak kasalliklari bir-biridan farq qiladi. Gastrit kasaligini oladigan bo'lsak, bunda oshqozondagi kislotali muhitning oshishi va kislota kamayib ketishi bilan farqlanadigan kasalliklarga bo'linadi. Oshqozon o'zi kislotali muhit buning vazifalaridan biri ovqat bilan kirgan zararli bakteriyalarga qarshi kurashish hisoblanadi. Agar biz ovqatlanayotganimizda ovqat bilan suv yoki choy ichish oshqozondagi kislota konsentratsiyasini kamaytiradi, ya'ni suyuqlanib ozuqa bilan birgalikda kirgan zararli bakteriyalarga qarshi kurasha olmaydi, buning natijasida kasalliklar kelib chiqadi. Oshqozondagi kislotali muhitni normaga solish uchun tabiiy usul shotut sirkasini bir choy qoshiq miqdorda ichilsa hazmga foyda beradi. Oshqozoning kislotali muhiti ko'payib ketsa organizm ko'proq ovqat talab qila boshlaydi, bunda jig'ildon qaynashi va bezovtaliklar yuzaga keladi. Ushbu bezovtalikni kamaytirish uchun tez-tez va oz miqdorda ovqatlanib turish kerak. Oshqozondagi kislota muhitini oddiy usulda uy sharoitida nonsoda ya'ni NaOH ni ilitilgan suvda ertma hosil qilib ichiladi. Buning foydasi, nonsoda ishqoriy uni ichilganda oshqozonda ko'paygan kislotali muhitni neytrallashi natijasida, jig'ildon qaynashi va kelib chiqadigan yara kabi kasalliklarni profilaktika qilinadi. Agar siz achchiq va sho'r taomlarni, gazli suvlarni ko'p iste'mol qilsangiz, o'z vaqtida taom iste'mol qilmasangiz ham oshqozonda kislota ko'p ishlab chiqariladi, kislotalik muhit ortib shilliq pardani zararlaydi. Bunda oshqozon shilliq qavati yallig'lanib qizarish hosil bo'ladi, gastrit va yaraga olib keladi. Bunday yaralar me'dadan o'n ikki barmoq ichakka o'tadigan pilorus sfinkterida ko'p uchraydi. Yaralarning birinchi belgilaridan biri ich qon ketish hisoblanadi. Gastrit kasalligida og'riq butun qorin qismi chegarasi bo'ylab kuzatiladi, yara kasalligi esa faqat bitta nuqtada og'riq bo'ladi. Oshqozonda shira ajralishi ko'paysa, xalq tilida aytganda ichqotish holati kuzatiladi, bunda qorinda og'riq, o'zini behuzur his etish, nerv sistemasiga ta'siri natijasida boshda og'riqlar kuzatiladi. Bu holatda organizmga kerakli bo'lgan biopolimerlar, vitaminlar sintezlanmasligi natijasida hosil bo'ladi. Kislotaliligi kamaysa, ovqat hazm qilish pasayish holatlari paydo bo'ladi. Bu jarayonda suyuq ovqatlar 2 soatda, quyuq ovqatlar esa 4 soatgacha oshqozonda turadi. Oshqozon yara kasalliklarini davolash mashaqqatli va vaqt talab etiladi. Kasallikning kelib chiqishiga 5 ta sabab:

1. Ratsional ovqatlanishni buzilishi.
2. Oshqozon shirasi tarkibi o'zgarishi.
3. Asab sistemasining buzilishi, bu nerv sistemasida tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlari buzilib, mediator suyuqliklari chiqizi o'zgarib tomirlarga ta'sirini ko'rsatadi va qon kelishi buziladi, oshqozonga keluvchi va ketuvchi qon tomirlar torayadi, natijada me'da shilliq pardasida o'zgarishlar hosil bo'la boshlaydi.
4. Oshqozon va ichakda parazit holda yashovchi gijja va chuvalchanglar, bular organizmga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday parazitlar o'zidan zaharli modda ishlab chiqarib, me'da shilliq qavatini yallig'lanishiga sabab bo'luvchi omildir.
5. Ko'p dori ichuvchi insonlarda ham yara kasaligi kelib chiqadi. Asosan og'riq qoldiruvchi (parasitamol, aspirin) kabilar.

Bu kasalliklarni oldini olishda sog'lom turmush tarzi, ratsional ovqatlanish, oz-oz tez miqdorda ovqatlanish, och qoringa haddan tashqari ko'p miqdorda

ovqatlanmaslik, zararli hisoblangan sigareta, nos va spirtli ichimliklardan voz kechish, asabilashmaslik, zararli odatlardan saqlanish kerak. Gastrit kasalliklarida ko‘pincha shifobaxsh ovqatlanish yaxshi samara beradi. Shunga qaramasdan bemorlarni davolashga individual yondashish kerak. Kasallikning kechishini hisobga olib parhez ovqatlanishni turli dori-darmonlar bilan va boshqa davolash usullaridan to‘g‘ri foydalanish bilan qo‘shib olib borish maqsadga muvofiq. Oshqozon-ichak sistemasi kasalliklarini davolashda asosan tabiiy usullardan va dorilardan foydalanish afzal. Bunda biopolimerlar va fermentlar terapiyasidan foydalanish, tabiiy Aloe, shirinmiyya o‘simliklarining ham foydasi bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. М.Н. Репецкая, О.М. Бурдина «СОВРЕМЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ХРОНИЧЕСКОГО ГАСТРОДУОДЕНИТА У ДЕТЕЙ» Пермский медицинский журнал 2017. XXXIV. № 3. С. 19-24
2. Diyetologiya V.M.Saidov. tahriri ostida Toshkent. iqtisod-moliya, 2008 y
3. Sog‘lom ovqatlanish-salomatlik mezonlari. Sh.I.Karimov. tahriri ostida toshkent. “O‘zbekiston” 2015
4. Tibbiy kimyo S.Masharipov Toshkent 2018

**DISEASE WITH POSTCOVID GASTRODUODENITIS AND THE
ROLE OF DIET IN TREATMENT**

**Akhundjonova Kh.A., Kholboboeva Sh.A.
Ferghana Medical Institute of Public Health**

Summary. In some patients, the first signs of covid are not sore throat and cough, but nausea and gastrointestinal disturbances. The symptoms are similar to rotavirus and easy to confuse, but this is how the coronavirus also begins. Entering the body through the gastrointestinal tract, the infection causes inflammation - gastritis, enteritis. Chronic diseases - cholecystitis, pancreatitis can become aggravated. According to various authors, its frequency has increased by 2–2.5 times in recent years, which is associated both with a true increase in the number of patients with inflammatory lesions of the upper digestive tract, and with the use of new diagnostic techniques [1, 3]. No matter how trite, but inflammation can be defeated with the help of medications and while observing the diet. Diet for gastroduodenitis is the most important component of treatment. The theoretical method of research was used. Many articles and dissertations by international scientists were analyzed, which were based on various books, dissertations, as well as electronic journals.

Key words: gastroduodenitis, coronavirus, diet, gastrointestinal tract.

Relevance. The emergence and rapid spread of a new coronavirus (SARS-CoV-2) has posed challenges for healthcare professionals related to rapid diagnosis

and provision of medical care to both patients infected with SARS-CoV-2c and patients with chronic diseases of various organs and systems. On February 11, 2020, the World Health Organization (WHO) officially named the infection caused by the novel coronavirus COVID-19 (“Coronavirus disease 2019”). Information on the epidemiology, clinical features, prevention, and treatment of COVID-19 is currently limited. There is even less data on the course and outcomes of chronic pathology, including diseases of the digestive system against the background of COVID-19. The risks are associated not only with the infection itself or with the risk of decompensation and exacerbation of chronic diseases of the digestive system, but also with the need for an emergency reorganization of the medical service in order to cope with all the problems in a pandemic.

“In addition to the coronavirus itself, the treatment of covid also seriously affects the organs of the gastrointestinal tract. Antibiotics, antiviral and hormonal drugs put a heavy burden on the gastrointestinal tract, says Maria Lyapina, a gastroenterologist at the Tyumen Cardiology Research Center. - As a result, drug-induced hepatitis, dysbacteriosis, diarrhea develop, patients complain of pain in their right side. And if someone already had problems with the digestive organs, then exacerbations occur.” (Smirnova A., 2020)

Duodenitis is an inflammation of the mucous membrane of the duodenal wall. There are acute and chronic forms of the disease, they differ in the severity of symptoms. Timely treatment of acute duodenitis avoids structural changes in tissues, while in chronic cases, frequent exacerbations can be observed, and emerging foci of inflammation lead to a restructuring of the mucosal structure. Therefore, a timely visit to a doctor with severe severe symptoms often helps to avoid unwanted changes.

Depending on the form of the disease, the following symptoms may be observed: pain in the upper abdomen, especially when hungry and at night; digestive disorders (diarrhea, constipation); bloating, rumbling, flatulence; "bitter" belching, incessant hiccups; nausea, rarely - vomiting; heartburn, discomfort. In very rare cases, bleeding from the gastrointestinal tract occurs, which is associated with the formation of ulceration of the mucous membrane.

Various reasons may be involved in the formation of duodenitis. The main ones include: diet errors (love for spicy, smoked, fatty foods); bad habits, frequent coffee consumption; food and drug poisoning; invasions (parasitic diseases); concomitant pathologies of the gastrointestinal tract (gastritis, stomach ulcer, inflammation of the gallbladder, etc.); *Helicobacter pylori* infection; diseases and conditions that cause disruption of the blood supply to the tissues of the intestine.

The tactics of treating duodenitis is chosen by a specialist depending on the severity, clinical form and general condition of the patient. So, when the bacterium

Helicobacter Pylori is detected, therapy is based on the destruction of the pathological flora, the protection of the mucosa (drugs are used to reduce the production of gastric juice, means for "enveloping"). Normal digestion is restored with the help of enzyme-based products.

The acute phase requires active intervention. It is important to strictly follow the doctor's prescriptions and a special diet: exclude foods that are poorly digested and take a long time, irritate the mucous membrane (salted, peppered, smoked). Chronic is also subject to effective correction. The specialist will pay special attention to the restoration of normal intestinal flora. It is necessary to eat right even with relief and achieving a stable remission.

In the event that duodenostasis occurs - a violation of the motor activity of the intestine - it is necessary to eliminate the cause of the disease. Functional disorders are corrected conservatively: the doctor will prescribe a special diet, you need to eat in small portions, and you should also refuse products that stimulate the production of bile. Duodenal sounding with bowel lavage can be performed. In extremely rare cases, surgery is required.

So far, there is not much data. The results of monitoring patients are as follows: the incidence of gastrointestinal lesions in COVID-19 is different. Thus, diarrhea occurred in 34% of cases, vomiting was observed in 3.9% of cases, abdominal pain bothered 1.9% of patients. More data is needed for a more accurate picture, as this study was conducted with 204 patients. If we talk about diarrhea as the most common symptom, then it most often developed already during hospitalization. The researchers hypothesized that dry cough and shortness of breath are predominantly characteristic of the first wave of cases of coronavirus infection, and the symptoms of the gastrointestinal tract are characteristic of the second wave. But we must understand that this is a hypothesis: it is premature to talk about defining clear diagnostic criteria and describing the gastrointestinal form of covid. The appearance of symptoms of damage to the gastrointestinal tract needs to be assessed by a specialist gastroenterologist, and only after confirmation of the presence of infection with a new coronavirus can they be attributed to the manifestation of COVID-19.

With exacerbation of gastritis, a sparing diet is necessary. Patients with gastritis are contraindicated in chocolate, coffee, carbonated drinks, alcohol, canned food, concentrates and surrogates of any products, spices, spices, as well as fast food products, dishes that provoke fermentation (milk, sour cream, grapes, black bread, etc.) , smoked, fatty and fried foods, pastry products. At the same time, nutrition should be varied and rich in proteins and vitamins. At the end of the acute state, nutrition should become complete with the observance of the stimulating principle during the period of remission in patients with low acidity.

Fractional meals are recommended, 5-6 times a day. Chronic catarrhal reflux gastroduodenitis. Chronic gastritis on the background of the antrum of the stomach.

References

1. О.М. Драпкина, И.В. Маев, И.Г. Бакулин «Болезни органов пищеварения в условиях пандемии новой коронавирусной инфекции (COVID-19)» Профилактическая медицина, 2020, т. 23, №3
2. *Алевтина Федина* «Постковидный синдром — как жить после коронавируса» 2021
3. Денисов Николай Львович «Режим питания после гастродуоденита» 2022 Клиника высоких медицинских технологий им. Н.И.Пирогова
4. М.Н. Репецкая, О.М. Бурдина «СОВРЕМЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ХРОНИЧЕСКОГО ГАСТРОДУОДЕНИТА У ДЕТЕЙ» Пермский медицинский журнал 2017. XXXIV. № 3. С. 19-24

ОQAVA SUVLARNI TOZALASHDA ILG'OR BIOTEKNOLOGIK USULLARNI QO'LLASH

¹Ashurova M.D, ²Saydullayeva K.M., ³Mamatova M.A.

^{1,2}Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,

³Farg'ona davlat universiteti

Bugungi kunda oqava suvlar va suv havzalari tozaligini muhofaza qilish masalasiga katta e'tibor berilmoqda, shu bilan birga yer ustki va yer ostki suvlarining oqava suvlar ta'sirida bug'lanishini oldini olish maqsadida bir qator tadbirlar joriy qilinmoqda. Oqava suvlarni tozalash hozirgi davrning dolzarb muammolarning biri ekanligi shuning boisidir.

Xususan, oqava suvlarni tozalashda qo'llaniladigan eng maqbul usul – biologik tozalash hisoblanadi. Biologik tozalash uslubi o'z mazmuni jihatidan mikroorganizmlar va suv o'simliklari (gidrobiont) ishtirokida aerobli biokimyoviy jarayonlar yordamida oqava suvlarni tarkibi organik minerallar bilan ifloslanishini tozalashni o'z ichiga oladi. Biologik tozalash suv tarkibidagi mikroorganizmlarni yo'qotadi. Ushbu bosqichda oqava suvlar tarkibidagi organik azot va fosfor bartaraf etilib, kislorodga biologik ehtiyoj (BPK) ko'rsatkichi kamayadi va minerallashish jarayoni sodir bo'ladi. Oqava suvlarning suyuq qismi tabiiy yoki sun'iy uslubdagi biologik tozalashga yo'naltiriladi. Tabiiy biologik tozalash jarayoni biologik hovuzlarda filtratsiya maydonlarida, sug'orish dalalarida amalga oshiriladi. Sun'iy biologik tozalash uchun biologik filtrlar, aerotenklar kabi maxsus inshootlardan foydalaniladi. Cho'kindiga maxsus maydonlarda yoki metantenklarda ishlov beriladi. Tabiatdagi suvlarning biologik tozalanishi o'z-o'zidan sodir bo'ladi. Turli tozalash inshootlarini yaratishda tabiatdagi jarayonlarni o'rganib foydalanish mumkin. Oqava suvlarni biologik uslubda tozalashda kislorodga nisbatan bog'liqligiga ko'ra ikki guruhga bo'linuvchi bakteriyalar ishtirok etadi: aeroblar (suvda erigan kislorod bilan nafas oluvchi) va anaeroblar (kislorodsiz muhitda rivojlanuvchi). Anaerob (havosiz) tozalash temir beton hajmlarda amalga oshiriladi (metantenk, septik tenk, ikki qavatli cho'kindi

hajm). Bunda metanni paydo qiluvchi bakteriyalar yordamida organik ifloslantiruvchilarni achitish jarayoni sodir bo‘ladi. Anaerob tozalash uslubining asosiy kamchiligi – bu biogaz (metan) ajralib chiqishidir, natijada, nohush hid paydo bo‘lib, sanitariya jihatdan yomon holatga va yong‘in keltirib chiqarish xavfiga olib keladi.

“Farg‘ona suv ta‘minoti” Farg‘ona shahar bo‘limiga qarashli oqava suvlarni tozalash inshootining faoliyati o‘rganilganda, oqava suvni kimyoviy tozalash texnologiyasi bo‘yicha yangi usul qo‘llanganligi aniqlandi. Unga ko‘ra oqava suvni xlorlash bosqichida yodlanmagan osh tuzidan gipoxlorid natriy eritmasini ajratib olish yo‘li bilan suv zararsizlantiriladi. Mazkur usulning afzalligi, ancha arzon va ko‘p vaqt talab qilmaydi. Jumladan, elektroliz qurilmasida yodlanmagan osh tuzi va gipoxlorid natriy eritmalari yordamida oqava suvlarni zararsizlantirish orqali tozalanadi.

Oqava suvlarni biologik tozalashning ekologik xavfsiz va iqtisodiy arzon hamda samarali uslublarini joriy etish tabiiy suv resurslarini muhofaza qilishning muhim omillaridan biridir. Ayni yo‘nalishda turli usullar mavjud bo‘lib, bulardan eng zamonaviy, ommaboplaridan biri - oqava suvlarni yuksak suv o‘simliklari hamda suvbotqoq o‘simliklari yordamida tozalash hisoblanadi. Olib borilgan ko‘p yillik ilmiy tadqiqotlar natijasida qishloq xo‘jaligi korxonalari, sanoat korxonalari (kanopni qayta ishlash, mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarish, biokimyoy, yog‘- moy korxonalari, pillachilik korxonalari, to‘qimachilik sanoati)da tsianidlar, neft mahsulotlari hamda patogen mikroorganizmlardan yuksak suv o‘simliklari, ya‘ni pistiya, eyxorniya va azolla o‘simliklari yordamida suvlarni tozalash metodi ishlab chiqildi. Ular suv betida qalqib o‘tuvchi, ko‘p yillik o‘simliklar bo‘lib, tropik va subtropik mintaqalarda keng tarqalgan va O‘zbekistonda muvaffaqiyatli iqlimlashtirilgan. Tadqiqotlarimizning natijalari turli oqava suvlarni 12-15 sutkada to‘liq biologik tozalashni amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatdi.

Azolla yalpi ko‘payishining optimal davri iyul-sentyabr oylari bo‘lib, bu davrda sutkasiga 250-300 g/m² biomassa hosil qiladi. Oqava suvlarda o‘stirilgan azolla 1 gektar suv yuzasidan bir kecha-kunduzda 1500-2000 kg gacha ho‘l biomassa; pistiya va eyxorniya esa 1800-2700 kg gacha ho‘l yoki 90-135 kg gacha mutlaq quruq biomassa berishi mumkin (iyun-oktyabr oylarida). Yuksak suv o‘simliklarining biomassalarini ko‘chat sifatida oqava suvlarni tozalash inshootlarining biologik hovuzlariga ekish yoki issiqlik yordamida (AVM-0,65, AVM-1,5) ishlov berib, vitaminli un tayyorlab, oqsil – vitaminli va mineral ozuqa sifatida qishloq xo‘jalik hayvonlari va parrandalarini boqishda ularning ratsioniga qo‘shimcha ozuqa sifatida foydalanish mumkin. Yuksak suv o‘simliklarini manzarali o‘simliklar xilma-xilligini oshirish uchun hovuzlarni bezashda ham foydalanish mumkin.

Shunday qilib, oqava suvlarni tozalashda biotexnologik usullardan suv o‘tlarini qo‘llash saporfit mikroorganizmlar sonining ming martagacha ko‘payishiga, ichak tayoqchalari bakteriyalari umuman yo‘qolishiga olib kelishini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, suv tarkibidagi mikrofloraning miqdori keskin kamayib, o‘simlik va hayvonlar uchun patogen mikroskopik zamburug‘lar yo‘qoladi. Suvning fizikaviy va kimyoviy ko‘rsatkichlari yaxshilanadi, suvning

oksidlanish darajasi kamayadi, suvdagi azot va fosfor ionlari o'simliklar tomonidan deyarli to'la o'zlashtiriladi, suvda erigan kislorod miqdori ko'payadi, oqava suv tiniqlashadi va qo'lansa hidi yo'qoladi. Pistiya, eyxorniya va azolla yordamida tozalagan suvni texnik maqsadlarda qo'llash mumkin, ya'ni molxonalarni yuvishda, qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda, kanop poyasini ivitishda yoki baliqchilik hovuzlariga va ochiq suv havzalariga chiqarib yuborish mumkin.

FUQAROLARNING SOG'LIG'INI SAQLASH MASALALARI DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR VAZIFALARIDAN BIRI SIFATIDA

**Ashurova M., Atadjanova D., Yoqubova M.
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti**

Yuqumli bo'lmagan kasalliklar butun dunyoda o'lim holatlarining asosiy sababchisi hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yilda dunyo bo'yicha 40 million o'lim holati yuqumli bo'lmagan kasalliklar tufayli yuz bergan bo'lib, bu barcha o'limning 70 foizini tashkil etadi. O'lim holatlarining anchagina qismi (dunyo bo'yicha barcha o'limning 27 foizi, yuqumli bo'lmagan kasalliklarning esa 38 foizi) barvaqt, ya'ni 30 yoshdan 70 yoshgacha ro'y bergan. Achinarlisi, kelgusida dunyoda bu kasalliklardan vafot etganlar sonining yanada ko'payishi kutilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, sog'lom turmush tarziga rioya etilsa, 80 foiz yurak- qon tomir, qandli diabetning 2 turi va 40 foiz o'sma kasalliklarining oldini olish mumkin ekan.

Xo'sh, nima uchun odamlar yoshligidan yuqumli bo'lmagan kasalliklarga chalinmoqda? Sababi texnologiyalarning rivojlanishi, turmush tarzining o'zgarishi bilan odamlarning harakatlanishi va jismoniy mehnat bilan shug'ullanishi kamaydi, chekadigan va spirtli ichimlik ichadigan insonlar ko'paydi, tarkibida yog', qand va tuz miqdori yuqori bo'lgan nosog'lom oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli ko'paydi. Shuningdek, aholining ovqatlanish odatlari o'zgaradi, jumladan, sabzavot va mevalarni yetarli iste'mol qilmaslik, tuzni me'yordan ortiq iste'mol qilish holatlari ham ko'paydi. Bu esa o'z navbatida, turmush tarzining o'zgarishi, tana vaznining ortishi, semizlik, qonda xolesterin miqdorining oshishi va oqibatda, yuqumli bo'lmagan kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Globalashuv sharoitida yuqoridagi holatlar dunyo davlatlari qatori yurtimiz uchun ham xos bo'lib bormoqda. Shu bois ushbu vaziyatga davlatimiz tomonidan jiddiy yondashilmoqda. Prezidentimizning 2018 yil 18 dekabrda "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olishga, jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etayotir. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tashkil etilib, odamlar qiziqishiga sabab bo'layotgan ommaviy salomatlik tadbirlari ham faol jismoniy harakatga chorlab, sog'lom hayot tarzini targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etayapti.

O'zbekistonda fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan 2030 yilgacha bolalar o'limini 1,5 barobar, onkologik, qandli diabet, yurak-qon tomir va respirator kasalliklar, umuman, noinfektsion kasalliklardan o'lim holatlarini kamaytirish va aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligini 74,6 yoshdan 76 yoshga yetkazish vazifalari belgilab berilgan. Inson salomatligini saqlash va mustahkamlash, qolaversa, uzoq umr ko'rishning yagona yo'li sog'lom turmush tarzi ekanligi endilikda hech kimga sir emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev so'nggi bir yil ichida tibbiyot xodimlari bilan bir necha marotaba uchrashib, asosiy masalalardan biri bu aholi sog'lig'ini ishonchli muhofaza qilish, tibbiyot sohasidagi islohotlar samarasini oshirish davlatimizning doimiy e'tibor markazida bo'lishligini ta'kidlab o'tdilar. Biz naslimizning kelajagi – sog'lom avlod uchun kurashar ekanmiz o'z maqsadimizga erishish uchun millatni sog'lom turmush tarzida yashashga o'rgatishimiz kerak bo'ladi. Sog'lom avlod deganda, biz faqat jismonan baquvvat farzandlarni emas, balki ma'naviy jihatdan ham boy va sog'lom avlodni nazarda tutishimiz lozim. Zero, ma'naviy sog'lom bo'lmasdan turib, jismonan sog'lom bo'lish mumkin emas. Har ikkala tushuncha bir biriga mos va biri ikkinchisidan taqozo qiladi. Ham jismonan, ham ma'naviy sog'lom avlodga ega bo'lgan xalqni esa sindirib bo'lmaydi. Biz jismonan sog'lom, yuksak ma'naviyatli va yagona milliy g'oya asosida jipslashgan millatni shakllantirishni bosh maqsad qilib qo'yar ekanmiz uni sog'lom turmush tarzida yashashga o'rgatishimiz lozim.

Ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish turli yo'nalishlarda izchillik bilan, muayyan dastur asosida, aniq yo'nalishlarda olib borilishi lozim. Xususan, bu avvalo oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarga sog'lom turmush tarziga oid muayyan tibbiy va gigiyenik bilimlar berish, ularda sog'lom turmush tarzini saqlashning inson tanasi takomiliga ta'siri haqidagi tushunchalarni shakllantirishga qaratilsa, ikkinchi tomondan, yoshlarda qat'iy rejim asosida gigiyenik qoidalarga amal qilish, o'zi va yon-atrofdagilarning sog'lig'ini asrashni kundalik odatga aylantirish ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan bevosita aloqadordir. Shuningdek, sog'lom turmush tarzi ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib etilishi bilan birga, barcha ta'lim-tarbiya maskanlari bilan hamjihatlikda maktab, litsey, kollej va texnikumlarda beriladigan ta'lim-tarbiya mazmuniga chuqur singdirilmog'i lozim.

ATROF-MUHIT OMILLARINING AYOLLAR REPRODUKTIV SALOMATLIK HOLATIGA TA'SIRI

Ashurova M., Muydinova Yo., Muxammadova G.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Reproduktiv salomatlik insoniyat taraqqiyotida, uning umumiy salomatligining bir qismi bo'lsa-da, markaziy zvenoni egallab kelmoqda. U barcha-barchaga, ham erkaklarga, ham ayollarga, vaqt o'tib — erta-indin kattalar qatoriga qo'shilajak bolalar va o'smirlarga ham taalluqli bo'lib, ularning butun oilaviy hayotini, uni qanday tashkil etishni, ushbu masalaga oid bo'lgan barcha

axborotlardan voqif bo'lishni, homiladorlik va undan saqlanishning xavfsiz usullari, kontratseptiv vositalar va ulardan foydalanish, bular bilan bog'liq masalalarda sog'liqni saqlash tizimi xizmatidan to'laqonli va erkin foydalanish huquqini, har bir insonning o'z reproduktiv huquqi mavjudligini, shuning barobarida, har kim o'z oilasida tug'ilajak farzandlarining, zurriyodining sog'lom bo'lishini ta'minlashi shart va zarurligini anglatadi. Ushbu masalalarda yetarli bilim va tajribaga, amaliy ko'nikmalarga, tibbiy savodxonlik va tibbiy madaniyatga ega bo'lmagan odam o'z hayotida qator muammolarga duch kelishi, turli kasalliklarga yo'liqishi, ayrim hollarda tuzatib bo'lmaydigan xatoliklarga yo'l qo'yishi, o'zi yoki farzandlari og'ir dardga chalinishi, nogiron, nosog'lom farzandlarni dunyoga keltirishi, bir umrga har bir oila a'zosi uchun, pirovardida jamiyat uchun tashvish tug'diradigan nosog'lom oilani shakllantirishi, nasl-nasabga zarar yetkazilishi yoki bo'lmasa bepushtlik holatlari ro'y berishi mumkinligi jamiyatimiz hayotidagi bor haqiqatdir.

Yashash sharoitining bolalar reproduktiv salomatligiga ta'siri haqida gapirilganda oilaviy sharoiti, noqulay ekologik muhit, informatsion yuklamaning ko'pligi, gipodinamiyaning ta'sirini ta'kidlab o'tish lozim.

Ko'plab izlanishlar atmosfera havosini sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi reproduktiv faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatishini isbotladi. O'smirlarning tibbiy va psixoemotsional muammosini o'sishiga hozirgi kunda jinsiy rivojlanish tezlashishi, urbanizatsiya, OAV ta'sir qilmoqda. Oxirgi 10 yilliklarda o'smirlarning erta jinsiy faoliyat muammosi dolzarblashmoqda. JSST ma'lumotiga ko'ra dunyodagi tug'ruqlarning 10% 15-19 yoshlarga to'g'ri kelmoqda. Rossiyada bu ko'rsatkich 14-15% ni tashkil qiladi (3,4).

Aholining umumiy kasallanish darajasini baholashda Farg'ona viloyati ijtimoiy-gigienik monitoringi ma'lumotlar bazasidan, statistik hisobot shakli № 12 "Davolash muassasasi xizmat ko'rsatuvchi rayonda kasallanganlar orasida ro'yxatga olingan kasalliklar soni haqida xisobot" bo'yicha 3 yillik davr (14 yoshgacha bo'lgan bolalar, 15-17 yoshdagi o'smirlar va 18 yosh va undan katta yoshdagilar) ma'lumotlaridan foydalanildi.

Kasallanishni struktura bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra nafas olish va qon yaratish a'zo kasalliklari bilan kasallanish yildan-yilga yuqori ko'rsatkichlarni tashkil qildi.

3 yillik davr dinamikasida yallig'lanish kasalliklarini ortishi 45% dan 57,2% gacha, hayz tsiklining buzilishi- 16,9% dan 17% gacha, algodismenoreya – 6,5% dan 16,9% gacha, shuningdek bachadon bo'yni eroziyasini uchrash holatlari ham 2,5% dan 6,3% ga ortgan.

Yallig'lanish kasalliklarini uchrashi qizlar va o'smir qizlarning ginekologik kasalliklari orasida birinchi o'rinni egallab, yosh ortgan sari kasallanish ham ortib boradi.

Yuqorida keltirilgan omillardan tashqari o'smir-qizlarning va tug'ish yoshidagi ayollarning ruhiy emotsional holatlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar (hayot sifati) ham patologiyalarni shakllanishida muhim rol o'ynashi aniqlandi. Ruhiy-emotsional xavotir mavjud bo'lgan o'smir-qizlarda jismoniy va jinsiy rivojlanishni orqada qolishi, ginekologik kasalliklarning uchrashini ortishi (44,5%)

kuzatilgan. Fertil yoshdagi, ruhiy-emotsional xavotiri mavjud va turmush sifati darajasi past bo'lgan ayollar orasida esa jinsiy a'zolarining surunkali yallig'lanish kasalliklarining ortishi kuzatilgan.

2019 yil tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra Farg'ona shahrida 77439 nafar tug'ruq yoshidagi ayollardan 3232 tasida (8,5%) nafas olish tizimi kasalliklari, 544 tasida (1,4%) yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, 20798 tasida (54,9%) kamqonlik, 2902 tasida (7,7%) ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari, 3040 tasida (8%) buyrak kasalliklari, 3549 tasida (9,4%) endokrin tizimi kasalliklari, 16 tasida (0,02%) sil kasalligi, 123 tasida (0,3%) ruhiy kasalliklar va 3657 (9,7%) tasida boshqa kasalliklar qayd qilingan.

Toshloq tumanida tug'ruq yoshidagi ayollar soni 50835 ta ni tashkil qilib, ulardan 1600 tasida (6,6%) nafas olish tizimi kasalliklari, 691 tasida (2,8%) yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, 13858 tasida (57,2%) kamqonlik, 1514 tasida (6,2%) ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari, 2215 tasida (9,1%) buyrak kasalliklari, 883 tasida (3,6%) endokrin tizimi kasalliklari, 2 tasida (0,003%) sil kasalligi, 12 tasida (0,02%) ruhiy kasalliklar va 3471 (14,3%) tasida boshqa kasalliklar qayd qilingan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, tibbiy yordam sifatini yaxshilash, tibbiy madaniyatini oshirish, ularni ruhiy tayyorlash har qanday kasallikni, jumladan reproduktiv salomatlikni saqlashning asosiy sharti hisoblanadi. Ko'pgina tekshirishlar xulosalariga ko'ra kasallikni yetarli davolay olmaslikning asosiy sabablaridan biri – kasallikning o'ziga xos xususiyatlari, davolash va profilaktika printsiplari to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lmaslikdir. Insonlarning shu kasallik to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmasliklari davolash samaradorligini pasaytiradi, kasallikning kechishi va oqibatini og'irlashtiradi. Bu esa insonlar turmush sifatining pasayishi, davolanishga ketgan harajatlarning oshishiga sabab bo'ladi

OILADA SOG'LOM TURMUSH TARZI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI

Ashurova M., Muydinova Yo., Axmadjonova Sh.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Sog'lom turmush tarzi ko'nikmalari shaxs tomonidan o'zlashtirilgan salomatlikni saqlash, shuningdek, ijtimoiy, ma'naviy-axloqan va jismonan kamolga yetishishga oid nazariy bilimlar asosida amalga oshiriluvchi doimiy, turg'un va muhim xususiyatga ega bo'lgan ongli harakatlar, odatlardir.

Oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishda kun tartibiga ega bo'lish va uning talablariga qat'iy amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kun tartibi bir sutkalik vaqtning shaxs yoshi va salomatlik holatini e'tiborga olgan holda mehnat, o'quvni tashkil etish, dam olish, ovqatlanish, uxlash, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish bo'yicha to'g'ri taqsimlanishidir.

To'g'ri tashkil etilgan kun tartibi bolada tetik va yaxshi kayfiyat, o'qish va ijodga, turli o'yinlr va mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otadi, uning rivojlanishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Ota-onalar kun tartibini ilmiy-metodik yondoshuv asosida tuzish ko'nikmalariga ega bo'lishlar zarur. Bu o'rinda ulardan quyidagi qoidalarga amal qilishlari talab etiladi:

- 1) turli xil faoliyatlar, ularning eng ma'qul davomiyligini, bir-biri bilan navbatlashuvi va vaqtini aniqlash;
- 2) dam olish vaqtini iloji boricha ochiq havoda tashkil etish;
- 3) o'z vaqtida sifatli ovqatlanish;
- 4) gigiyenik to'laqonli uyqu.

Oilada kun tartibini oqilona tuzish ko'nikmalarini shakllantirish chog'ida ularga kun tartibi negizida aks etuvchi asosiy qismlari oila a'zolarining yosh xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'lishi haqidagi bilimlarni berish kelgusidagi amaliy pedagogik faoliyat samaradorligini kafolatlaydi. Oila a'zolarining yosh xususiyatini inobatga olish asosida tuzilgan kun tartibi ular organizmining tabiiy ehtiyojlarini to'la qondirilishi, ularning ruhan tetik va bardam yurishlari hamda eng muhimi asab tizimining mustahkam bo'lishiga zamin yaratadi.

Oila o'rtasida gigiyenik tarbiyani tashkil etish va ularda shaxsiy hamda umumiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish ham oila a'zolari o'rtasida sog'lom turmush tarzi va uning asoslarini targ'ib etishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Ota –onalar, o'qituvchilar gigiyena, uning turlari, shaxsiy gigiyenaga amal qilish shartlari to'g'risidagi puxta bilimlarning berilishiga erishishi maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy texnik vositalar televideniye va kompyuterning tobora taraqqiy etishi tufayli bolalarning ko'p vaqtlarini ular qarshisida harakatsiz o'tirishlariga sabab bo'lmoqda. Bu esa ularning salomatligiga jiddiy ta'sir etadi, zero, harakatsizlik ovqat hazm bo'lmasligi, qorin, son qismlarida yog' to'planishi, vaznning oshishiga olib keladi.

Oilada sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning yana bir muhim ko'rinishi – bu bolada zararli odatlar (tamaki mahsulotlarini chekish, spirtli va narkotik moddalarni iste'mol qilish, betaratib jinsiy hayotni yo'lga qo'yish)ning o'zlashtirilishiga qarshi pedagogik-profilaktik ishlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Maxsus tibbiy-biologik va ijtimoiy-pedagogik mazmundagi adabiyotlarda qayd etilishicha, chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, shuningdek, «narkomaniyaga qarshi kurash alohida o'ziga xos xususiyatga ega» bo'lmay, axloqiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Oilada zararli odatlarni o'zlashtirishga qarshi ichki immunitetni shakllantirishda «ularga zararli odatlar va ularning inson salomatligiga ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlarni berish zarur va muhimdir, biroq eng asosiysi o'smirlarda faol ijtimoiy pozitsiya, jamoaviy yo'nalganlikni tarbiyalash, qandaydir qiziqarli ish bilan bandlikni qaror toptirish, yorqin hayotiy istiqbol va ideallarni hosil qilish talab etiladi.

Oilalar o'rtasida sog'lom turmush tarzi asoslarini targ'ib qilishning muhim shartlaridan biri – ular o'rtasida jinsiy tarbiyani samarali tashkil etish asosida ularda jinsiy hayotni ongli yo'lga qo'yish ko'nikmalarini shakllantirish sanaladi.

Ommaviy axborot vositalarining tezkor taraqqiyoti yoshlar, shu jumladan, oilada jinsiy masalalarga bo'lgan qiziqishning tobora o'sishi, akseleratsiya (lot. *acceleratio* – tezlashish) hodisasining kuzatilishiga olib kelmoqda. Shu sababli «yoshlar jismoniy va jinsiy jihatdan erta balog'atga yetishiga qaramay, ularni barvaqt jinsiy hayot boshlashidan saqlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda».

Ruhan kamolga yetmay turib jinsiy hayotning boshlanishi hamda uning noto'g'ri, tartibsiz amalga oshirilishi eng xavfli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra voyaga yetmagan farzandlar o'rtasida jinsiy tarbiyani samarali tashkil etish nihoyatda muhim.

Yuqorida aytib o'tilgan tartibda ish ko'rish oilada birinchi yordam ko'rsatish ko'nikmalarini samarali shakllantirish va bu boradagi bilimlarni pedagogik faoliyat jarayonida oilaga o'rgatish imkoniyatini yaratadi.

**ZAMONAVIY KIIYIM ISHLAB CHIQRISHDA MEHNAT
SHAROITLARINI GIGIYENIK BAXOLASH VA ULARNING AYOLLAR
SALOMATLIGIGA TA'SIRINI O'RGANISH
Ashurova M.J., Muxammadova G.Q.
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti**

Mavzuning dolzarbligi. Ayollarning reproduktiv salomatligi buzilishining oldini olish jamiyatning zamonaviy sharoitida sog'liqni saqlashning ustuvor muammolaridan biridir. Umuman olganda, sog'lom aholi va ayniqsa, mehnat resurslarini ko'paytirish mehnat sharoitlarini yaxshilash masalalarini hal etishga, ularni amalga oshirishga bog'liq. Ishlovchi ayollarning sog'lig'ini, ayniqsa homiladorlik davrida himoya qilish sog'liqni saqlash tizimi oldidagi katta vazifalardan biri.

Xozirgi kunda sog'liqni saqlash tizimi tomonidan chiqarilayotgan bir qancha qarorlar va chora tadbirlarda reproduktiv salomatlikni ta'minlash uchun ayollar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Asosan ayollar jamoasidan tashkil topgan kasblardan biri tikuvchilikdir. Tikuvchilik sanoatida ishlaydigan ayollar (tikuvchi va to'quvchi) bir qator ishlab chiqarish, kasbiy, atrof-muhit va maishiy omillarning birgalikda ta'siriga duchor

bo'lishadi, bu esa ayollarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, mehnat muhiti omillari majmuasining ayollarning reproduktiv salomatligiga ta'sirini hisobga olish zamonaviy tikuvchilik ishlab chiqarishi dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ishning maqsadi zamonaviy kiyim-kechak ishlab chiqarishda band bo'lgan ayollarning kasallanishini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ilmiy asoslash va ishlab chiqishdan iborat.

1 Mehnat jarayonining gigienik xususiyatlarini o'rganish, tikuvchilik sanoatining ayol ishchilari (tikuvchi-mashinistlar va kesuvchilar) va muhandis-texnik xodimlari o'rtasida zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarini aniqlash.

2 Sanoat shovqini, tebranish, elektromagnit nurlanish, yorug'lik, mikroiklim parametrlariga gigienik baho berish.

3 Ish kunining dinamikasida ish jarayonida ayollar tanasining funksional holatini o'rganish, ishning og'irligi va intensivligini baholash, zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarini hisobga olgan holda mehnat sharoitlariga umumiy baho berish.

4 Kasb kasalligi bilan kasallanishni chuqur tahlil qilish, kasbi, yoshi va ish tajribasiga qarab ginekologik kasallanish darajasi va tuzilishini o'rganish.

5 Mehnat sharoitlarini yaxshilash va ayol ishchilar o'rtasida kasallanishni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ilmiy asoslash.

Zamonaviy kiyim-kechak ishlab chiqarish sharoitida band bo'lgan ayollarning mehnat faoliyatining xususiyatlarini va reproduktiv salomatlik holatini, mehnat jarayonining og'irligi va intensivligini baholash uchun kengqamrovli tadqiqotlar o'tkazib kelinmoqda.

Zamonaviy kiyim-kechak ishlab chiqarishda mehnat sharoitlarini o'rganish bizga ish sharoitini yaxshilash va ishchilar o'rtasida kasallanishni kamaytirishga qaratilgan sanitariya-gigiyena va davolash-profilaktika tadbirlari majmuasini ishlab chiqish imkonini berdi.

Tikuvchilik ustaxonalaridagi ishchi zonaning mikro iqlim sharoiti ishchilarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, matolardan chiquvchi chang xona xavosidagi chang miqdorini oshiradi. Dazmol, tikuv mashinalari matoridan chiquvchi issiqlik xisobiga xona xarorati keskin ko'tariladi va natijada namlik xam ortadi. Zamonaviy kiyim-kechak ishlab chiqarishda ishlaydigan ishchilarning tanasi zararli ishlab chiqarish omillari majmuasiga ta'sir qiladi, ular orasida shovqin va tebranish, elektromagnit nurlanish darajasining oshishi, majburiy ish holati va ko'zning zo'riqishining kuchayishi etakchi gigienik ahamiyatga ega. Zamonaviy kiyim-kechak ishlab chiqarishdagi noqulay mehnat sharoitlari ayol ishchilar o'rtasida kasb kasalliklari bilan kasallanish ko'rsatkichlarining oshishi, shu jumladan tos a'zolari kasalliklari, shuningdek, tananing funksional

tizimlarining ortiqcha kuchlanish belgilarining rivojlanishi bilan birga keladi, ish smenasining oxirida charchash belgilari yaqqol namayon bo'ladi.

Yuqoridagi xolatlarni kamaytirish uchun zamonaviy kiyim-kechak ishlab chiqarishda ishlaydigan ishchilar o'rtasida kasallanishning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar kompleks bo'lishi va mehnat jarayonini tashkil etishni takomillashtirish, asosiy ishlab chiqarish operatsiyalarini avtomatlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni, shuningdek, noqulay mehnat sharoitlari bilan bog'liq ayollar salomatlik xolatidagi muammolarini tibbiy profilaktikasini chora tadbirlarini ishlab chiqish kerak.

Rasiya olimlarining olib borgan tadqiqotlarida yil davomida ishlaydigan 100 tikuvchi ayollarga to'g'ri keladigan holatlar o'rganildi, bunda kunlar soni bo'yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bilan kasallanish asosiy guruhda nazorat guruhiga qaraganda yuqoriligi aniqlandi. Eng yuqori ko'rsatkichlar qon aylanish, nafas olish, tayanch-harakat, endokrin va ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarida aniqlandi. Tadqiqot davrida endokrin, urogenital va tayanch-harakat tizimi kasalliklarining ko'payishi kuzatildi bundan tashqari ovqat hazm qilish tizimlari, homiladorlik, tug'ish va tug'ruqdan keyingi davrning asoratlari xam aniqlangan.

Ushbu tadqiqot bo'yicha anketa so'rovnomasi o'tkazilganida yosh va ish tajribasini hisobga olgan holda 3 yil davomidagi ginekologik kasalliklarni chuqur tahlil qilish natijasida kasallanishning o'sishi aniqlandi. O'rtacha ko'rsatkichlar 78 holat va 1260 kunlik nogironlikdan 100 yil davomida 127 holat va 1790 kungacha ko'tarildi Yallig'lanish jarayonlari genital organlar ginekologik kasallanish (26,9 39,8%), o'sma jarayonlari (21,3-26,9%), bachadon bo'yni patologiyasi (8,7-%) bo'yicha yetakchilik qilmoqda. 14,1%, tuxumdon-hayz siklining buzilishi (5,8-10,3%) va sut bezlari kasalliklari va disfunktsiyalari (3,9-7,8%) Ginekologik kasalliklar soni 40 yosh va undan kattalarda yoshlarga qaraganda yuqoriligi aniqlangan.

Asosiy va nazorat tadqiqot guruhlari so'rovnomasi ma'lumotlari bizga mehnat sharoitlari va reproduktiv salomatlik o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini aniqlashga yordam berdi. Homilador bo'lishning qiyinlashishi, homilaning tushishi va homiladorlikning asoratlari tez-tez uchramoqda, ular homiladorlik paytida tez-tez kasal bo'lishadi, yosh qizlarda esa ko'pincha hayz siklining buzilishi ko'p kuzatilgan.

Xulosa qilib aytganda tikuvchilik sanoatida ishlaydigan ayollarning mehnat sharoitlari tanaga salbiy ishlab chiqarish omillari kompleksining ta'siri bilan tavsiflanadi. Etakchi omillar shovqin, tebranish, elektromagnit nurlanish darajasining oshishi hisoblanadi. Bundan tashqari, ayollar noqulay yorug'lik sharoitida ishlaydilar. doimiy psixo-emotsional stress holatida majburiy ish pozitsiyasida ish olib borishadi. Noqulay sanitariya-gigiyenik mehnat sharoitlarini shakllantirishning asosiy sabablari - eskirgan uskunalarning ishlashi, uning nomukammalligi, oqilona rejalashtirish qarorlari, shaxsiy himoya vositalarining etishmasligi, sanitariya va maishiy xizmat ko'rsatishning yomonligi.

Markaziy asab va yurak-qon tomir tizimlarini baholash nuqtai nazaridan tananing funksional holatini qiyosiy tahlil qilish, vizual analizator asosiy guruh ayollarida nazorat bilan solishtirganda mehnat jarayonida sezilarli o'zgarishlarni aniqladi. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlikni chuqur tahlil qilish natijalariga ko'ra, ayol ishchilar o'rtasida kasb kasalliklari bilan kasallanish tarkibida qon aylanish, nafas olish, endokrin va tayanch-harakat tizimlari kasalliklari etakchi o'rinni egallashi aniqlandi. Ginekologik kasallanish darajasi va tuzilishi tahlili uning so'nggi yillarda o'sishidan dalolat beradi. Asosiy guruh bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar jinsiy a'zolarining yallig'lanish kasalliklari, menopauza davrining buzilishi hamda kasalliklar va disfunktsiyalarning ko'payishi hisobiga 1,5 barobar oshdi.

Tikuvchi ayollarning salomatlik xolatini yaxshilash uchun quyidagi profilaktik chora tadbirlarga amal qilish maqsadga muvofiq boladi. Zamonaviy tikuvchilik korxonalarida mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarning oqilona bandligini ta'minlash hamda davolash-profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo'yicha kompleks rejalarni ishlab chiqishda "Tikuvchilik sanoatida ishlaydigan ayollar o'rtasida reproduktiv salomatlik buzilishining oldini olish" ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Mehnatni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar, birinchi navbatda, sanitariya va maishiy ta'minotni yaxshilashga, maqbul sharoitlarni yaratishga va psixoemotsional stressni kamaytirishga qaratilgan bo'lishi kerak;

Mehnat sharoitlarining ayol tanasiga salbiy ta'sirini oldini olish uchun tibbiy yordamni, davriy tibbiy ko'rikni o'tkazish shartlarini va chastotasini yaxshilash;

Dispanser usuli tibbiy xizmat ishining asosiy usuliga aylanishi kerak. Sog'lom, homilador va kasal ayollar klinik ko'rikdan o'tkazish;

Homilador ayollar dispanser ishlarida alohida o'rin tutadi. Homiladorlik fakti aniqlangan paytdan boshlab ayollar zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarining ta'siri bilan bog'liq bo'lmagan ishlarda majburiy ravishda ishlagan holda dispanser kuzatuviga olinishi kerak;

Korxonaning davolash-sanitariya bo'limlari, tuman tibbiyot va sog'liqni saqlash muassasalari akusher-ginekologlari faoliyatida uzluksizlikni ta'minlash tibbiy ko'rikdan muvaffaqiyatli o'tish shartlaridan biri hisoblanadi; Somatik va ginekologik kasalliklarning oldini olishda ayollarda maxsus ko'nikmalarni shakllantirish, vaqti-vaqti bilan ginekologik ko'rikdan o'tish va shaxsiy gigiena muhimligini tushuntirish maqsadida gigiyena tarbiyasi muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari ayollarning doimiy nazorat vaqtida ular uchun zarur bo'lgan oqilona ovqatlanishni tashkil qilish va ularga o'ziga xos parhezliklarni buyurish va bunga amal qilish kerak. Ishchilarning kunning oxiriga borib charchash xolatini kamaytirish uchun to'g'ri dam olishni tashkillash, ishchilarni ish unumini tushirmaslik uchun almashib ishlashni yo'lga qo'yish.

Ushbu profilaktik chora tadbirlarga amal qilsak biz ayollarni sog'lom ishchi muxitini yaratgan bo'lamiz va kelajak avlodni sog'lom tug'ilishini o'z xissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Kirillov V.F. Rukovodstvo k labaratornim zanyatiam. Mehnat gigiyenasi bo'yichalaborator mashg'ulotlar uchun rukovodstvo. - M.: «Meditsina», 2008, - 335 b.
2. "Mehnat gigiyenasi fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun o'quvqo'llanma". Iskandarov T.I., Iskandarova G.T. tahriri ostida. - T., 2009, - 284 b.
3. "Mehnat gigiyenasi". Iskandarova G.T. tahriri ostida. - T., 2009, - 283 b.
4. "Tekstalektsiypogigiyenetruda". prof. Iskandarovoy G.T. tahriri ostida. - T., 2009, - 271 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2014. – 46 b.
6. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. I.A. Karimov tahriri ostida – Toshkent, «O'zbekiston», 2005, – 96 b.
7. "Gigiyena truda" pod redaktsiey akad. RAMN, prof. N.F. Izmerova, prof. V.F. Kirillova – M., 2010, - 583 b.
8. Iskandarov A.B., I.V.Slavinskaya "Gigienicheskie trebovaniya dlya trikotajnix predpriyatiy" San PiN R Uz № 0262-09 T., 2009, - 19 b.
9. Iskandarov A.B., I.V.Slavinskaya i dr. "Ozdorovlenie usloviy truda jenshin, zanyatax na trikotajnom proizvodstve" Metodicheskaya rekomendatsiya № 012-3/0120 – 2008, - 18 b.
10. Iskandarov A.B. Gigiyena truda i funktsionalnoe sostoyanie organizma jenshin zanyax na trikotajniy proizvodstvax Uzbekistana.- T., 2012. - 166 b.
11. Kiryushin V.A., Bolshakov A.M., Motalova T.V. Mehnat gigiyenasi fanidan o'quvqo'llanma. – M., 2011, - 389 b.
12. Qonunlar: «Fuqarolar sog'lig'ini muhofazalash to'g'risidagi», «Mehnat kodeksi», «Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risidagi qonun».
13. O'zbekiston Respublikasi sanitarqoidame'yorlari.
14. Internet ma'lumotlari.

EARLY EMPIRICAL TREATMENT OF RADIOLOGICALLY CONFIRMED MEDIUM-SEVERE PNEUMONIA IN CHILDREN

Boynazarov A.A.

Fergana Medical Institute of Public Health

ANNOTATION

This article shows the spectrum of pathogens of outhospital, radiologically confirmed pneumonia, its clinical manifestations depending on the etiology and the effectiveness of modern recommendations for rational antibiotic therapy of sick children.

Keywords: antibiotic therapy, outhospital pneumonia, respiratory syndrome, Enterovirus, virus Influenza, immunoglobulin, erythrocyte sedimentation rate, pneumococci, chlamydia, Streptococcus pneumonia, Mycoplasma pneumonia, detection.

INTRODUCTION

In recent years, the criteria for the diagnosis of pneumonia in children have undergone certain changes. According to the conclusion of WHO experts in modern conditions, the diagnosis of pneumonia cannot be based on little specific clinical symptoms. Greatest value of all the clinical signs used to a combination of febrile temperature and shortness of breath in the absence of signs of bronchial obstruction. However, there is some doubt about the reliability of these criteria for mild and pneumonia, as they can be observed in other diseases of the respiratory tract in children under 5 years of age.[1,2,3]

Chest X-ray has always been considered the "gold standard" for diagnosing pneumonia. Infiltrative (focal and lobar) changes in the lung tissue were usually associated with bacterial pneumonia, and interstitial changes with viral. Recent studies have shown the possibility of infiltrative changes in children with confirmed viral pneumonia, and the futility of using radiological signs for indicative etiological diagnosis of pneumonia. Topics moreover, the very interpretation of radiological changes in children with suspected community-acquired pneumonia varies widely, even in experienced professionals and remains a big problem.[3,4,7]

However, recent studies have shown the futility of the use of radiological signs for an indicative etiological diagnosis of pneumonia. For the diagnosis of non-severe community-acquired pneumonia on an outpatient basis, modern guidelines suggest using the most reliable clinical signs, chest x-ray and general blood analysis. Although the level of leukocytosis is more than $10 \times 10^9 / l$, and according to some reports above $15 \times 10^9 / l$, as a marker of bacterial pneumonia.[3,4] As you know, pneumonia in childhood is a polyetiologic disease. The causative agents of infection in community-acquired pneumonia can be as typical bacterial agents (Streptococcus pneumoniae) and atypical pathogens (Mycoplasma pneumoniae, Chlamydia pneumoniae) and respiratory viruses.

The etiological diagnosis of community-acquired pneumonia remains a serious problem. There are objective difficulties in determining etiological structure of community-acquired pneumonia associated with performing laboratory tests in patients without clearly proven diagnosis of pneumonia.[3,10]

The difficulties of laboratory etiological diagnosis are due to the extreme exactingness of pneumococcus to the conditions of cultivation and transportation of material for research.

Since it is customary to use empirical antibiotic therapy in outpatient practice, information on the etiological structure of pneumonia and the level of resistance of

pathogens to antibacterial drug should be periodically updated. However, studies of the etiological structure of out-hospital pneumonia have not been carried out in our country for a long time, especially in children with mild and pneumonia.

The effectiveness of pneumonia treatment directly depends on the accuracy of etiological diagnosis and adherence to the principles of rational antibacterial therapy, which are formulated in modern guidelines for community-acquired pneumonia. However, there is still no consensus on first and second line antibacterial drugs for the treatment of community-acquired pneumonia. [4,10,11,12]

The objects of the study were children with radiologically confirmed out-hospital pneumonia. To study the etiological structure of community-acquired pneumonia, a complex of modern research methods aimed at identifying possible bacterial (typical and atypical) and viral pathogens was used.

A prerequisite for the study was the collection of material before initiation of antibiotic therapy. A prerequisite for the study was the collection of material before initiation of antibiotic therapy.

Antibiotic therapy was prescribed empirically until the etiology of out-hospital pneumonia was established in accordance with principles of rational antibiotic therapy.

The drugs of choice were amoxicillin (amoxicillin / clavulanate). Children with allergies or suspected SARS were prescribed azithromycin. All drugs were administered orally at standard age-specific dosages.

The comparison group consisted of 45 children without signs of acute respiratory diseases. Among the examined 56 patients aged 1 to 17.5 years with radiologically confirmed community-acquired pneumonia preschool children predominated (58.9%), more than half of which were children under 3 years old. The ratio of boys and girls in the total observation group was 1.25: 1.

Along with general clinical research methods for all children chest x-ray was performed, revealing in 22 (39.3%) patients with focal, in 23 (41.0%) - lobe and in 11 (19.7%) - segmental changes. X-ray changes were more often localized in the right lung (73.2%, $p < 0.001$), lower lobe pulmonary lesions predominated (63.4%, $p < 0.001$). Chest x-ray was performed twice, with an interval of 3 - 4 weeks (a total of 112 studies were performed).

Laboratory studies include:

Microbiological studies of tracheal aspirate semi-quantitative bacteriological method followed by identification of the isolated cultures of the microorganism and their antibiotic sensitivity (56 studies); immunological studies with the determination of IgM, IgA, IgG isotypes to *M. pneumoniae* and *C. pneumoniae* using ELISA and using test systems Savyon (Israel) and ELISA Medac. Statistical processing of the results obtained was carried out using the methods of

mathematical statistics presented in software packages "Statistica ver.6.1" (StatSoft Inc. USA).

To determine the reliability of differences in the results obtained used Student's (t) test and Pearson's chi-square test, the level of significance was taken as $p < 0.05$. In addition to the main group of patients, we assessed rationality of antibiotic therapy and treatment compliance. Community-acquired pneumonia in children on an outpatient basis. 97 outpatient cards were analysed to modern standards. Children treated for community-acquired pneumonia in children's city polyclinic number 1, 3 and 5.

All studies were carried out with written and oral informed consent of parents and guardians of children. *S. pneumoniae* is bacteriologically isolated from tracheal aspirate in 15 (28.3%) of 53 patients with out-hospital pneumonia. Among the contingent of patients with *S. pneumoniae* shedding pneumococcal pneumonia as a mono-infection was detected in 2 (13.3%) patients, in 2 (13.3%) cases - in association with *M. pneumoniae* and in the majority (11 cases, 73.4%) children - in association with viruses.

No significant differences in antibody detection rates to *C. pneumoniae* by ELISA in patients with acute pneumonia and in children without signs of acute respiratory infection significantly reduce the diagnostic value of serological diagnosis of chlamydial infections with pneumonia in children. Our data once again confirm the fact that when diagnosing infectious diseases should not be based on the results of individual laboratory tests, how many for a clinical - laboratory picture generally.

In our study, we decided to test the possibilities of using clinical and additional radiological signs for differential diagnosis of "typical" and "atypical" pneumonia, from which depends on the effectiveness of the choice of antibiotic therapy. To do this, we compared clinical and additional X-ray signs identified by us with careful laboratory diagnostics by causative agents of respiratory infections. Our study showed that the combination of febrile temperature and shortness of breath allows the doctor not only to diagnose pneumonia, but also to suggest a pneumococcal etiology of the disease and choosing amoxicillin for starting therapy or amoxicillin / clavulanate, since there are significant differences in the frequency of the combination of these signs from mycoplasma and chlamydial pneumonia. Although this combination of clinical signs would require differential diagnosis with viral pneumonia.

The presence of a persistent febrile temperature without shortness of breath does not allow to exclude neither mycoplasma infection, nor even pneumococcal pneumonia in older children. However, the risk of developing the latter is less than with a combination of two signs: febrile temperature and shortness of breath, $p < 0.01$.

In children with local physical symptoms in the lungs and radiological changes, pathognomonic pneumonia, but not having no febrile temperature or shortness of breath, most likely atypical etiology of community-acquired pneumonia. In a similar situation initial therapy should begin with a macrolide drug.

CONCLUSIONS:

1. To improve the effectiveness of the treatment of community-acquired pneumonia in children, it is necessary to follow the principles of rational antibiotic therapy and start treatment with penicillin preparations (amoxicillin / amoxicillin clavulanate) intended for oral administration. The indication for the appointment of macrolide antibacterial drugs is the absence of convincing clinical signs of pneumococcal pneumonia, suspicion of atypical infections according to clinical or epidemic data.

2. In the etiological structure of out-hospital pneumonia in children the share of *Streptococcus pneumoniae* is 28.3%, *Mycoplasma pneumoniae* (32.1%). The role of *Chlamydia pneumoniae* (11.3%) is less significant. Among pneumococcal pneumonia, bacterial monoinfection was found in 13.3% of cases.

3. Out-hospital pneumonia of mycoplasma etiology in most cases is accompanied by febrile temperature (64.3%), but rarely - shortness of breath (28.6%) and inflammatory changes in the general blood test. The physical picture from the 1st day of illness is characterized by diffuse fine moist rales, more pronounced in the zone of pneumonic infiltration (78.6%). Among the radiological changes, along with the focal form, lobar and segmental ones are possible.

3. Approximate diagnosis of pneumococcal out-hospital pneumonia in children is possible in the presence of febrile temperature and respiratory distress syndrome, but there are no bronchial obstruction.

REFERENCES:

1. Alekseeva N.V., Kolotukhin A.I. The value of the intensity of peroxide processes in critically ill children // Multiorgan membrane pathology in children (collection of scientific articles). Moscow. - 2001.

2. Alimov A.V. Clinical and pathogenetic characteristics of endotoxemia in acute complicated pneumonia in young children. Correction methods. Autorefer. Tashkent 2003.

3. Antipkin Yu.G., Lapshin V.F., Umanets T.R. Principles of diagnosis and treatment of community-acquired pneumonia in children. Health of Ukraine, 2008.

4. Baranov A.A., Strachunsky L.S. The use of antibiotics in children in outpatient practice. Clinical Microbiology and Antimicrobial Chemotherapy, 2013.

5. Antibacterial therapy. A practical guide. Edited by L.S. Strachunsky. Moscow, 2000.

6. Baranov A.A., Tatochenko V.K., Bakradze M.D. (ed) Feverish conditions in children. Recommendations for diagnosis and treatment. 2011
7. Bereznyakov I.G. Antimicrobial resistance: mechanisms of occurrence and clinical significance. - Kharkov, 2006.
8. Gorbunov S.G., Gorelov A.V., Detina A.A. Clinical characteristics of pneumonia in children due to Hemophilus influenzae type B. // Pediatrics - Moscow, 2002.
Tuya suti nafaqat mazali, balki ozuqalarga boy bo'lgan Sharq mamlakatlarning an'anaviy ichimligi. Tuya sutining xarakterli xususiyatlari orasidan quyilganda oson ko'pirishi va boshqa hayvon sutlariga qaraganda quyuproq ekanligini ajratib ko'rsatish mumkin. Tuya sutining oziqaviy qiymati oqsillar - 4g, uglevodlar - 5,1g, yog'lar - 4,9g, vitamin B₁₂ - 0.16 mkg, vitamin B₂ - 0,02mg, vitamin B₁ - 0,08mg, vitamin C - 7,7mg, vitamin A - 40mkg, mineral moddalar - 0,4mg, rux - 5mkg, kobalt-0,1mg, temir - 70mg, natriy -121mg, kalsiy - 121mg, kaliy- 180mg iborat. Tuya sutidan ham turli xil mahsulotlar tayyorlash mumkin: qimiz, laban, labne, sariyog', eritilgan sariyog', sutli kokteyllar, muzqaymoq, pishloq tayyorlash mumkin. Bundan tashqari, tuya suti achitqi sut mahsulotlari olish uchun boshqa hayvonlarning suti bilan aralashtirilishi mumkin, masalan qatiq, ayron, suzma, qurut tayyorlashda foydalaniladi. Tuya sutining foydali xususiyatlari juda ko'p: u suyaklarni mustahkamlaydi, immunitetni oshiradi, bolalarda osteoporoz va raxit xavfini kamaytiradi, stress, uyqusizlik va charchoqdan qutilishda yordam beradi, saraton va oq qon kasalligini davolashda, sil, oshqozon-ichak trakti kasalliklarini davolashda, kamqonlikda, qandli diabetda, jigar serrozida, xotirani yaxshilashda keng foydalaniladi.

Quyidagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki sut faqat yosh bolalar uchun emas balki katta yoshdagilar uchun ham foydalidir. Sut iste'mol qilish orqali turli kasalliklarni kelib chiqishini oldini olish va davolash mumkin. Agar siz ham sut mahsulotlarini istemol qilishni boshlasangiz kasalliklardan o'zingizni himoya qilgan va kasallikka qarshi kurashishga tayyor ekanligingizni his etasiz.

**TO'G'RI OVQATLANMASLIKNING SALBIY OQIBATLARI VA
TO'G'RI OVQATLANISH BO'YICHA TAVSIYALAR**
Teshaboyev U.A., Madaminov S.M., Azimova M.K., Mamatxanova G.M.
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Jaxondagi yetakchi olimlarning fikriga ko'ra, so'nggi yillarda 20 - 30 yoshga to'lganlar orasida ham "ateroskleroz" kasalligi aniqlanmoqda. Ularning fikricha, buning asosiy sababi, sog'lom turmush tarziga amal

qilinmayotganlikdadir. Ayrim yoshlar kam harakat, ko'p vaqtlarini kompyuter atrofida o'tkazadilar, taom iste'mol qilish tartibiga amal qilmaydilar, spirtli ichimliklar va nikotinni suiste'mol qiladilar. Sklerozning dastlabki bosqichlarida ba'zan sababsiz holsizlik yuzaga keladi. Undan tashqari, ta'sirchanlik, parishonxotirlik, tez charchash, kunning yakuniga kelib ishga yaramay qolish, tez asabiylashish paydo bo'ladi. Keyin esa xotira va e'tibor pasayadi, odam bir mashg'ulotdan boshqasiga qiyinchilik bilan kirishadi. E'tiborning yomonlashishi natijasida xatolarga yo'l qo'yadi, ish unumi pasayadi. Bunday vaziyatda ovqatlanish, mehnat va dam olishni tartibga solish kerak. Taomlar tarkibida shavel va siydik kislotasi bo'lmasligi kerak. Kakao, shokolad, qora choy, ismaloq, shovul, shprot balig'i, sardina, barcha turdagi go'shtlar, spirtli ichimliklar iste'molini kamaytirish va chekishdan voz kechish zarur. Sutli mahsulotlar esa aksincha, doimo taomnomada bo'lmog'i lozim. Mevalar, sabzavotlar, yormalar, tuxum, pishloq, non ham foydali. Osh tuzi iste'molini ham kamaytirish kerak.

Ko'pchilik ayollar 30 yoshdan oshgandan so'ng tana vazni ortishidan shikoyat qiladilar. Ular turli xil parhez saqlaydilar, yengil sport turlari bilan shug'ullanadilar, lekin tana vazni kamaymaydi, chunki bu yoshda moddalar almashinuvi pasayishi kuzatiladi. Ushbu holatni kelib chiqmasligi uchun organizmni "uyg'otish" tavsiya etiladi. Buning uchun nonushtada meva, oqsil va tolaga boy mahsulotlarni istemol qilish kerak. U kun davomida organizmni yetarli darajada quvvat bilan ta'minlanishiga imkoniyat yaratadi va uzoq muddat to'qlik hissini beradi. Tushlikka esa yuqori kaloriyaga ega bo'lgan mahsulotlardan voz kechish buyuriladi. Makaron, buterbrod, kartoshka, shirinliklar iste'mol qilinishi chegaralanadi. Ko'p miqdorda ko'katlardan tayyorlangan salatlar, pomidor, bodring, bulg'or qalampirini iste'mol qilish tavsiya etiladi. Kechki ovqatdan so'ng shirinliklar o'rniga sut mahsulotlari, kefir, yogurt, tvorogni tanavvul qilish kerak. Bu ochlik hissini kamaytirish bilan birgalikda, charchoqni engadi.

Qirq yoshdan oshgan kishilarga quyidagicha ovqatlanish tavsiya etiladi:

- Ayollar ovqatlanishi to'laqonli bo'lishi va barcha ozuqa moddalari - oqsillar, yog'lar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalarni yetarli miqdorda qamrab olishi zarur.
- Ozuqa moddalar muvozanatlashtirilgan nisbatda bo'lishi va ratsionning quvvatini biroz pasaytirish kerak. Taomnomadan tarkibida ko'p uglevodlar va yog'lar tutuvchi oziq - ovqatlarni, hayvon yog'lari va boshqa xolesterin manbalarini kamaytirish lozim. Ortiqcha uglevodlarning ichakda so'rilishini sekinlashtirish uchun ovqat tarkibida tolalar saqlovchi moddalar ko'p bo'lishi kerak. Tolalar o'zlari hazm bo'lmasdan, to'yganlik hissini paydo qilishadi, ichaklar devoridagi asablar uchini qitiqlab uning harakatlanishini kuchaytiradi, uglevodlarning so'rilishini kamaytiradi. Yormalar, yirik tortilgan undan tayyorlangan non, qattiq navli bug'doydan tayyorlangan makaron mahsulotlari, oshko'kilar, sabzavotlar, qo'ziqorinlar va mevalarda katta miqdorda ovqat tolalari mavjud.

- Ayollarning ovqat ratsionida sut va sut mahsulotlari, turli xil baliq va dengiz mahsulotlari, go'sht, tuxum, turli yormalar, non (yirik tortilgan undan bo'lgani ma'qul) albatta bo'lishi kerak. Meva va sabzavotlar, ayniqsa, organizmni vitaminlar va mineral moddalar majmuasi bilan ta'minlashga imkon yaratuvchi barg shaklidagi sabzavotlar ovqatlanishning majburiy va keng taqdim etiluvchi tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ovqatlanishga quyidagicha yondoshish maqsadga muvofiq:

- Ovqat oldidan yarim stakan suv yoki shirin bo'lmagan sharbat ichish;
- Ovqatlarni turli - tuman bo'lishi;
- Ovqat yetarli hajmda bo'lishi;
- Oz - ozdan, ammo tez - tez (har 2,5 – 3,0 soatda), bir tanavvulda eyiladigan ovqat hajmini nazorat qilgan holda ovqatlanish;
- Oson hazm bo'luvchi uglevodlar (shakar, sutli shokolad, murabbo) iste'molini kamaytirish;
- Achchiq choy yoki qahva ichmaslik, biroq boshqa suyuqliklarni cheklamaslik, eng yaxshisi kunda 1,5 - 2,0 l qaynatib sovutilgan suv yoki suyuq ko'k choy ichgan ma'qul;
- Ovqatni shoshmasdan yaxshilab chaynab iste'mol qilish kerak. Bu uning hazm bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va tez to'yish hissini uyg'otadi;
- Uyquga 3 soatdan kam vaqt qolganda ovqatlanish (ayniqsa, to'yib eyish)dan saqlanish kerak.

Yoshi 50 dan oshgan insonlarga ovqatlanish bo'yicha tavsiyalar.

Bu davrda biologik faol moddalar vitaminlar, makro va mikroelementlar yetarlicha iste'mol qilinishi zarur.

Ushbu tanqislikning yuzaga kelishida ovqat bilan ularni organizmga yetarli darajada tushmasligi yoki me'yorida o'zlashtirilishi uchun to'sqinlik qiluvchi ichki omillar (oshqozon, ichaklar, jigar va boshqa ahzolarining kasalliklari) sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, 50 yoshdan oshgan ayollarda vitaminlarga ehtiyoj pasaymaydi. Aksincha, ularning yetarlicha tushmasligi ayol organizmida yuz berayotgan jarayonlarni murakkablashtirib, klimaksning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Ayol ovqatlanishida A vitamini (retinol) yoki uning o'rnini bosuvchi modda - karotinning yetishmasligi ko'rish qobiliyatini va organizmning himoya xususiyatlarini pasaytiradi. Kaltsiferol (D vitamini) tanqisligi osteoporoz rivojlanishiga olib keladi, chunki u organizmda kalsiyning so'rilishini boshqarib turadi. Tuxumdonlarning so'nayotgan faoliyatini qo'llab - quvvatlab turish uchun antioksidant tokoferol (E vitamini) juda zarur. Shuningdek, barcha almashinuv jarayonlarini boshqarib turuvchi riboflavin (B₂ vitamini) va piridoksin (B₆ vitamini) ham organizm me'yorida faoliyat ko'rsatishi uchun muhim. PP vitaminining yetishmasligi tajanglik va ruhiy kasalliklarning shakllanishiga yo'l ochsa, sianokobalamin (B₁₂ vitamini), xolin (B₄ vitamini), inozit (B₈ vitamini), shuningdek, folat kislotasi (B₉ vitamini) yetishmasligi ateroskleroz jarayonlarining rivojlanish ehtimolini oshiradi va tezlashtiradi.

Jaxon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan bir kunda 500 gramm meva va sabzavotlar iste'mol qilish tavsiya etilgan. Lekin o'lkamiz yil davomida ularga

boy bo'lishiga qaramasdan ularni xalqimiz o'rtacha 100 - 200 gramm atrofida qabul qilishadi. Bu esa organizmda vitaminlar va turli xil mikro hamda makroelementlar tanqisligini yuzaga keltiradi.

Ayollar va erkaklardagi suyak to'qimasi zichligi 40 - 50 yoshdan pasaya boshlaydi. Ammo, ayollarda klimaks boshlanishi bilan bu jarayon tezlashadi, ayol organizmidagi kalsiy almashinuvini boshqarib turuvchi muhim omil yo'qoladi, oqibatda suyaklarda taqsimlangan "shaxsiy" kalsiydan foydalanish boshlanadi. Osteoporoz (suyaklarni asta - sekin mo'rtlashib sinishi) ayrim hollarda "pismiqlik o'g'ri" ham deb ataladi. Suyaklar so'rilib ketishi asta - sekinlik bilan yuz beradi. Shu tufayli bu kasallik dastavval hech qanday og'riqlik va shikoyatlarsiz kechishi bilan ajralib turadi. Suyaklar zichligi kamayganligi oqibatida ularning sinishi yuz berganidan keyin uning belgilari yuzaga keladi.

Kalsiy nafaqat suyaklarni me'yoriy darajada ushlab turish, balki qon tomirlari va uning to'qimalari ham unga juda muhtoj bo'lganligi sababli u hayotiy muhim hisoblanadi. Ushbu mikroelement o'smalar (rak) o'sishini sekinlashtiradi, xolesterin pilakchalarini yemiradi, tomirlarni tozalaydi, asab tizimi faolligini saqlab turadi.

Kalsiyning o'zlashtirilishi organizmdagi fosfor mavjudligiga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham bu jarayon kalsiy - fosfor almashinuvi deb ataladi. Agar ratsionda kalsiy ko'p bo'lsa, fosfor esa yetishmasa, unda kalsiyning ortiqchasi organizmdan chiqib ketadi. Fosfor va kalsiyning bir maromda o'zlashtirilishini ta'minlash uchun inson nafaqat ushbu moddalar, balki D vitamini yetarlicha miqdorda bo'lishiga ham muxtojdir. Fosforning o'zlashtirilishi, organizmdagi yod, fluor, kobalt, temir, magniyning miqdori bilan bog'liq.

Organizmda kalsiy va magniyning mutanosiblikda bo'lishi katta ahamiyatga ega. Bir tomondan, magniy organizm uchun zarur, chunki uning tanqisligida qon tomirlari devorlaridagi kalsiy miqdori oshadi va ular mo'rtlashib, spastik qisqarishga moyil bo'lib qoladi. Biroq magniyning ortiqcha bo'lishi ham kalsiy va fosforning o'zlashtirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, ovqatlanishda kalsiy va magniyning nisbati 1:0,5 bo'lishi tavsiya etiladi.

Kalsiy va fosfor manbai - sut mahsulotlari (pishloq, tvorog, sut) yuqori biologik yengillikga ega bo'lib, 70 % dan ortiq kalsiy ular bilan tushadi. Kalsiy, shuningdek, barg shaklidagi yashil sabzavotlarda, soya mahsulotlarida, bodomda, funduq yong'og'ida mavjud. Sut - qatq mahsulotlarini ko'proq iste'mol qilish maqsadga muvofiq. Pishloqning yog'siz navlari va yog'siz tvorog har kuni dasturxonda bo'lishi lozim. Shuningdek, yuqorida ta'kidlaganimizdek sabzavot va mevalar mineral moddalarni asosiy manbai hisoblanadi. Don mahsulotlari, no'hat va yong'oqlardagi temirning faqat 40 % organizmda o'zlashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, ovqatlanish har bir insonning biologik ehtiyoji bo'lib, u bir qator tibbiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik masalalar bilan bog'liq. To'g'ri ovqatlanish qoidalariga rioya etish insonning butun hayoti davomida salomatligini ta'minlaydigan asosiy va muhim omillardan biridir.

ОХРАНА ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ И ФОРМИРОВАНИЕ ПРИНЦИПОВ РАЦИОНАЛЬНОГО ПИТАНИЯ И ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ

Дехканова Н.Н., Усманов А.

Ферганский медицинский институт общественного здоровья

В данной статье рассматривается тенденция о правильном питании, с учетом условий жизни, труда и быта, обеспечивающего постоянство внутренней среды организма человека, деятельностью различных органов и систем, являющих неперенным условием хорошего здоровья, гармонического развития, высокой работоспособности. А также предложена методика рационального питания, её видов, цели и задачи.

Питание-это процесс поступления, переваривания, всасывания и усвоения в организме пищевых веществ, которые необходимые для обеспечения процессов в жизнедеятельности человека: это построение и обновление тканей, энерготрат, регуляции функций организма и другие.

Рациональное питание - это физиологически полноценное питание здоровых людей с учётом их пола, возраста, характера труда, климатических условий проживания. Оно способствует сохранению здоровья, сопротивляемости вредным факторам окружающей среды, высокой физической и умственной работоспособности, активному долголетию.

Питание обеспечивает у людей важнейшую функцию организма, поставляя ему энергию, которая необходима для покрытия затрат на процессы жизнедеятельности.Необходимые организму питательные вещества подразделяются на шесть основных типов: это углеводы, белки, жиры, витамины, минеральные элементы и вода.

Для нормальной жизнедеятельности человека требуется не только снабжение его адекватным (соответственно нуждам организма) количеством энергии и пищевых веществ, но и соблюдение определенных взаимоотношений между многочисленными факторами питания, каждому из которых принадлежит специфическая роль в обмене веществ. Соблюдение основ рационального питания способствует сопротивляемости организма развитию заболеваний, предпосылками к которым являются нарушение обменных процессов, избыточный вес, нерегулярность питания, низкое качество продуктов, энергетический дисбаланс.

Принципами рационального питания являются следующие:

- 1) соответствие энергоценности пищи, поступающей в организм человека;
- 2) поступление в организм определенного количества пищевых веществ в нормальных соотношениях;
- 3) правильный режим питания;
- 4)разнообразии потребляемых пищевых продуктов;
- 5) умеренность в еде.

Неправильное питание снижает защитные силы организма и работоспособность, нарушает процессы обмена веществ в организме, ведет к преждевременному старению и может способствовать возникновению многих заболеваний, в том числе и инфекционного происхождения, в таких случаях ослабленный организм подвержен любому отрицательному воздействию. Всемирной организацией здравоохранения к числу заболеваний, связанных с неправильным питанием, отнесены атеросклероз, ожирение, желчнокаменная болезнь, подагра, сахарный диабет и полиостеоартроз. Эти заболевания вызывают поражение сердечно-сосудистой, дыхательной, пищеварительной и других систем, они резко понижают трудоспособность и устойчивость к заболеваниям, сокращают жизнь человека в среднем на 8-10 лет. Чтобы избежать от таких случаев, нужно соблюдать правильное питание. Питание имеет физиологические, психологические, социальные, культурологические и экономические аспекты. Для нормального роста, развития и поддержания жизнедеятельности организму необходимы белки, жиры, углеводы, витамины и минеральные соли в нужном количестве.

Существует 10 принципов здорового питания:

Принцип № 1. Не заставляйте себя кушать. Есть нужно только тогда, когда чувствуешь голод.

Принцип № 2. Всегда выбирайте цельную, нерафинированную, естественную пищу.

Принцип № 3. Кулинарная обработка пищи должна быть минимальной. Готовьте на один раз, не разогревайте пищу.

Принцип № 4. Тщательно пережевывайте пищу. Употребляйте пищу только в спокойной обстановке, не отвлекаясь на другие дела.

Принцип № 5. Не пейте напитки сразу после еды и не запивайте пищу.

Принцип № 6. Не пере едайте. Не смешивайте несовместимые продукты.

Принцип № 7. Периодически голодайте – давайте время организму отдохнуть и восстановиться.

Принцип № 8. Старайтесь соблюдать традиции своей национальной кухни. Меньше экспериментируйте над собственным желудком, оказавшись на время вдали от дома;

Принцип № 9. - Не есть пищу и не пить напитков, которые получены или обработаны промышленным способом и включают в себя какие-либо продукты и вещества не природного, а химического или другого искусственного происхождения.

Принцип № 10. Отказаться от любой пищи и любых веществ и продуктов, которые оказывают стимулирующее воздействие на нервную систему, - кофе, шоколада, чая, какао, лекарств, алкоголя, табака. Стимулирующее действие всех этих веществ обманчиво - сначала повышается активность, а затем начинается спад, приводящий к депрессии. Чай можно пить только из натуральных трав.

Рациональное питание человека согласно указанным нормам должно включать:

а) Обогащенные микронутриентами хлебобулочные и макаронные изделия; б) Овощи, картофель, бахчевые; в) мясо, рыба, птица; г) молоко и молочные продукты; д) сахар; е) яйца; ж) растительные масла;

Для людей разных профессий имеется разное соотношение белков, жиров и углеводов:

- для работников умственного труда- 1: 1: 4.
- для людей, занимающихся лёгким трудом- 1: 1,2: 4.
- для людей, занимающихся трудом средней тяжести- 1: 1,2: 4,6
- для спортсменов- 1: 0,8: 4.
- для подростков- 1: 0,9: 4,2.
- для людей старше 60 лет- 1: 1,1: 4,8.

Здоровый образ жизни — это способ жизнедеятельности, направленный на сохранение и улучшение здоровья людей. Способствует здоровому образу жизни гигиенический режим труда и отдыха, и мешает такие вредные привычки, как курение, употребление алкоголя и наркотиков. Он создает наилучшие условия для нормального течения физиологических и психических процессов для человека, что снижает вероятность различных заболеваний и увеличивает продолжительность жизни. Здоровый образ жизни — главный фактор здоровья.

Различают биологические и социальные принципы здорового образа жизни:

1. Биологические принципы: возрастным, обеспеченным энергетически, укрепляющим, ритмичным, умеренным.
2. Социальные принципы: эстетичным, нравственным, волевым, самоограничительным.

На формирование здорового образа жизни есть рекомендации ВОЗ:

- питание с малым содержанием жиров животного происхождения;
- сокращение количества потребляемой соли;
- сокращение потребления алкогольных напитков;
- поддержание нормальной массы тела;
- регулярные физические упражнения;
- снижение уровня стрессов и т. д.

При здоровом образе жизни выделяются основные жизненно важные поведенческие формы:

1. Формирование положительных психологических эмоций во всех сферах жизнедеятельности (работа, быт, семейные отношения, реализация в общественной и культурной жизни) и формирование оптимистических взглядов.

2. Организация трудовой деятельности с максимальной эффективностью, что дает возможность реализации и отражает сущность каждого человека.
3. Двигательная активность.
4. Ритмичный образ жизни предполагает соответствие биологическим ритмам как в плане суточных биоритмов, так в плане возрастных потребностей.
5. Здоровое старение — это естественный процесс, который при правильной организации протекает с минимальными негативными последствиями.
6. Отказ от вредных привычек, что способствует поддержанию высоких показателей здоровья.

И в заключении нужно отметить, что здоровье - это нормальное психосоматическое состояние человека, отражающее его полное физическое, психическое и социальное благополучие и обеспечивающее полноценное выполнение трудовых, социальных и биологических функций. Правильное питание ведёт к здоровому образу жизни и избавиться от всяких болезней. В настоящее время много факторов воздействует на здоровье человека. Здоровье человека определяется взаимодействием наследственных факторов и окружающей средой. Условия воздействия, зависящие от того, в какой степени вещество достигает организма, могут изменять реакции организма на это воздействие. Отрицательные эффекты длительного воздействия вещества, загрязняющих воздух, были получены в экспериментах с животными и данными по заболеваемости и смертности. На основании этих данных было сделано заключение о существовании связи между низкоуровневым загрязнением воздуха и рядом хронических заболеваний. Ваше здоровье только в ваших руках!

**YURAK QON-TOMIR TIZIMI KASALLIKLARI BILAN
XASTALANGAN PATSIENTLARNING
OVQATLANISHIGA QO'YILADIGAN GIGIENIK TALABALAR**

**Xabibov Sh., Ermatov N.
Toshkent Tibbiyot akademiyasi**

Muammoning dolzarbligi. Dunyoda aholining turli qatlamlari orasida kunlik ovqatlanish tartibning buzilishi ratsioni tarkibida shakar, tuz, o'simlik moylarini kamaytirish dolzarb muammolardan biridir. Mamlakatimizda kunlik ratsioni tarkibida vitaminlar, mineral moddalaridan kaltsiy, temir va yod yetishmaslik holati, shakar, o'simlik moylari va osh tuzi va non mahsulotlarining ortiqcha iste'mol darajasi yurak qon tomir va qandli diabet kasalliklarining kskin ortishiga olib kelishi qator ilmiy manbalarda qayt qilingan.

Ishimizning asosiy maqsadi yurak qon-tomir tizimixastalıkları bilan kasallangan patsiyentlarga sog'lom ovqatlanishni tashkillashtirish borasida gigiyenik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklaridan arterial gipertoniya kasalligi bilan xastlangan bemorlarning kunlik ratsionitarkibidagi makro va mikronutrientlar miqdori SanQvaM 007-20 «O'zbekiston Respublikasi aholisining yoshiga, jinsiga va kasbiy faoliyati guruhlari uchun sog'lom ovqatlanishni ta'minlashga qaratilgan o'rtacha kunlik ratsional ovqatlanish me'yorlari» talablarini hisobga olgan holda tashkillashtirilishi zarur; kunlik ratsion tarkibidan sho'r, achchiq, spirtli va tamaki mahsulotlarni zudlik bilan chegaralash; kunlik ratsion tarkibidan to'yingan yog' kislotalari va xolestringa boy go'sht mahsulotlarini yog'siz go'sht va quyon go'shti hamda parranda go'shtlariga almashshtirish; bemorlarning kunlik ratsioni tarkibida non va non mahsulotlarini kamaytirish va javdar noni bilan almaytirish; milliy an'analarni inobatga olgan holda qovurilgan tamolarning ratsiiondan chegaralash; tuzlangan va dudulangan baliq mahsulotlarni dimlangan baliq mahsulotlariga almashtirish; yog'li sut, yog'liligi yuqori sut mahsulotlarini yog'sizlari bilan almashtirish; achchiq choy, kahva o'rniga qaynatilgan suv hamda meva va sabzovotlarning sharbatlarga almashtirish; tarkibida kaliy bosh meva va sabzovotlarni kunlik ratsionga kiritish; turli dukkali mahsulotlardan tayyorlangan bo'tqalarni belgilangan miqdorda oshmagan holda iste'mol qilish; tuxumning oqini qaynatilgan tartibda iste'mol qilish; ko'katlarni ratsionda yetarli miqdorda ta'minlash; mikroelementlardan kaltsiy, fosfor, kaliy, temir va yod saqlovchi mahsulotlarni dimlangan tartibda iste'mol qilish zarur.

Xulosa qilib ta'kidlashimiz joizki, yurak qon-tomir tizimi kasalliklari mavjud patsientlarning kasallanish darajasini kamaytirish, faol mehnat qobiliyatini ta'minlashda sog'lom ovqatlanish talablari, ularning ahamiyati, asosiy gigienik va profilaktik ko'rsatmalarga rioya qilish kasallikni davolashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

XXI ASR TARAQQIYOTINING INSON RUXIYATIGA TA'SIRI

Xojimatov X.O., Saydullayeva K.M.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Xozirgi biz yashayotgan 21 asr ruhiy zo'riqishlar davrida yashayapmiz. Internet ma'lumotlari, turli xil axborotlarni tezlikda tarqalishi, har xil stresslar, kam harakatchanlik, noto'g'ri ovqatlanish, sog'lom turmush tarziga amal qilmaslik oqibatida xayotimiz asta – sekinlik bilan emirilib bormoqda.

“Asablar” bu so'zni hamma joyda eshitamiz. shifokor o'z bemoriga bu sizning asablaringiz buzilganidan deydi. Sezgir insonlar o'z ruhiy xolatlaridan shikoyat qiladi. Har kuni ish joyingizda, ko'cha –kuyda asabi taranglashgan insonlar bilan bevosita muloqotda bo'lamiz. Xozirgi kunda yoshlarimizni ruxiy xolati shunchalik taranglashganki, baland ovozli musiqa bilan o'zlarini jonlantirmoqchi bo'ladi. Ulardagi bu darajadagi xayajon, emotsiyalar telefonda gplashayotib o'zlarini boshqara olmaslik xolatlarini keltirib o'tish mumkin.

Oynaijaxon yarim tungacha to'xtamay ishlaydi. Insonlar taranglashgan asabini muvozanatga keltiraman deb, aksincha qotillik, qon to'kish, azoblash, bexayo seriallar, o'qqa tutish kabi kino va ko'rsatuvlarni tamosha qiladi. Natijada inson ruxiy xolati bundanda kuchliroq zo'riqishlarga uchrab, atrofdagi bo'layotgan

voqea va xodisalarga e'tiborsiz bo'lib qoladi. Xayot zarbalarini xech qanday qarshilik ko'rsatmasdan qabul qiladi. Asab kuchi zaiflashganda g'ayrat va shijoat yo'qolib, o'rnini yalqovlik egallay boshlaydi.

Qat'iyatsizlik, qaror qabul qila olmaslik, ikkilanish, o'z qobilyatiga ishonmaslik, kimdir yordam bermoqchi bo'lsa, uni bu niyati chin ekanligidan havotirlanish kabi vaziyatlar, inson omadsizliklarni turli bahonalar bilan oqlashga odatlanadi. Sog'lom va omadli kishilarga xasad bilan qaraydi.

Xavotirdagi odam er yuzidagi eng achinarli odam bo'lib, doimiy qo'rquvda yashaydi. Xavotirlanish xayot kuchlarini qirqadi, muddatidan ilgari qaritadi. Xavotirlanadigan odamning gapi: "Mening tashvishlarim sizda bo'lsa siz ham xavotirlanardingiz" kabi gap so'zlar kunlik turmush tarziga aylanadi.

O'ta extiyotkorlik bilan g'oya va rejalarini ro'yobga chiqarish uchun vaqt kelishini kutadi. Bu xolat odatga aylanib qoladi. Bajarmoqchi bo'lgan ishingizni kamchiligiga bir ko'z tashlash, muammoni xal qilish uchun fikrni jamlash o'rniga yutqazib qo'yish haqida xavotirlanadi.

Bunday o'ta extiyotkorlik, ishonchsizlik oshqozonda ovqat xazm bo'lmasligiga, ich qotishiga, noto'g'ri nafas olishga, bezovtalanishga, xotirjamlik va o'ziga ishonchni yo'qotishga, kayfiyatning buzilishiga olib keladi.

Agar sanab o'tilgan belgilar mavjud bo'lsa, undan xalos bo'lish taklif etiladi.

Stressga duchor bo'lmaslik uchun sabr-qanoatli bo'lish, mehnatni dam olish bilan uyg'un olib borish, biroz orom olish, tinchlanish kerak.

Ishda xushfe'l, tavozeli bo'lish o'zaro hurmatli, xushmuomala inson bo'lish kerak.

Har doim ko'tarinki kayfiyatda bo'lishga harakat qiling. Kulgi odamning psixologik vaziyati engillashishiga imkon beradi.

Odam o'zida boriga rozi bo'lsa, belgili yutuqqa erishganiga, o'zining tirik yurganiga shukur qilsa, tanqidiy fikrlarga rozilik bilan qaraydigan bo'lsa, immunitetini orttirib, qon bosimini pasaytiradi.

Ko'ngilsizliklarni yuragingizda asramang. Qanday bo'lsa ham, tashqariga chiqarishga harakat qiling. Shu yo'l bilan ruhiy holat salomatligini tiklab olish mumkin. Ruhiy zo'riqishdan qutulishning o'zingizga ma'qul yo'lini topib, o'zlashtirib oling.

Kivi asab kasalliklarini davolashda foydali. Kivi mevasi tarkibidagi "C" vitamini, magniy odam asabini tinchlantiradi.

Ko'k, havorang, binafsha rangli mahsulotlar asab tizimini va miyani oziqlantiradi, inson ruhiga ijobiy ta'sir etadi. SHuning uchun, stressga tushganda shu rangdagi eguliklarni iste'mol qilish tavsiya etiladi.

Sariq rang salbiy tuyg'ulardan ozod etib, o'z kuchiga ishonishga turtki beradi, fikrni jamlashga yordam beradi, ovqat hazm bo'lishiga yordam beradi, shlaklarni haydaydi.

Foydali moddalari ko'p taomlardan iste'mol qilish kerak, karam, limon, piyoz, qalampir, anjir, nok, olma – ushbu eguliklar asablarni mustahkamlaydi va kishini tinchlantiradi, nerv bardamligini ta'minlaydi, kayfiyatlarni ko'taradi. Miyaga o'rnashgan salbiy hislarni tarqatib yuboradi.

QALQONSIMON BEZ FAOLIYATINING INSON ORGANIZMIDA TUTGAN O'RNI

Xojimatov X., Maxamatov U.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Qalqonsimon bez bo'yinning oldingi qismida joylashgan va shaklan kapalakni yodga soluvchi organ. U asab tizimi, ovqat hazm qilish, suyak to'qimalari va reproduktiv salomatlikka o'z ta'sirini o'tkazadi.

Bez 3 xil gormonni ajratib chiqaradi. Agar birortasini sintez qilish jarayonida kamchiliklar kuzatilsa, organizmning doimiy ish faoliyatida uzilishlar va kasalliklar yuzaga keladi. Gormon o'zgarishlari bir necha sabablar tufayli kelib chiqishi mumkin: dori vositalari qabul qilinishi, virusli infeksiyalar, immun tizimi zaiflashishi, yod tanqisligi, homiladorlik va tug'ruqdan keyingi davr. Odam bolasi kuchsiz qalqonsimon bez bilan tug'ilishi ham mumkin.

Kasallik deb gormonlarning etarli ishlab chiqarilmasligi va ortiqcha ishlab chiqarilishiga aytiladi. Muammo bartaraf etilmasa, u yurak xastaliklariga, homiladorlik va tug'ruq og'ir asoratlar bilan kechishiga, homila tushishiga, ba'zi holatlarda komaga olib kelishi mumkin.

Gohida zaif alomatlar ham jiddiy kasalliklardan belgi bera oladi. Lekin doimo ularni vaqtida payqab, o'z hayotini saqlab qolishning imkoniyatlari etarli.

Shifokorlar birinchi navbatni diqqatni vazn o'zgarishlariga qaratishadi. Agar tanada gormonlar me'yordan ortib ketsa, odam birdaniga ozib ketadi. Odatdagidan ko'p ovqat iste'mol qilinganda ham, vazn tashlash davom etadi — bu holatda ovqatlanish rejimi o'zgarishi hech qanday ta'sirga ega emas.

Gormon darajasining tushishi esa, aksincha, vazn yig'ilishiga olib keladi. Metabolizm sekinlashadi va natijada organizm ortiqcha kaloriyani yog' shaklida yig'a boshlaydi. Shu sababli parhez va fitneslarga qatnash ham qomatni ushlashga yordam bera olmaydi. Natijaga faqatgina gormonal fondagi o'zgarishlarni me'yorga keltiruvchi davolash kursidan keyin erishish mumkin.

Gormonlar bizning asab tizimimizga o'z ta'sirini to'g'ridan-to'g'ri o'tkazgani uchun ham, kayfiyatimiz ularning darajasiga bog'liq. Nosozliklar alomatlariga hamma narsaga loqaydlik, hissiy qo'zg'aluvchanlik, vahima, xavotir, yig'loqilik yoki o'zini tajovuzkor tutish kiradi.

Inson o'zidagi o'zgarishlarni payqashi oson emas. Ko'pincha ularni ishdan keyingi charchoq, har kungi stress va hayot qiyinchiliklariga bog'lash mumkin. O'z kayfiyatingizga e'tiborli bo'ling: agar u arzirli sabab bo'lmaganda ham yomonlashsa va bir necha kun davomida o'zingizga kela olmay yursangiz, sizda psixoterapevt qabuliga borish uchun arzirli sabab mavjud.

Agar bo'yinda shish va uning hajmi ortishi, nafas olishda qiyinlashishi, yutinishda og'riq, ovoz xirillashi kuzatilsa, katta ehtimol bilan, qalqonsimon bez kattalashgan yoki unda tugunchalar paydo bo'lgan.

Qalqonsimon bezning kattalashishi buqoq kasalligi deb ham ataladi. U davolanish va gormon darajasi o'z me'yoriga qaytishi bilan o'tib ketadi. Biroq bo'yindagi noqulaylik qalqonsimon bez saratonidan ham belgi bildirayotgan

bo'lishi mumkin. Shuning uchun, agar noxush holat sezsangiz, zudlik bilan shifokor qabuliga boring.

Soch va tirnoqlar gormonal o'zgarishlarga juda sezuvchandir. Shuning uchun kasallik paydo bo'lganda ular yupqalashadi va kuchsizlanadi, oson sinishi va to'kilishi kuzatiladi. Bu nafaqat sochlarga, balki qosh va kipriklarga ham aloqador.

Kuchli soch to'kilishi kallikka ham olib kelishi mumkin. Agar vaqtida davolanib, gormonlar darajasi o'z o'rniga qaytsa, soch qatlami yana avvalgi holatini tiklaydi.

Bu buzilishlar ayollarda eng ko'p tarqalgan gormonal uzilishlar alomatidir. Oy ko'rishdagi muammolar, oz va kam ajralmalar, sikl cho'zilishi yoki juda ko'p qon ketishi etarli belgi bo'la oladi. Og'riqli menstruatsiya qalqonsimon bezdagi muammolardan ham darak beradi, ayniqsa avval bunday og'riq kuzatilmagan bo'lsa. Hech qanday gormonal o'zgarishlarga aloqador bo'lmagan yagona holat bu stress va qattiq charchoq bilan bog'liq bo'lishi mumkin, biroq shunda ham ayollar shifokor qabuliga uchrashlari kerak. Buni ortga surish yaramaydi, chunki endokrin kasalliklari bepushtlik va homiladorlikda kelib chiquvchi yomon asoratlar xavfini kuchaytiradi.

Gormonal kamchiliklar tananing o'z haroratini me'yorda ushlab imkoniyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bemorlarning ta'kidlashicha, ko'pchilik bir xonada bo'lib turganda va boshqalar issiqlikni his qilishganda, ular sovqotishadi. Ba'zilar aksincha. Qattiq jazirama hissidan aziyat chekishadi. Qalqonsimon bez qancha ko'p gormon ishlab chiqarsa, tana harorati ham shuncha oshib boraveradi.

Odamlarda odatiy harorat doimiy ravishda balandroq yoki pastroq bo'lishi ham uchraydi. Bunda hech qanday xavotirga hojat yo'q. Biroq u birdaniga o'zgarsa va ma'lum muddat odatiy darajaga qaytmasa, gormonal o'zgarishlar ehtimoli yuqori.

Quruqlashish va ta'sirchanlik turli xil kasalliklardan dalolat berishi mumkin — psoriasis, ixtioz, zamburug'lar, allergiya, jigar etishmovchiligi va ruhiy uzilishlar.

Lekin agar qalqonsimon bez kasalliklarining boshqa alomatlari ham mavjud bo'lsa, teri quruqlashishi arziqli belgi bo'la oladi. Ayniqsa, tirsak va tizza sohasida po'st tashlash kuzatiladi va teri tashqi harakatga ta'sirchan bo'lib qoladi. Toshmalar, qichishish va yallig'lanish kuzatiladi.

Qalqonsimon bez gormonlari ovqat hazm qilish tizimini ham me'yorlashtiradi, moddalar almashinuvi va oshqozon-ichak faoliyatini nazorat qiladi. Nosozliklar mushaklar zaiflashishi, yo'g'on ichak tortilishiga olib kelishi mumkin. Buning ortidan qabziyat, diareya va og'riq yuzaga keladi. Diareya o'z navbatida vazn tashlashga olib keladi va ko'pincha bu ikki simptom bir vaqtda kuzatiladi.

Yurak urishida tezlik yoki sekinlashuv endokrin tizimidagi kasalliklar alomati bo'lishi ham mumkin. Qon bosimi o'zgaradi — birdaniga ko'tariladi yoki tushadi. Hatto oddiy jismoniy zo'riqish nafas qisilishi va puls tezlashuviga olib kelishi mumkin.

Shifokor nazoratisiz bu simptom taxikardiya yoki yurak etishmovchiligi kasalliklarini qo'zg'ashi mumkin. SHuning uchun kardiolog va endokrinolog qabulini kechiktirmaslik kerak.

INSON ISTE'MOL QILADIGAN OSHQOVOQNING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI

Xojimatov X.O., Teshaboev U.A., Maxamatov U.SH.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Abu Ali ibn Sino oshqovoq haqida turli fikrlar aytgan. Oshqovoqni qaynatib sharbati ichilsa, yo'tal va ko'krakdan paydo bo'lgan og'riqni qoldiradi. Xom, pishirilmagan oshqovoqdan olingan sharbatni burunga tomizish bilan tish og'rig'ini to'xtatish mumkin. Oshqovoq kishi oshqozoni uchun g'oyat foydalidir. U namlantiradigan va chanqoqni bosadigan dorilardan biridir. Oshqovoqni qaynatib, asal bilan tanavvul qilinsa, o'ta foydalidir.

Tabib Hakim SHahobiddin «Sabzavotlar haqida» nomli she'riy asarida oshqovoq to'g'risida bunday yozgan:

Sovug'i, bod qo'zg'ar tanda oshqovoq,

Sovuq mijozlilar emas in mutloq.

Issiq mijozlilarga ko'p foyda etar,

Halqum bilan tanni yana yumshatar.

Oshqovoqni, yosh go'daklardan tortib, qariyalargacha, tez-tez eb turish kerak. Sutga qaynatilgan yoki palla-palla qilib, qasqonda bug'lab, qaymoq surtilgani ham lazzat baxsh etadi, ham salomatlik ato qiladi. Mana shu ovqatlarni xalq tabobatida yoshlarning to'g'ri o'sishiga va qarigan a'zolarining faoliyatini cho'zishga vosita bo'ladigan bir shifo tarzida iste'mol qilishgan. Endilikda shifoxonalarimizda ham oshqovoq taomlari yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'riqlarga dori sifatida edirilmog'da. Bu yana gastrit, oshqozon jarohati, buyrak xastaligi, yo'tal, astma va bo'g'ma kasalliklarida ham shifodir.

Oshqovoq: diabet, gipertoniya, asabni davolaydi Oshqovoq nafaqat mazali, balki turli dardlarga davo egulik hamdir. Ushbu oltinrang poliz mahsulotining shifobaxsh xususiyatlari bilan tanishamiz. Tish kasalliklarida shifo bo'lgan oshqovoq moyi og'iz bo'shlig'i kasalliklari, xususan, karies, tishlarning karash bilan qoplanishi, milk hastaliklari, xatto stomatitda ham foyda qiladi. Masalan, karies, tish karashlaridan halos bo'lish uchun quyidagi usuldan foydalanish mumkin. Bizga 2 osh qoshiq oshqovoq moyi, tuz, 250 ml suv kerak bo'ladi. YOg'ni shisha idish yoki kosaga quyib, idishi bilan qaynoq suvga solib, biroz isitib olinadi. Iliq qaynatilgan suvda bir chimdim tuzni eriguncha aralashtiramiz. Milk kasalliklarida, karies va karashlar paydo bo'lganda, 2-3 daqiqa davomida og'iz yog' bilan chayiladi. So'ng tuzli suvda chayish davom ettiriladi. Muolaja har kuni ovqatlanishdan 15 daqiqa avval bir hafta davomida bajariladi.

Asalli malham oshqovoq boli jigar uchun malham. Ovqat hazmini yaxshilab, kuchsiz surgi vazifasini bajaradi. SHuningdek, oshqovoqli asal ortiqcha vazn, buyrak va qovuq hastaliklarida foyda qiladi.

Jigarni tozalovchi salat jigar uchun eng foydali mahsulot bu oshqovoqdir. Agar uni o'z mavsumida tez-tez eb turilsa, jigarga katta yordam bo'ladi. Oshqovoq jigarni tozalaydi va uning tiklanishiga yordam beradi. Buning uchun turli salatlar pishirish kerak. Negaki, u xomligida vitaminlari ko'proq bo'ladi. Buning uchun

oshqovoqning katta bo'lagini yirik tishli qirg'ichdan o'tkaziladi. Keyin esa unga zaytun yog'idan quyib, aralashtiriladi va 5 daqiqa dam beriladi. Salat ertalab och qoringa eyiladi.

Xalq tabobatida asab kasalliklarini davolashda oshqovoq ko'p qo'llanadi. Masalan, uyqusizlik, stressdan halos bo'lish, tinchlantiruvchi vosita sifatida bir qancha oshqovoqli retseptlarni sinab ko'rish mumkin. SHuningdek, oshqovoqni gaz pechida yoki tovada dimlab, pishirish mumkin.

Qandli diabet kasalligida sog'lom turmush tarzi, ayniqsa, ovqatlanish muhim ahamiyatga ega. Kunlik taomnomada turli foydali ovqatlar bor. Masalan, oshqovoqli pyure-sho'rva, bu taomni tayyorlash uchun 1,5 l engil tovuq sho'rvasi, 2 donadan piyoz, kartoshka, sabzi, 350 g oshqovoq, ko'k piyoz va ko'katlar, 70 g qattiq pishloq, 50 g sariyog', 2 bo'lak non hamda ta'bga ko'ra tuz va murch kerak bo'ladi. SHo'rvani olovga qo'yib, qaynab chiqqach, mayda to'g'ralgan kartoshka soling. Oshqovoq, sabzi va piyozni past olovda sariyog'da qovurib, yumshaguniga qadar idish ustini qopqoq bilan yopib qo'yiladi. Barcha qovurilgan mahsulotlarni sho'rvaga qo'shib, tuz va murch solib, sho'rvani sabzavotlar yumshaguniga qadar qaynatiladi. Nonni mayda to'rtburchak shaklda kesib, gaz pechida quritib olinadi. SHo'rvadagi sabzavotlarni ajratib olib, blender yoki qoshiqda eziladi. So'ng bu qorishmaga sho'rva suvidan ozgina quyib, pyure-sho'rva holiga keltiriladi. Taomga maydalangan ko'katlar, qirg'ichdan chiqarilgan pishloq hamda qotirilgan non solib, dasturxonga tortiladi. Bunday sho'rva gipertoniya (baland qon bosimi)ga chalinganlar uchun ham rosa foydali.

Oshqovoqli asalni tayyorlash uchun o'rtacha kattalikdagi oshqovoqning band qismidan ozroq kesib olinadi. Ichidagi urug'lari olinib, asal to'ldiriladi va kesib olingan bo'lak bilan yopiladi. Asalga to'lgan oshqovoq tog'orachaga solinib, bir chekkaga olib qo'yiladi. U shu holatda po'sti yumshaguncha turadi. Keyin oshqovoq ichida hosil bo'lgan suyuqlik shisha bankaga quyiladi. U sovitkichda saqlanadi. Suyuqlikni istalgan payt qaynagan suv bilan ichish mumkin. Uy sharoitida qon tarkibidagi qand miqdorini kamaytirishda foydalaniladi.

УПРАВЛЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМИ РИСКАМИ В ЗДРАВООХРАНЕНИИ

**Хейфец Н.Е., Солтан М.М., Хейфец Е.Н., Макаревич К.С.
Республиканский научно-практический центр медицинских
технологий, информатизации, управления и экономики
здравоохранения, Республика Беларусь,**

Результативность работы организации здравоохранения по обеспечению доступности и качества медицинской помощи в значительной мере связана с ее управляемостью. Успех управленческой деятельности в здравоохранении во многом определяется уровнем развития основных направлений менеджмента, включающих планирование, управление, контроль и корректировку. Грамотное использование этого арсенала и научно обоснованный подход позволяют каждой организации здравоохранения достичь стратегических целей и параллельно решить

текущие проблемы [1].

В этом процессе особое место занимает относительно новое направление в управлении современным здравоохранением – риск-менеджмент или управление рисками. Риск-менеджмент затрагивает различные функции управления риском, в частности, такие как обнаружение, обзор, описание риска и целей, на которые может данный риск повлиять, а также определение превентивных и корректирующих мероприятий, позволяющих снизить вероятность риска путем принятия адекватных управленческих решений [2].

Медицинская деятельность сложна по структуре, количеству субъектов, специфике отношений. Риски возникновения ошибок в диагностике и лечении всегда присутствуют, поскольку профессиональные и морально-этические особенности деятельности медицинского работника различны, а также имеют место ситуации, в которых медицинская помощь оказывается в крайне сложных условиях с возможностью применения ограниченных средств и ресурсов. В подобных ситуациях добросовестное отношение медицинского работника к своим должностным обязанностям и его высокий уровень квалификации не являются факторами, полностью исключающими профессиональные риски при оказании медицинской помощи. Реализация профессиональных рисков при осуществлении медицинской деятельности ведет к снижению качества медицинской помощи, удовлетворенности пациентов, росту количества жалоб и обращений в суд пациентов в связи с некачественным оказанием медицинской помощи, количества дисциплинарных взысканий и случаев привлечения к административной и уголовной ответственности медицинских работников, а также к экономическим потерям организации здравоохранения и медицинского работника при возмещении материального и морального вреда пациенту [3].

В управлении рисками в системе здравоохранения выделяются два основных подхода: организационный и человекоориентированный. Человекоориентированный подход сосредоточен на индивидуальных ошибках, связанных исключительно с человеческим фактором (забывчивость, некомпетентность, невнимательность). Организационный подход фокусируется на внутренней и внешней среде организации. Его основной задачей является формирование единой системы взаимоотношений и процедур, которые обеспечивают предотвращение неблагоприятных событий, снижение их уровня или устранение этих событий в принципе путем принятия соответствующих мер. Учитывая вероятность возникновения исходных причин и определенного количества времени и промежуточных шагов, которые требуются для возникновения неблагоприятного события (последствия), можно рассчитать вероятность возникновения условий для реализации рисков, а, значит, разработать систему мер, целью которых является уменьшение количества неблагоприятных событий [4].

В здравоохранении Республики Беларусь главным инструментом риск-менеджмента и проведения оценок соответствия являются клинические

протоколы. Однако в них установлены только общие требования к оказанию медицинской помощи пациенту при определенном заболевании, с определенным синдромом или при определенной клинической ситуации и не определены возможные риски, способы их снижения, рекомендации и т.п. Стандарт (эталон) по управлению рисками, как и специалисты в области риск-менеджмента, в здравоохранении Республики Беларусь отсутствуют.

Отсутствие специальных нормативных документов и квалифицированных кадров вызывает многочисленные проблемы в управлении рисками в здравоохранении и определяет актуальность подготовки локального правового акта, который будет предусматривать внедрение специальной методологии управления профессиональными рисками при осуществлении медицинской деятельности в Республике Беларусь.

Список литературы

1. Кучеренко, В.З. Организационно-управленческие проблемы рисков в здравоохранении и безопасности медицинской практики / В.З. Кучеренко, Н.В. Эккерт // Вестник Российской Академии медицинских наук. – 2012. – №3. – С.7.
2. Кицул, И.С. Применение технологий риск-менеджмента в системе оказания медицинской помощи / И.С. Кицул, Б.С. Балханов, Н.К. Бадмаева // Менеджер здравоохранения. – 2012. – №10. – С.7.
3. Синбухова, Е.В. Психологические аспекты врачебных ошибок / Е.В. Синбухова, А.Н. Занковский // Системная психология и социология. – 2020. – №3 (35). – С.51–60.
4. Захарова, Е.Н. Формирование механизмов управления рисками в медицинском учреждении / Е.Н. Захарова, И.П. Ковалева // Вестник АГУ. – 2017. – №1 (195). – С.108–116.

SUZISH SPORTNING SALOMATLIKDAGI AHAMIYATI **Sherqo‘ziyeva G.F., Salomova F.I., Maxkamova N.** **Toshkent tibbiyot akademiyasi**

Insonning hayot faoliyatida sport bilan xususan suzish sporti bilan shug‘ullanish va uning ahamiyatini baholash murakkab ishdir, chunki suzish inson organizmining barcha hayotiy faoliyati tarkibiga kiradi. Suzishning davolovchi terapevtik gigiyenik, fiziologik, ahamiyatlari to‘g‘risida juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar butun dunyo olimlar tomonidan uzoq yillar davomida o‘rganilib kelindi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida 1113 ta zamonaviy sport ob‘ektlari barpo etildi, shulardan 252 tasi sport komplekslari, 861 tasi sport zallari va 110 tasi suzish uchun suv havzalari. Mustaqillikka erishgandan so‘ng sportning barcha turlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor berildi. Xususan bu borada eng avvalo kuchli qonunchilik yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining «Suzish sport turlarini rivojlantirish chora tadbirlari» to‘g‘risidagi Qarorda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha

Harakatlar strategiyasini», «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-son Farmoniga muvofiq hamda suv sporti turlari bo'yicha sport zahirasi va yuksak mahoratli sportchilarni tayyorlash, suv sporti turlari bo'yicha bolalar trenerlarini tayyorlash va seleksiya ishlarini yo'lga qo'yish, sport muassasalari trenerlari va xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi Qaror qildi. Cho'milish basseynlarini loyihalashtirish, jihozlash va ishlatilishi bo'yicha sanitariya qoidalari va me'yorlari SanQvaM № 0306–12 hujjat mavjud bo'lib, suzuvchi va aholi o'rtasida turli kasalliklarni tarqalishini oldini olish bo'yicha ushbu me'yoriy hujjatdan foydalaniladi.

2003-2011 yillar davomida 1500 ga yaqin zamonaviy sport ob'ektlari foydalanishga topshirildi. Sport majmualaridan foydalanish samaradorligini oshirish, bolalarni, ayniqsa, qizlarni sportga yanada kengroq jalb etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. 2014-yilda bolalar sporti ob'yektlari, musiqa va san'at maktablari barpo etish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari izchil davom ettirildi. 115 bolalar sporti ob'ekti, 48 bolalar musiqa va san'at maktabi barpo etildi [5]. Mutaxassislarning fikricha, suv sporti bilan shug'ullanish inson salomatligini mustahkamlash, jismoniy chiniqishda juda katta ahamiyatga ega. Suzishni kanda qilmaydigan odamlarda umurtqa pog'onasi, yelka suyaklari va yurak faoliyatida nuqsonlar kuzatilmaydi. Yana bir jihati, suvga tushgan kishi o'zini tetik his qiladi va aynan o'sha daqiqalarda har qanday asabiy zo'riqishlardan holi bo'ladi. Muntazam ravishda suvda suzish mashqlari yurak qon-tomir tizimi uchun yaxshi foyda beradi. Chunki suzishni boshlaganingiz zahoti arterial qon bosimi me'yoriga keladi. Yurak mushagi chiniqqanligi bois uning elastikligi ortadi. Bu sport turida muntazam nafas mashqlarini bajarish natijasida o'pka chiniqadi. Bundan tashqari, gipoksiya (kislorod yetishmasligi)dan xalos etadi. Suv tanani bo'shashtirish xususiyatiga ega bo'lib, mushakdagi spazmlarni ketkazadi. Miya tin olib, uyqu va xotira yaxshilanadi. Disk churrasi, osteoxondroz kasaliga chalingan kishilarga katta yordam beradi. Inson suzgan paytda uning tanasi suvdagi kisloroddan to'yinadi. Natijada, tanadagi zararli yog'lar parchalanib, ortiqcha vazn yo'qoladi. Bir soat suvda suzish naqd 500 kilokaloriyadan xalos etadi.

Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining ekspertlari dunyodagi barcha kasalliklarning 80 foizi ifloslangan suv orqali yuqishini aniqladilar. Suvning kasallik tarqatuvchi mikroorganizmlar bilan zararlanishi qorin tifi, dizenteriya, vabo, virusli gepatitning A turi kabi bir qator yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Har yili millionlab odamlarning hayotiga zomin bo'ladigan kasallikni davolashda suzishning ahamiyati katta. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, yurakning ishemik kasalligi dunyo bo'ylab yuz berayotgan o'limning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. 2016 yil yurak-qon tomir kasalliklari 15,2 million kishining o'limini tashkil etgan. Bugungi kunda ham erkak va ayollarning bevaqt o'limiga sabab bo'lmoqda. Aslida uning oldini olish

juda oson bo'lib, aksariyat hollarda xavfni minimal darajaga tushirish mumkin. Buning uchun to'g'ri ovqatlanish, faol hayot tarzini olib borish, stressni boshqarishga harakat qilish, zararli odatlardan voz kechish va yurak-qon tomirlarining holatini shifokor ko'rigida muntazam ravishda tekshirtirib turish tavsiya etiladi. Suzish havzasida 40 daqiqadan ortiq turmaslik kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz Toshkent shahridagi suzish basseynlarining sanitar-gigiyenik holati va mikroiklim ko'rsatkichlarini tekshirdi, hamda foydalanuvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazdik. Ixtisoslashtirilgan suv sportini rivojlantirish Respublika markazi suzish havzasi maxsus loyiha asosida 2007 yilda qurilib foydalanishga topshirilgan. Suzish havzasining quvvati o'lchami 50 X 25 metr. Elektr tarmog'iga ulanishi, gaz va kanalizatsiya tizimlariga ulanishi shahardan. Isitilishi mahalliy qozonxona yordamida amalga oshiriladi. Suzish havzasi zamon talablari asosida jihozlangan bo'lib, garderob xona, kutish zali, suzish havzasi, kiyim almashtirish xonalari, xojatxona, dushxona va tanbur kabi xonalardan tashkil topgan. Suzish havzasidagi suv yer osti suvidan olinadi. Suv yig'ish joyi rezervuar, filtr, xloratorlardan o'tib, koagulyantlar qo'shilgandan so'ng basseynga tushiriladi. Suv harorati talab darajasida. O'zbekiston Respublikasi suv sportini rivojlantirish markazining umumiy maydoni 2648,61m², o'tkazuvchanligi soatiga 40 kishini tashkil etadi. Shu bilan birga markazda mini futbol maydoni mavjud bo'lib, uning o'lchamlari quyidagicha: uzunligi -40m, eni-20m, o'tkazuvchanligi soatiga -25 kishini tashkil etadi. Basseynlarga olinadigan suv «Ichimlik suvi. Gigiyenik talablar va sifati ustidan nazorat» O'zDST 950:2011 talablariga mos bo'lishi shart. Basseynlarda har kuni filtrlash va zararsizlantirish ishlari amalga oshiriladi. Toshkent Davlat Texnika Universitetiga qarashli suzish havzasi 2006 yilda ishga tushirilgan. Sport inshootining toifasi –IV (to'rtinchi). 1qavatli bino bo'lib, maxsus loyiha asosida qurilgan. Suzish havzasining o'lchami 25x12 bo'lib, chuqurligi 1.30 va 1.80. Suzish havzasiga suv 6ta filtrlar orqali o'tadi. Suzish havzasiga suv yer osti suvi orqali to'ldiriladi. Isitilishi xususiy qozonxona orqali amalga oshiriladi, Yoritilishi tabiiy va sun'iy lyuminissent lampalari yordamida.

Ixtisoslashtirilgan suv sportini rivojlantirish Respublika markazi suzish basseyni suvining sifatini sanitar-gigiyenik tekshirishlar uchun uning 6 ta nuqtasidan namunalar olindi: kirish qismining yuzasidan 0,5-1,0sm, kirish qismining chuqur qismidan 25-30sm, o'rta qism yuzasidan 0,5-1,0sm va chuqur qismidan 25-30 sm, chiqish qismining yuzasidan 0,5-1,0sm chuqur qismidan 25-30 sm dan. Tekshirishda umumiy 2018 -2019 yillarda suvdan namunalar olindi va mikrobiologik tekshirishdan o'tkazildi. Basseyn suvning qancha miqdorda qoldiq xlor yoki brom tutishi yodometrik usul bilan aniqlanadi va suvining tozalik darajasi MU/012-3/0152 asosida baholandi.

Ixtisoslashtirilgan suv sportini rivojlantirish Respublika markazi suzish basseynning suvini 2015-2017 yillar dinamikasida sanitar gigiyenik tekshirishdan quyidagi natijalarni oldik. 2015 yil umumiy olingan namunalar soni 124(100%) bo'lib ulardan 4 ta namuna, 2016 yil umumiy namunalar soni 112 (100%) bo'lib

ulardan 4 tasi 2017 yil umumiy namunalar son 120 (100%) bo'lib ulardan 2 ta namuna gigiyenik talablarga javob bermagan.

Ixtisoslashtirilgan suv sportini rivojlantirish Respublika markazi suzish basseynida yilning qish faslida o'tkazilgan tekshirishlarda quyidagilar aniqlandi: shovqin darajasi 68,7dan 74,5 dB, yo'laklarda 45dan 54 dB, murabbiylar xonasida 60-64 dB, qiz bolalar yechinish va kiyinish xonasida 58-61dB ekanligi aniqlandi. Havoning namlik darajasi esa yo'laklarda 60,3% dan 57,6% gacha, murabbiylar xonasida 54,%-53,1%, qiz bolalar yechinish va kiyinish xonasida 53,8%-54,8% gacha, suzish basseynida esa 62,7%-77,1% gacha ekanligi aniqlandi. Aniqlangan ko'rsatkichlar gigiyenik talablarga javob berdi, bu basseynidan foydalanuvchilar salomatligiga xavf tug'dirmaydi, bu basseynni ekspluatatsiya qilishda sanitariya qoidalari va me'yorlariga qat'iy amal qilinayotganini ko'rsatadi. Yilning issiq davrida o'tkazilgan tekshirishlarda quyidagi davr aniqlandi: ixtisoslashtirilgan suv sportini rivojlantirish Respublika markazi suzish basseynida shovqin darajasi 68,7dan 74,5 dB, yo'laklarda 45dan 54 dB, murabbiylar xonasida 60-64 dB, qiz bolalar yechinish va kiyinish xonasida 58-61dB ekanligi aniqlandi. Havoning namlik darajasi esa yo'laklarda 60,3% dan 57,6% gacha, murabbiylar xonasida 54,%-53,1%, qiz bolalar yechinish va kiyinish xonasida 53,8%-54,8% gacha, suzish basseynida esa 62,7%-77,1% gacha ekanligi aniqlandi. Aniqlangan ko'rsatkichlar gigiyenik talablarga javob berdi, bu basseynidan foydalanuvchilar salomatligiga xavf tug'dirmaydi, bu basseynni ekspluatatsiya qilishda sanitariya qoidalari va me'yorlariga qat'iy amal qilinayotganini ko'rsatadi.

Toshkent Davlat Texnika Universitetiga qarashli suzish basseynida shovqin darajasi 67,7dan 75,5 dB, yo'laklarda 44dan 55 dB, murabbiylar xonasida 61-64 dB, qiz bolalar yechinish va kiyinish xonasida 59-62dB ekanligi aniqlandi. Havoning namlik darajasi esa yo'laklarda 61,3% dan 58,6% gacha, murabbiylar xonasida 54,%-55,2%, qiz bolalar yechinish va kiyinish xonasida 54,8%-55,8% gacha, suzish basseynida esa 63,7%-77,5% gacha ekanligi aniqlandi. Aniqlangan ko'rsatkichlar gigiyenik talablarga javob berdi, bu basseynidan foydalanuvchilar salomatligiga xavf tug'dirmaydi, bu basseynni ekspluatatsiya qilishda sanitariya qoidalari va me'yorlariga qat'iy amal qilinayotganini ko'rsatadi.

Biz talabalar o'rtasida sport xususan suzish sporti bilan qay darajada shug'ullanishlari to'g'risida maxsus so'rovnoma o'tkazdik va quyidagi natijalarni oldik: so'rovnomada ishtirok etganlarning yosh bo'yicha tahlilida shu narsa aniqlandi: asosan 1998, 1999, 2000 va 2001 yillarda tug'ilganlar ko'pchilikni tashkil etdi (1998 yilda tug'ilganlar 19 ta qiz va 4 ta o'g'il bola, 1999 yilda esa 10 ta qiz va 6 ta o'g'il bola, 2000 yilda esa 12 ta qiz bola va 3 ta o'g'il bola). Millati bo'yicha quyidagilar aniqlandi; o'zbek millatiga mansub ishtirokchilar umumiy 99 ta (90%) bo'lib, ulardan 70 tasi qiz bolalar (70,7%) va 29 tasi o'g'il bolalarni (29,1%) tashkil etdi. Qizlar o'rtasida qoraqalpoq millatiga mansub qizlar 4 tani tashkil etib ular qizlar o'rtasida millatlar bo'yicha 2 o'rinda bo'ldilar. Qolganlarini kores, qozoq, tojik va turkman millatiga mansub ishtirokchilarni tashkil etdi. Ishtirok etganlarning oilaviy ahvoli tahlil qilinganda barcha ishtirokchilardan 15

nafari oilali (13,6%) qolgan 95 nafari esa (86,4%) oilasiz ekanligi aniqlandi. Ulardan 10 nafari qiz bolalar va 5 nafari esa o'g'il bolalarni tashkil etdi. Sportning qaysi turi va qachondan beri shug'ullanasan deb berilgan savolga ishtirokchilar quyidagicha javob berganlar; eng ko'p shug'ullaniladigan sport turiga stol tennisi (17ta) suzish (17ta), voleybol (16 ta) va yengil atletika (16 ta) turlarini ko'rsatganlar. Sportning boks va gimnastika turi bilan faqatgina bittadan ishtirokchi qatnashishini ko'rsatganlar. Qachondan beri sport bilan shug'ullanishi so'ralganda ko'pchilik ishtirokchilar 34 ta (30,9%) 3-5 yildan beri shug'ullanishlarini ko'rsatganlar, 35 ta ishtirokchi sportning xech qanday turi bilan shug'ullanmasliklarni qayd etganlar. Suzish sportiga ishtirokchilarning qay darajada qiziqishlari so'ralganda "Ha" deb 92 ta (83,6%) javob berganlar, ulardan 69 tasi (75%) qiz bolalar va 23 tasi (25%) o'g'il bolalarni tashkil etdi. Ushbu sport turiga qiziqmaydiganlarning umumiy soni 18 ta bo'lib, ulardan 14 tasi qiz bolalar va 4 tasi o'g'il bolalar ekanligi aniqlandi. Suzish sportiga eng ko'p qiziquvchilar va "Yo'q qiziqmayman" deb javob berganlarning ko'pchiligini qiz bolalarni tashkil etdi. Suzish sportining salomatlikdagi ahamiyati "Bor" yoki "Yo'q"ligi so'ralganda barcha ishtirokchilar "Bor" deb javob berganlar. Ishtirokchilarning salomatlik holati so'ralganda 17 ta ishtirokchi (15,45) allergik va oshqozon ichak kasalliklari bilan kasallanganliklarini qayd etganlar 50 ta ishtirokchi ushbu savolga javob bermagan. Suzish bilan shug'ullanishni xoxlaysizmi deb berilgan savolga 61 ta ishtirokchi (55,4%) "vaqti yo'qligi", 20 tasi (18,1%) "mablag' yo'qligi", 5 tasi (4,5%) ushbu sport turiga qiziqmasligi, 11 tasi suzishni bilmasligi va 13 tasi esa ushbu savolni javobsiz qoldirganlar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni qayd etish kerakki aholi ayniqsa yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va salomatlikni saqlashda suzishning ahamiyati borasida targ'ibot ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.


1. "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi, hamda 2004 yil 29 avgustdagi "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish chora –tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
- 2.ГОСТ 53491.1-2009 «Бассейны. Подготовка воды. Часть 1. Общие требования». –М.2009.г.
- 3.СанПиН 2.1.2.1188-03 "2.1.2. Проектирование, строительство и эксплуатация жилых зданий, предприятий коммунально-бытового обслуживания, учреждений образования, культуры, отдыха, спорта. Плавательные бассейны. Гигиенические требования к устройству, эксплуатации и качеству воды. Контроль качества". - М.: Мин. здрав. РФ, 2003. - 18 с.
4. Soatov U.A., Gadayev A.N., Boboyeva G.S. «Suv qabul qilish inshootlari». Samarqand 2005 y.
- 5.Храмов, В.А., Гиззатова, Г.Л. Мочевина как индикатор антропогенного загрязнения воды плавательных бассейнов// Издательство «Медицина» Гигиена и Санитария». - 2006, № 3. - с.3.

ICHIMLIK SUVINING SIFAT MONITORINGI NATIJALARI**Sherqo'ziyeva G.F.¹, Abduvaliyeva F.T.², Bekmuratova S.B.¹.****¹Toshkent tibbiyot akademiyasi****²Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti**

Hozirgi davrda suv ta'minotini ekologo-gigiyenik baholash, suv sifatini doimiy me'yorda saqlash mamlakatimizdagi dolzarb muammolardan biri sanaladi. O'zbekiston Respublikasida ichimlik suvi ta'minoti tizimini rivojlantirishga doir muhim dastur va loyihalar hayotga izchil tatbiq etilishi shahar va tumanlar, jumladan qishloq joylarda markazlashtirilgan suv ta'minoti holatini tubdan yaxshilash imkonini bermoqda. Markaziy Osiyo suv resurslarining yillik hajmi taqriban 116 km³ ni tashkil etadi va shuning 90 foizi ikkita yirik daryo tizimi: Amudaryo va Sirdaryodan hosil bo'ladi [2,3]. Mintaqadagi yer osti suvlari hajmi taxminan 43,49 km³ dir. Suv resurslarining 80 foizidan qishloq xo'jaligida foydalaniladi, deyarli 7 – 8 foizidan esa sanoatda, qolgan qismidan esa ro'zg'orda, xizmat ko'rsatish sohasida va boshqa maqsadlarda foydalaniladi. Mintaqada suvdan tejamay-tergamay foydalanishning ekologik oqibatlari nimalarga olib kelayotgani yaxshi ma'lum. Mintaqada aholining suv bilan ta'minlanganlik darajasi yiliga mavjud 2500 m² dan 1400 m² ga qisqaradi. Prezidentimizning 2020 yil 25 sentyabrdagi "Ichimlik suvi ta'minoti va oqava suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti yetib bormagan qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha mutlaqo yangi mexanizmi joriy etildi. Unga ko'ra, 2021 yildan boshlab qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida lokal ichimlik suv ta'minoti tizimlarini qurish loyihalari davlat ijtimoiy buyurtmalari asosida amalga oshirilishi yo'lga quyiladi. Markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti yetib bormagan qishloq aholi punktlarini 25 parametrlar bo'yicha o'rganildi. Xatlov va o'rganishlar natijasida 114 ta shahar va tumanlardagi suv ta'minoti, sanitariya holatini yaxshilashga muhtoj 1273 ta qishloq aholi punktlari ro'yxati shakllantirildi. Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining ekspertlari dunyodagi barcha kasalliklarning 80 foizi ifloslangan suv orqali yuqishini aniqladilar. Suvning kasallik tarqatuvchi mikroorganizmlar bilan zararlanishi qorin tifi, dizenteriya, vabo, virusli gepatitning A turi kabi bir qator yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Qorin tifi suv orqali tarqalishi asosan ochiq markazlashtirilmagan va markazlashtirilgan suv tarmoqlarini bakterial ifloslanishi bilan bog'liq. Shu bilan bir vaqtda sifatsiz suv iste'moli aholi o'rtasida yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni uchrash darajasini keskin ortishiga olib keladi. JSST bergan ma'lumotlarga ko'ra yer yuzining 3 mlrd aholisi sifatsiz suvni iste'mol qilmoqda. Yer yuzi aholisida uchraydigan kasalliklarni 2 ming dan ortiq turi aynan sifatsiz suv iste'moli bilan bog'liqdir. Xuddi shu sabab bilan dunyoning 25% aholisi sifatsiz suv iste'moli sababli turli kasalliklarga uchraydi, yer yuzi aholisining har o'ninchisi kasallanadi, har yili deyarli 4 million bolalar va 18 million kattalar aynan sifatsiz suv iste'moli turli kasalliklardan vafot etadilar. Shu narsa aniqlandiki, 100 nafar onkologik kasalliklarning 20 dan 35 nafari aynan xlorlangan


ichimlik suvini iste'mol qilish oqibatida kelib chiqadi. Yuqumli bo'lmagan kasalliklarni kelib chiqishida suv tarkibidagi kimyoviy moddalarga bog'liq bo'lib, makroelementlar (natriy, kaliy, kaltsiy va boshqalar) va mikroelementlarga ham bog'liq. Hozirda suv tarkibida 65 ta mikroelementlar (temir, mis, rux, ftor, yod va boshqalar) aniqlangan. Suv inson organizmida muhim ahamiyatga ega. Suvsiz inson organizmida birota ham biokimyoviy, fiziologik va fizik-kimyoviy jarayon amalga oshmaydi. Ovqat hazm qilishi, nafas olish, anabolizm, katabolizm, oqsillar, yog'lar, uglevodlarni sintezi amalga oshmaydi. Suvning bunday ahamiyati uning ideal erituvchi ekanligi bilan bevosita bog'liqdir. Aynan shuning uchun suv so'rilish, tashish, parchalash, oksidlash, gidroliz, sintez, osmos, diffuziya, rezorbtsiya, filtratsiya, ayirish kabi hayotiy muhim jarayonlarning barchasida bevosita va bilvosita ishtirok etadi. Suv yordamida inson organizmiga plastik moddalar, biologik faol birikmalar kelib tushadi, modda almashinuvi natijasida hosil bo'lgan moddalar esa ajralib chiqariladi. Suv tirik plazmani kolloid holatini saqlash imkonini beradi. Suv va unda erigan mineral moddalar organizmning muhim biologik konstantasini – to'qimalar hamda qonning osmotik bosimini qo'llab quvvatlaydi. Suvni katta miqdorda yo'qotilishi katta miqdordagi makro va mikroelementlarni chiqarib yuborilishi, vitaminlarni yo'qotilishi bilan kechadi, bunda salbiy holat yuzaga kelib, inson hayoti xavf ostida qoladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz vodoprovod suvi ichimlik suvi sifatining ekologo-gigiyenik baholashni maqsad qilib oldik.

2017-2019 yillar davomida biz tuman aholisiga berilayotga ichimlik suvining sanitar – kimyoviy jihatdan gigiyenik talablarga qay darajada javob berayotganligini retrospektiv tahlil qildik va quyidagi natijalarni oldik: 2017 yilda suv ta'minoti ma'nbasidan umumiy namunalar soni 107 ta bo'lib, ulardan 90 tasi, ya'ni 84,1% gigiyenik me'yorlarga mos kelmagan, xuddi shunday tahlillar kommunal xo'jalik vodoprovodlardan ham olingan bo'lib, 162 ta namunadan 51 tasi, idoraviy vodoprovoddan olingan namunalarning umumiy soni esa 371 ta bo'lib, ulardan 2 tasi gigiyenik talablarga javob bermagan.(1-rasm)



1-rasm.

2018 yilda suv ta'minoti manbasidan umumiy namunalar soni 94 ta bo'lib, ulardan 75 tasi, ya'ni 79,7% gigiyenik me'yorlarga mos kelmagan, xuddi shunday tahlillar kommunal xo'jalik vodoprovodlardan ham olingan bo'lib, 157 ta namunadan 32 tasi (20,3%), idoraviy vodoprovoddan olingan namunalarning umumiy soni esa 458 ta bo'lib, ulardan 71(15,5%) tasi quduq suvidan esa 180 tadan 179 tasi (99,4%) gigiyenik talablarga javob bermagan.(2 rasm)




2-rasm.

Yillar dinamikasida olingan barcha namunalarda biz quruq qoldiq, xloridlar, sulfatlar, umumiy qattqlikning minimal va maksimal ko'rsatkichlarini aniqladik va quyidagi natijalarni oldik. Shuning uchun biz tuman aholisiga berilayotgan suv tarkibidagi quruq qoldiq miqdorini yillar dinamikasida olingan natijalarni retrospektiv tahlil qildik va quyidagi natijalarni oldik: 2017 yil quruq qoldiqni tekshirish uchun umumiy namunalar soni 640 ta bo'lib, ulardan 92 tasi (14,3%), 2018 esa umumiy namunalar soni 709 ta bo'lib, ulardan 69 tasi (9,7%), 2019 yil umumiy namunalar soni 983 ta bo'lib, ulardan 68 tasi (6,93%), gigiyenik talablarga javob bermagan. Ichimlik suvining qattqligini laboratoriya tekshirishdan o'tkazdik va quyidagi natijalarni oldik: 2017 yil vodoprovod suvdan olingan umumiy namunalar soni 640 ta bo'lib, ulardan 48 (7,5%) ta, 2018 yilda vodoprovod suvdan olingan umumiy namunalar soni 709 ta, ulardan 75 (10,5%) ida, 2019 yil vodoprovod suvdan olingan umumiy namunalar soni 983 ta bo'lib, ulardan 68 (6,9%) ida, umumiy qattqlik bo'yicha gigiyenik talablarga javob bermagan.


2017-2019 yillar davomida tuman aholisi foydalanilayotgan quduq suvlarini sanitar – kimyoviy jihatdan gigiyenik talablarga qay darajada javob berayotganligini retrospektiv tahlil qildik va quyidagi natijalarni oldik: 2017 yil quruq qoldiqni tekshirish uchun umumiy namunalar soni 148 ta bo'lib, ulardan 67 tasi (45,2%), 2018 esa umumiy namunalar soni 180 ta bo'lib, ulardan 98 tasi

(54,4%), 2019 yil umumiy namunalar soni 378 ta bo'lib, ulardan 20 tasi (5,21) gigiyenik talablarga javob bermagan.(3 rasm)




3-rasm.

Suvning qattiqligi me'yordan yuqori bo'lsa, aholi o'rtasida buyrak tosh kasalliklari ko'payishga sabab bo'ladi. Shu bilan birga suvning qattiqligi nafaqat salomatlikka balki maishiy sharoitlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, xususan kir oqliklarni yuvishda, suv qaynatgan idishlarning tub qismida cho'kmalar hosil bo'lishi mumkin. Shu sababli biz tuman aholisiga berilayotgan ichimlik suvining qattiqligini laboratoriya tekshirishdan o'tkazdik va quyidagi natijalarni oldik: 2017 yil quduq suvdan olingan umumiy namunalar soni 148 ta bo'lib, ulardan 148 tasini hammasi, ya'ni barcha olingan namunalarda umumiy qattqlik me'yordan yuqori ekanligi aniqlandi. 2018 yilda quduq suvdan olingan umumiy namunalar soni 180 ta, ulardan 277 (73,2%)ida, qattqlik darajasi gigiyenik talablarga mos kelmadi (4 rasm).




4-rasm.

Ochiq suv ta'minoti manbalariga nisbatan yer osti suvi tarkibida xloridlar bir muncha ko'p miqdorda saqlanadi. Agarda iste'mol qilinayotgan ichimlik suvi tarkibida xloridlar miqdori gigiyenik me'yorlardan yuqori bo'lsa u holda aholi o'rtasida yurak qon tomir kasalliklari ko'payadi, gipertenziv holatlar soni oshadi, qon tomirlarining faolligi oshadi. Inson organizmida o't-tosh kasalligi yuzaga keladi, ovqat hazm qilish jarayoni yomonlashadi va buyraklarga ortiqcha yuklama tushadi. Shu bilan birga suv o'tlarining rivojlanishi va o'sishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xloridlar nafaqat inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatib qolmay balki sanitariya turmush sharoitlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi: ya'ni quvurlarning korroziyaga uchrash intensivligi oshadi, maishiy asbob uskunalarga agressiv ta'sir ko'rsatadi. 2017 yilgi kuzatuv natijalarida quyidagilar aniqlandi: xloridlarga quduqlardan 148 ta namuna olingan ulardan barchasi, 2018 yilgi kuzatuv natijalarida quyidagilar aniqlandi: xloridlarga quduqlardan esa 180 ta namuna 116tasi (64,4%) gigiyenik talablarga javob bermagan. 2019 yilda esa 379 ta namuna olingan ulardan 20 tasi (51,2%) gigiyenik talablarga javob bermagan.(5 rasm)




5-rasm.

Agarda ichimlik suvi tarkibida sulfatlar 1-2 grammdan ko'p bo'lsa inson organizmiga bo'shashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Sulfatlar va xloridlar ichimlik suvida bir vaqtda uchraydi, shuning uchun ular organizmning ta'm berish retseptorlariga kombinatsiyalashgan ta'sir ko'rsatadilar, shu sababli biz aholiga berilayotgan suv tarkibidagi sulfatlar miqdorini aniqladik va quyidagi natijalarni oldik: 2017 yili sulfatlarga suvidan 148 namunalar olingan bo'lib, ulardan 86 tasi (58,1%), 2018 yilda esa suvdan 180 ta namunalar olingan bo'lib, ulardan 98tasi (54,4%), 2019 yilda 378ta namunalar olingan bo'lib, ulardan 20 tasi (5,2%) gigiyenik talablarga javob bermagan (6 rasm).



6-rasm.

Suvning rangdorligi organoleptik xossalarga kirib, inson sezgi organlari orqali biladi, shuning uchun o'zga rangdagi suvni har qanday inson iste'mol qilmaydi va o'z chanqog'ini qondira olmaydi. Quduq suvlarining rangdorligini biz retrospektiv tahlil qildik va quyidagi natijalarni oldik: 2017 yili suvning rangdorligiga quduq suvidan 148 ta namunalar olingan bo'lib, ulardan 76 tasi, (51,3%), 2018 yilda esa quduq suvidan 180 ta namunalar olingan bo'lib, ulardan 95 tasi (52,7%), 2019 yilda quduq suvidan 378 ta namunalar olingan bo'lib, ulardan 2 tasi (0,5%) gigiyenik talablarga javob bermagan (7 rasm).



7-rasm.

Quduq suvlari loyqaligi jihatdan ochiq suv manbalaridagi suvlarga nisbatan birmuncha yaxshi bo'ladi. Suvning loyqaligi insonda yoqimsizlik xissini keltirib chiqaradi. Suvning loyqaligi uning organik va noorganik moddalar bilan

ifloslanishdan dalolat beradi. Shu bilan birga suvning loyqaligi suvning tozalash inshootlarining ish samaradorligini belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi. 2017 yili suvning rangdorligiga quduq suvidan 148 ta namunalar olingan bo'lib, ulardan 76 tasi, (51,9%), 2018 yilda esa quduq suvidan 180 ta namunalar olingan bo'lib, ulardan 84tasi (46,0%), 2019 yilda quduq suvidan 378 ta namunalar olingan bo'lib, ulardan 2tasi (0,5%) gigiyenik talablarga javob bermagan.

Yuqorida olingan natijalar bo'yicha quyidagilarni xulosa qilish mumkin: tuman aholisiga berilayotgan xo'jalik ichimlik suvi DavST 950-2011 "Ichimlik suvi" talablari bo'yicha sulfatlar va xloridlar miqdori bo'yicha gigiyenik talablarga javob bermaydigan namunalar aniqlandi shu bilan birga quduq suvlari qattiqligi bo'yicha ham gigiyenik me'yorlardan yuqoriligi aniqlandi. Olingan natijalar tahlili aholining suvning sifatiga bog'liq bo'lgan salomatligini saqlashda muhim rol o'ynaydi, profilaktik chora tadbirlar ishlab chiqishga ilmiy asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish va uning sifatini yaxshilash uchun O'zbekiston Respublikasining suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida Farmoni.

2. Донаев А.М. Современные научно-практические подходы к решению санитарно-гигиенических проблем развития хозяйственно-питьевого водоснабжения и улучшения условий водопользования населения Узбекистана. -Ташкент, 2004 г.

3. Salomova F.I., Choi Jey Vuk, Kim Kyun Xeye, Iskandarova G.T., Sadullayeva X.A., Sharipova S.A. Atrof muhit gigiyenasi va inson salomatligi. Darslik. Tashkent.-TMA.-2019.-327 bet

4. Sherqo'zieva G.F., Isroilova G.M., Tillaeva Sh.O., Holboyev M.T. Toza ichimlik suviga ehtiyoj ortmoqda Salomat bo'ling. Tibbiy, ilmiy ommabop jurnal. Toshkent. 2019y. 7 bet

5. Шеркузиева Г.Ф., Каримжонов А., Мустанов Гигиеническая оценка качества питьевой воды. Журнал «Молодой ученый» Научный журнал, 2016г., № 10 Часть V, (552-555 стр.).

MILLIY G'OYA TARG'IBOTI VA YOSHLAR MUSTAQIL

TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH

Egamnazarov A.I, Imomnazarova D.A

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

XXI asrda xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotganligi, murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarning hayotga ongli munosabatlarini shakllantirish, yon-atrofimizda yuz berayotgan voqealarga dahldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoysishta

hayotimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimiz dunyo miqyosida aholisi eng yosh davlatlardan hisoblanadi. 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar umumiy aholining 40 % , 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 64 foizini tashkil etishi bu fikrni tasdiqlab turibdi. Yoshlar aholining shunday katta qismini tashkil qiladigan mamlakatimizda yuksak taraqqiyot yo‘lidagi ishlarni amalga oshirish, tabiiyki, ko‘proq yoshlar zimmasiga tushadi.

Ma‘lumki, yoshlar dunyoqarashiga, ma‘naviyatiga tahdidlar va ulardan o‘zini himoya qilish ko‘nikmalari ta‘lim-tarbiya, bobo-momolar o‘giti, ota-onalar ibrati, ezgulik va yovuzlikni ajrata bilish jarayonida shakllanadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, keyingi yillarda ayrim yoshlarda millatga, Vatanga foyda keltirishni o‘ylash, istiqlolni mustahkamlashda foydali inson bo‘lib yetishish hissi maxsus, ilmiy asosda shakllantirilmayotganligi tufayli xudbinlik, yengil yo‘llar orqali to‘kis hayotga intilish kabi holatlar namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga ayrim fuqarolar orasida ma‘naviy cheklanganlik, dunyoqarashning torligi, milliy odob me‘yorlariga rioya qilmaslik, so‘z va ish orasidagi nomutanosiblik, milliy g‘urning sustligi ichki va tashqi ma‘naviy tahdidlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Bular sirasiga o‘z Vatani va vatandoshlariga zarar yetkazishga qaratilgan g‘oya, fikr, xatti-harakatlar – nosog‘lom mahalliychilik, yurtdoshlar haqqiga xiyonat, odamlarni tabaqalashtirish, korrupsiya, mol-mulkka xirs qo‘yish, befarqlik, loqaydlik va shu kabi illatlarni kiritishimiz mumkin¹.

Yoshlar, ayniqsa, talaba yoshlar o‘zlarining ijtimoiy-ruhiy va boshqa jihatlariga ko‘ra ko‘pincha salbiy hodisalarga tez beriluvchanlik, jamiyatdagi o‘zgaruvchan sharoitga moslashish qobiliyatlarining yuqoriligi bilan ajralib turadilar. Ular o‘tkir xissiy bilish qobiliyatiga ega bo‘lib, so‘z va amaliyotning nomutanosib holatlarini kuchliroq sezadilar. Kattalar uchun odatiy bo‘lgan ayrim “adolatsizlik”lar ularning hali shakllanmagan ongi, dunyoqarashiga salbiy ta‘sir etishi mumkin. Oqibatda ular asosiy masalani ikkinchi darajalisidan ajrata olmaydigan bo‘lib qoladilar. Haqiqatga mos kelmaydigan, real voqelikdan, borliqdan, xalq hayotidan, kundalik turmushdan ajralib qolgan ma‘ruza, suhbat, muloqot, uchrashuvlar qanchalik jozibador bo‘lmasin o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob ololmas ekanlar, bunday ma‘rifiy foyda emas, aksincha, zarar keltirib qo‘yishligi ham mumkin. Keyinchalik ular bunday o‘tkazilayotgan tadbirlardan qochadigan bo‘lib qoladilar. Tarixchi Fransua Mishle so‘zi bilan aytganda, “kimki faqat hozirgi zamoni maqtayversa, u hech qachon kelajakni tushunmaydi. Shuning uchun “bu masala haqida chuqurroq o‘ylab ko‘radigan bo‘lsak, shu tamoyillarga tayangan jamiyatning o‘ziga xos ijtimoiy shakl-shamoyili, uning qiyofasi, rivojlanish yo‘llari, ustuvor xususiyatlari to‘g‘risidagi aniq tasavvur turli fikrlar, bahs-munozaralar orqaligina ayon bo‘lishini e‘tirof

¹ Исақов Б. Зиёлилик масъулияти. Т.: “Маънавият”, 2008, 26-бет.

etishimiz va buni o'zimizga mezon qilib olishimiz zarur. Urra-urrachilik, yashasinchilik kayfiyati, bugungi siyosatni orqa-oldiga qaramay faqat maqtash bilan hech narsani xal qilib bo'lmaydi, birorta muammo ham yechilmaydi"¹.

Keyingi yillarda informatsion tahdid va xurujlar kuchayib borishi xususiyatlaridan biri informatsion urushlarning g'oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan chirmashib borayotganligidadir. Bu urushning zarari ommaviy qirg'in qurollarining zararidan aslo kam emasdir.

Shuning uchun yurtimizga qarshi qaratilgan g'oyaviy, axborot xurujlari, ularning ortida turgan kuchlarning g'arazli maqsadlarini fosh etish, odamlarni xushyorlik va ogohlikka da'vat etish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirishga alohida e'tibor qaratish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli ko'rinishdagi xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni xushyor va ogoh bo'lishga, ayniqsa, bu jarayonlarning kelib chiqish sabablarini o'rganish va ularga qarshi kurashish yoki immunitetni shakllantirish zaruriyati tug'iladi.

Yoshlarning intellektual rivojlanishi, o'z shaxsiy fikriga ega bo'lishi va erkin muloxaza yuritishlariga erishish, g'oyaviy sog'lom, yot va zararli g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni tarbiyalash, turli aqidaparastlar bilan asosli va tanqidiy munozara olib borish qobiliyatini shakllanirishga erishish lozim.

Yoshlarimizga turli ommaviy axborot vositalari orqali mafkuraviy tahdidlarning o'tkazishga urinayotgan "ekstremizm", "diniy ekstremizm", "terrorizm", "ommaviy madaniyat", "jihot", "vahiy" va boshqa tushunchalar yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir etayotganligini ham unutmashimiz zarur.

Shuning uchun ham huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yoshlarda shakllantirish ayniqsa eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. ongiga singdirish "qadriyat", "milliy qadriyat", "diniy qadriyat", "ilmiy qadriyat", "axloqiy qadriyat" "ma'naviy qadriyat", "vatanparvarlik" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini singdirish bilan bir qatorda, yoshlarda mantiqiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qolaversa, mamlakatimiz yoshlarning mustaqil fikrlashi qobiliyatini o'stirish masalasiga davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan ijtimoiy fanlar, shu jumladan, mantiq ilmi ham alohida rol o'ynaydi. Binobarin, "komil inson deganda biz, avvalo, o'zgalarga ibrat bo'ladigan

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2000, 489-б.

bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz... O'z fikri-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi"².

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda quyidagilarni tavsiya etamiz: Xalqimiz, avvalambor, yosh avlodimiz ma'naviy olamining daxlsizligini asrash uchun:

- tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ochiq va xushyor bo'lib yashashimiz kerak;
- bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta, ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya shakllari va vositalari zarur;
- mantiq fanining o'qitilishiga alohida ahamiyat qaratish, unga ajratilgan o'quv soatlarini ko'paytirish;
- mantiq fanini o'qitishda pedagogik kadrlarning mutaxassisligi, bilimi, tajribasiga e'tibor berish;
- pedagogik kadrlarning mantiqiy bilim malakasini oshirish;
- mantiqiy tafakkurni tarbiyalaydigan mantiqiy o'yinlarni tashkillashtirish va h.k.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -Toshkent. "Sharq", 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent. "Sharq", 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. : O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T.: O'zbekiston, 2017.
5. Egamnazarov A., Mantiq., Farg'ona, 2009.

MAKTABLARDA BOSHLANG'ICH SINFLARNING DARS JADVALI TUZILISHINI GIGIENIK TAHLILI Ermatov N., Djolimbetov K. Toshkent Tibbiyot akademiyasi

Zamonaviy maktablarda o'quvchilarning kun tartibini gigienik talablar asosida tashkillashtirish, ularning o'sish va rivojlanishini gormonikligini ta'minlash bilan birgalikda salomatlik holatini yaxshilash, yuqori ishlash qobiliyatini ta'minlashning asosiy omillardan biri hisoblanib, uning gigienik talablar mos kelmasligi esa, nafaqat ishlash qobiliyatining izdan chiqishi, turli somatik va yuqumli kasalliklarning rivojlanishiga zamin yaratishi qator olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida qayt etilgan. Gigienik talablarga mos keladigano'quv jarayoni va dars jadvali maktab o'quvchilari samarali faoliyatini ta'minlaydigan, statitik va dinamik charchashni oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlardan biridir.

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Тошкент. "Шарқ", 1998, 6-бет.

Ishimizning maqsadi maktabdagi o'quv jarayonini tashkillashtirilishi va dars jadvalini gigienik tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning material va usullari. Qoraqolpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanidagi 1-sonli maktabda mehnat ta'lim darslarning tashkillashtirilishi va uning o'quvchilar organizmiga ta'siri gigienik baholadi. Olingan natijalar SanNaQ 0341-2016«Umumta'lim maktablarida ta'lim tarbiya sharoitini tashkillashtirishning sanitar-epidemiologik talablari» asosida amalga oshirildi.

Boshlang'ich sinflarda, 1A sinfda maktabda o'qish 5 kunlik bo'lib, dushanba kuniga 5 ta dars qo'yilgan, gigienik talablarga mos keladi, 1 B-sinfda esa juma kuni birinchi soatga matematika qo'yilishi mumkin emas, Biroq, matematika har kuni bo'lgani uchun uning joylashtirilishiga e'tibor qaratiladi. 2-A-sinflarning dars jadvalida dushanba kuni birinchi soatga rus tili, 4 soatga o'zbek tili qo'yilgan bu noto'g'ri, seyshanba kuniga birinchi soatga ona tili, 5 soatga chet tili, chorshanba kuni birinchi soatga matematika, 2-B sinfda esa dushanba-payshanba kunlari birinchi soatga ona tili va o'qish, shanba kuni matematika, dushanba, seyshanba va chorshanba kunlari rus va o'zbek tili, ona tili va o'qish darslari 5 soatga qo'yilgan bo'lib, gigienik talablarga mos kelmaydi.

3-sinflarda dushanba kuni 1 va 3 soatlarga ona tili va o'qish qo'yilgan bo'lsa, 2 soatga rus tili, 5 soatga o'zbek tili qo'yilgan bo'lib, murakkablik daradasi 64 ballni tashkil qilgan.

4- A-sinfda esa shunday holat dushanba kuni qaytarilgan. Qolgan kunlarda ham 5-kunlik o'qish hisobiga dars jadvali qator kamchilliklarga yo'l qo'yilgan. Mehnat ta'lim darslari tabiiy fanlar hisobiga kiritilgan, hamda san'at fani bilan almashtirilgan.

Ta'kiddash joizki, boshlang'ich sinflarning dars jadvali gigienik talablarga mos kelmaydi, Ushbu holat o'quvchilarning yuqori ishlash qobiliyati, organizmning morfo-funksional holatini me'yoriy darajasini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biridir.

Gigienik talablar asosida tashkillashtirilgan dars jadvali maktab o'quvchilarning kun tartibini to'g'ri tashkillashtirish, yuqori ishlash qobiliyatini ta'minlash, berilgan topshiriqlarni yuqori darajada o'zlashtirishning eng asosiy zamin bo'lib, nafaqat salomatlik holati, balkim ularning jismoniy va aqliy rivojlanishni gormoniklik holatni ta'minlaydi.

O'ZBEKISTONDA VIJDON ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABATLAR

Qosimov K.I., Siddiqova R.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya. Maqolada dinning ma'naviy-ijtimoiy hodisa sifatidagi ahamiyati hamda uning barkamol avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashdagi o'ziga hos o'rnini yoritishga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lib, respublikamiz Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida uning fan sifatida o'qitilishi ham tahlil ob'ektiga olingan.

Tayanch iboralar: *Din, diniy tashkilotlar, konfessiyalar, qonunchilikdagi huquqiy asoslar, cherkov, monastir, sinagoga.*

Din ma'naviy-ijtimoiy hodisa bo'lib, insoniyat tomonidan voqelikni anglashning o'ziga xos usullaridan biri hisoblanadi. Voqelikdagi narsa va hodisalarning rivoji masalasi uning ichki mohiyatida emas, balki ilohiy kuchlar ta'siri – Olohning qudrati, irodasi sifatida talqin etiluvchi o'ziga hos dunyoqarash, e'tiqod shaklidir. Uning o'ziga hosligi, jozibadorligi shundaki, inson tomonidan amal qilinishi lozim bo'lgan ahloqiy me'yorlar, ko'rsatmalar oddiy kishilarning ruhiyatiga moslashtirilib, ularning hissiyoti, tafakkuriga benihoya ta'siri o'laroq minglab yillardan buyon o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shu bois ham hozirgi kunda juda ko'plab rivojlangan davlatlar, ulardagi siyosiy partiyalar yoki har qanday yetakchi kuchlar ham dindorlar, diniy tashkilotlar bilan hamjihatlikda faoliyat olib borishi sir emas.

Mamlakatimiz ichki va tashqi siyosatida ham dinni o'tmish va hozirgi kunimizning, madaniyatimizning bir qismi sifatida e'tirof etilib, uni ezgulikka, tinch, insoniy hayot va eng ulug' maqsadlar yo'lida birlashtiruvchilik kabi xususiyatlarini inobatga olgan holda qonunchiligimizda uni himoya qiluvchi huquqiy asos yaratilganidir. Bu avvalo, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi", "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun (yangi tahrir, 2021 yil, Toshkent), "O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida" (1998 y. 20 iyun, 263-son), "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida" (2004 y. 23 aprel, 196-son), "Diniy ta'lim muassasalarining faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" (2004 yil. 1 mart, 99-son) kabi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va qonun hujjatlarida o'z aksini topganidir". (Internet sayti. andijon.adliya.uz.)

O'zbekiston Respublikasida din va diniy faoliyat olib borish uchun keng imkoniyat va sharoitlar yaratilgan bo'lib ularni muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita zimmasida, uning vazifasi:

- Davlat organlari bilan respublika hududida joylashgan diniy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro aloqa va hamkorlikni ta'minlash;
- Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan diniy tashkilotlar manfaatlarini himoya qilish;
- Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq diniy masalalarni hal etishda yagona siyosatni amalga oshirish;
- Fuqarolarning dinga bo'lgan munosabatidan qat'iy nazar ularning huquqlari tengligini ta'minlash kabi masalalardir.

Din ishlari bo'yicha qo'mita – davlat boshqaruv organi hisoblanib diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq masalalarni ham hal etish vakolatiga ega. Diniy tashkilotlarga nimalar kiradi, ular: diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, monastir va sinagogalardir. Diniy tashkilotlar odatda, e'tiqod-ibodat qilish, marosimlar va rasm-rusmlarni birgalikda ado etish maqsadida tuziladi. Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, odatda bu kabi tashkilotlar 18 yoshga to'lgan, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan kamida yuz nafardan kam bo'lmagan fuqarolari tashabbusi bilan tuziladi. So'ngra O'zbekiston

Respublikasi Adliya vazirligida yoki uning joylardagi organlarida ro'yxatdan o'tkazilib yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

Lekin, hozirda chekka hududlarda hujralar tashkil etish, yakka, xususiy tartibda diniy ilm o'rgatish bilan shug'ullanish kabi holatlarga ham duch kelinmoqdaki bunga qonunchiligimizda ruxsat etilmagan. Diniy ilmlar diniy o'quv (oliy va o'rta) yurtlarida amalga oshiriladi. Diniy tashkilotlar o'zlari uchun diniy xodimlar tayyorlash maqsadida diniy o'quv yurtlari tuzish huquqiga ega va bu kabi o'quv yurtlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilib, tegishli litsenziya olgach o'z faoliyatini yuritish huquqiga ega bo'ladi. Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Toshkent Islom akademiyasi fikrimizning yorqin misolidir. Hozirda respublikamizda 16 ta diniy konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat yuritayotgan bo'lib, "... ikki mingdan ziyod diniy tashkilot, shu jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Qoraqalpog'iston Musulmonlari idorasi, Qoraqalpog'iston Musulmonlari qoziyati, Toshkent Islom akademiyasi, 10 ta madrasa, 2003 ta masjid, Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo Yeparxiyasi, Pravoslav seminariyasi, Rim katolik cherkovi, Yevangel xristian baptistlar cherkovlari ittifoqi, to'liq Injil xristianlar markazi, Xristian seminariyasi, O'zbekiston Bibliya jamiyati, 162 ta xristian cherkovi, 8 ta yaxudiy va 8 ta bahriy jamoasi, 1 ta Krishnani anglash jamiyati, 1 ta buddist ibodatxonasi davlat ro'yxatidan o'tgan"³. Albatta, ularning diniy marosim va tadbirlarini olib borishlari uchun mamlakatimizda barcha sharoitlar yaratilib berilgandir.

Dunyodagi barcha dinlar o'z mohiyatiga ko'ra ezgulik g'oyasini ilgari suradi, insonlarni bu dunyodagi hayoti davomida halollik, poklik, birodarlik va mehr-shafqatlilikka da'vat etadi. Ya'ni, qalbida buyuk Yaratguvchini teran anglab yetgan va uning da'vatlariga so'zsiz itoat etuvchi insondan hech qanday yomonlik va yovuzlikni kutib bo'lmaydi. Buni to'liq tushunib yetgan barcha rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida fuqarolarning o'z dinini o'rganishga nisbatan atroflicha yondashuv mavjud ekanligini inkor etmaslik lozim.

Savol tug'iladi, o'rta maktabni bitirib diniy ilm muassasasiga ham, hech qaysi Oliy o'quv yurtiga ham o'qishga kira olmagan oddiy fuqaro – aksariyat yoshlarimiz diniy ilmlarga bo'lgan ehtiyojini qanday to'ldiradi, axir hamma ham birday masjidlarga, cherkov yoki sinagogalarga qatnay olmaydi-ku? Yoki, endigina namoz o'qishni boshlagan aksariyat yoshlarda nima uchun Halifalik davriga qaytish istagi to'satdan paydo bo'lib qolmoqda?

Keyingi yillarda ta'lim tizimimizda ro'y bergan bir qancha o'zgarishlar yuqoridagi kabi savollarga ozgina oydinlik kiritishiga yordam beradi deya umid bildiramiz. Ya'ni, hozirgi kunda o'rta maktablarda ham "Dinshunoslik" fani o'quv dasturiga kiritilgan bo'lib o'quvchilarga bu borada ilm berilmoqda. Lekin, dars berish jarayoni, o'qituvchilar bilimi, saviyasi talab darajasidami, o'tgan o'quv yilida viloyatimizning bir qancha tumanlarida aynan, "Dinshunoslik" fani o'qituvchilariga mo'ljallangan tadbirda ishtirok etish jarayonida auditoriyadagi 28 nafar maktab o'qituvchilarining bir ovozdan tan olib: - "Biz tarixchilarmiz, dinlar tarixinigina bilamiz, dinlar mohiyati, ulardagi o'quvchilar tomonidan beriladigan

³Маънавият. Асосий тушунчалар изоҳли луғати. Т. 2010 й. 141 бет.

nozik savollarga deyarli javob bera olmaymiz” – kabi iqrorlari masalani jiddiyroq o‘ylashga undaydi. Oliy o‘quv yurtlarida esa o‘tgan o‘quv yilidan boshlab “Ma’naviyat asoslari. Dinshunoslik” o‘quv fani tugatilib, o‘rniga “Dinshunoslik” faniga tegishli bir nechtagina mavzular Falsafa fani tarkibiga kiritilgan. “Namunaviy reja”ga muvofiq dinshunoslikka tegishli mavzularning aksariyati dinlar tarixiga oid bo‘lsa, qolgani diniy ekstremizmga oid mavzulardir.

Fikrimizcha, bu kabi fanlarni o‘qitishga kengroq soatlar ajratilib undagi o‘ta nozik masalalarni oliy darajada tahlil eta oladigan, Respublikaning obro‘li o‘quv maskani – Islom akademiyasi bitiruvchilariga berish zarur. Nima uchun maktab o‘quvchisi va Oliy o‘quv yurti talabasi har juma kunlari o‘z o‘quv dargohini tashlab masjidlarga ketib qoladi, chunki masjid imomining qiroat bilan o‘qilgan Qur‘on tilovatida dilni qitiqlovchi joziba, ohangrabo bor, hayollaridagi ko‘plab savollariga diniy ulamolarda javob bor.

Yana shuni ham aytib o‘tish kerakki, hozirgi zamon yoshlari qandaydir hujralarga qatnashning o‘ta xavfli ekanligini yaxshi biladi, biroq, achinarlisi ularning bu kabi hujralar domiga Internet tarmoqlarida ham qo‘lga tushib qolayotganligi hech kimga sir emas. Yoshlarimizning Suriya ilinjida yo‘lga otlanib mamlakatimiz yoki Turkiya chegaralarida qo‘lga tushayotganligi haqida ommaviy axborot vositalarida ham o‘qib eshitayotibmiz-ku, yohud chet ellarda ishlab yurgan yoshlarimiz ongidagi g‘oyaviy bo‘shliqni qay yo‘sinda to‘ldirish, mafkuraviy immunitetini oshirish mumkin?! Ehtimol, maktab partalarida dunyoviy ilmlar bilan birga diniy ilmlarni ham bir xilda berib borish orqali bu bo‘shliqni to‘ldirish mumkindir...

Modomiki, ertangi kunimiz, yurtimizni tinch, osmonimizni esa yanada musaffo bo‘lib qolishligini doimo xohlar ekanmiz, kelajagimiz bunyodkorlari bo‘lgan yoshlarimizni ma’naviy qadriyatlarimizning asosini tashkil etuvchi diniy ilmni egallashlariga ham alohida e‘tibor qaratishimiz zarur. Mana shunda tinchlik va osoyishtaligimizga rahna soluvchi yot, buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitet yanada to‘kis va mukammal ko‘rinish hosil qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkin-ki, mamlakatimiz olib borayotgan siyosatida din masalasiga nisbatan erkin - demokratik yondoshuv mavjud, buni – “Vijdon erkinligi va Diniy munosabatlar to‘g‘risida”gi qonun, ya’ni fuqarolarning har qanday dinga e‘tiqod qilishlari yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik haqidagi kafolatlangan konstitutsiyaviy huquq ham tasdiqlaydi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Ma’naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. T. 2010 y.
3. Internet sayti.andijon.adliya.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida.(yangi tahrir).

СОДЕРЖАНИЕ

№	Название научной статьи, ФИО авторов	Страница
1	KEKSA INSONLAR ORGANIZMIDA RUHIY VA FIZIOLOGIK SILJISHLARNING KELIB CHIQUISH SABABLARINI O'RGANIB TAHLIL QILISH Abdukadirova L.K., Muxidinova Sh.B.	3
2	“COVID-19” KASALLIGIGA TASHXIS QO'YISHDA KOMP'YUTER TOMOGRAFIYA USULI QO'LLANISHI VA GIGIENIK BAXOLASH Abdukadirova L.K., Xalmuratov B.Z., Tursynbaev A.A.	7
3	ANALYSIS OF THE ALCOHOL DRINKING BEHAVIOR AND INFLUENCING FACTORS AMONG ADULTS (MEN) Avezova G.S.	7
4	SALOMATLIK UCHUN SUVNING AHAMIYATI Atadjanova D.Sh., Soliyev B.	12
5	VITAMINLARNING SALOMATLIK UCHUN AHAMIYATI Atadjanova D.Sh., Soliyeva D.B.	13
6	JAMOA SALOMATLIGI SAQLASHDA ISHLAB CHIQUARISH SANITARIYASI AHAMIYATI Axmadaliyev R.U., Umaraliyev Sh.R.	14
7	YURAK QON – TOMIR PROTEZLARI TURLARI VA ISHLAB CHIQUARILADIGAN MATERIALLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR Axmadaliyeva G., Qosimova G.	15
8	OSHQOZON-ICHAK TIZIMI KASALLIKLARI, TABIIY DAVOLASH USULLARI VA UNING PROFILAKTIKASI Axunjonova H.A., Valiyev A.L., Turg'unboyev F.A.	17
9	DISEASE WITH POSTCOVID GASTRODUODENITIS AND THE ROLE OF DIET IN TREATMENT Akhundjonova Kh.A., Kholboboeva Sh.A.	19
10	OQAVA SUVLARNI TOZALASHDA ILG'OR BIOTEXNOLOGIK USULLARNI QO'LLASH ¹ Ashurova M.D, ² Saydullayeva K.M., ³ Mamatova M.A.	22
11	FUQAROLARNING SOG'LIG'INI SAQLASH MASALALARI DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR VAZIFALARIDAN BIRI SIFATIDA Ashurova M., Atadjanova D., Yoqubova M.	24

12	ATROF-MUHIT OMILLARINING AYOLLAR REPRODUKTIV SALOMATLIK HOLATIGA TA'SIRI Ashurova M., Muydinova Yo., Muxammadova G.	25
13	OILADA SOG'LOM TURMUSH TARZI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI Ashurova M., Muydinova Yo., Axmadjonova Sh.	27
14	ZAMONAVIY KIIYM ISHLAB CHIQRISHDA MEHNAT SHAROITLARINI GIGIYENIK BAXOLASH VA ULARNING AYOLLAR SALOMATLIGIGA TA'SIRINI O'RGANISH Ashurova M.J., Muxammadova G.Q.	29
15	EARLY EMPIRICAL TREATMENT OF RADIOLOGICALLY CONFIRMED MEDIUM-SEVERE PNEUMONIA IN CHILDREN Boynazarov A.A.	33
16	УПРАВЛЕНИЕ ДОСТУПНОСТЬЮ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ В РЕСПУБЛИКЕ БЕЛАРУСЬ Вальчук Э.А., Щавелева М.В.	38
17	СОВРЕМЕННЫЕ ИМПЛАНТИРУЕМЫЕ МАТЕРИАЛЫ И ИЗДЕЛИЯ, РАЗРАБОТАННЫЕ В РЕСПУБЛИКЕ БЕЛАРУСЬ, ДЛЯ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ ХИРУРГИИ, ТРАВМАТОЛОГИИ И ОРТОПЕДИИ, СТОМАТОЛОГИИ И ОНКОЛОГИИ Вечорко А.В.	41
18	ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ ПРОФИЛАКТИКИ БСК Гацко В.В. ¹ , Терехович Т.И. ²	46
19	BO'Z SUV AEROSTANSIYASI MECHANIK TOZALASH BOSQICHINING ISH SAMARADORLIGINI GIGIYENIK BAHOLASH Iskandarova G.T., Yusupxo'jayeva A.M.	48
20	ОПТИМИЗАЦИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ОРГАНИЗМА – КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ ИНСТРУМЕНТ ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЙ МЕДИЦИНЫ Карабаев М., Райимов А., Равшанов М.	51

21	ASSESSMENT OF THE COVID-19 SITUATION IN THE REPUBLIC OF BELARUS USING THE METHOD OF TERRITORIAL EPIDEMIOLOGICAL RISKS Kunitskaya S.V. ¹ , Tserakhovich T.I. ² , Shylava M.A. ³ , Maksimovich M.M. ⁴ , Romanova A.P. ⁵ , Snitko S.N. ⁶	59
22	AHOLINI TURLI QATLAMLARINING OVQATLANISH BO‘YICHA TAVSIYALAR Madaminov S., Azimova M., Mamatxanova G., Teshaboyev U.	65
23	ЦЕЛЕВЫЕ ИНДИКАТОРЫ КАК КРИТЕРИЙ РЕАЛИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ПРОГРАММ В ОБЛАСТИ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ Малахова И.В., Семенов А.В.	69
24	ПЕРВООЧЕРЕДНЫЕ ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ БЕЛАРУСЬ Малахова И.В., Семенов А.В.	71
25	ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ПРОФИЛАКТИКИ, ДИАГНОСТИКИ И ЛЕЧЕНИЯ В ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЕ БЕЛАРУСИ Малахова И.В., Дудина Т.В., Василевская М.Г.	72
26	ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ – ОСНОВА ДОЛГОЛЕТИЯ Маматханова Г.М., Абдиева А.	75
27	ВНЕДРЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ И АВТОМАТИЗАЦИЯ ОТЧЁТНОСТИ В УЧРЕЖДЕНИЯХ ПЕРВИЧНОГО ЗВЕНА ЗДРАВООХРАНЕНИЯ Маматханова Г.М.	77
28	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA YOZ MAVSUMIDA MAKTAB ICHİ OMILLARINI BAHOLASHNING GIGIENİK TAHLİLİ Mirzaeva X., Ermatov Nizom, Kenjabaev D.	80
29	МЕДИКО-САНИТАРНАЯ ПОМОЩЬ ГЛАЗАМИ ПАЦИЕНТОВ Мирзаева М.М., Салиева М.Х., Юсупов К.М.	81
30	ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ КАРИЕСА РАННЕГО ДЕТСКОГО ВОЗРАСТА, ФАКТОРЫ РИСКА И ЕГО ПРОФИЛАКТИКА Мусаева О.Т., Халилова Б.Р.	88

31	CLINICAL CASE OF DIFUSED FORM OF PEMPHIGUS VULGARIS IN A SICK FEMALE AT AN ELDERLY AGE Pakirdinov A.B., Aliev L.M., Botirov K.Z.	97
32	ИЗМЕНЕНИЕ ГОРМОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ У БОЛЬНЫХ АРТРОПАТИЧЕСКОЙ ФОРМЫ ПСОРИАЗА С ПРИМЕНЕНИЕМ НИЗКОИНТЕНСИВНОЙ ЛАЗЕРНОЙ ТЕРАПИИ Пакирдинов А.Б.	104
33	СОДЕРЖАНИЕ ПРОГЕСТЕРОНА В КРОВИ У ЖЕНЩИН, БОЛЬНЫХ НЕЙРОДЕРМИТОМ С ПРИМЕНЕНИЕМ ИГЛОТЕРАПИИ, ПРЕПАРАТА БРОНХО-МУНАЛ И НАРУЖНОЙ ТЕРАПИИ Пакирдинов А.Б., Пулатов Б.Т.	111
34	ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ ГИПОФИЗАРНО-ЯИЧНИКОВОЙ СИСТЕМЫ У ЖЕНЩИН - БОЛЬНЫХ НЕЙРОДЕРМИТОМ Пулатов Б.Т.	112
35	КОНЦЕНТРАЦИИ ЛЮТЕИНИЗИРУЮЩЕГО ГОРМОНА ГИПОФИЗА У ЖЕНЩИН, БОЛЬНЫХ НЕЙРОДЕРМИТОМ С ПРИМЕНЕНИЕМ ИГЛОТЕРАПИИ, ПРЕПАРАТА БРОНХО-МУНАЛ И НАРУЖНОЙ ТЕРАПИИ Пулатов Б.Т., Пакирдинов А.Б.	116
36	КОНЦЕНТРАЦИИ ФОЛЛИКУЛОСТИМУЛИРУЮЩЕГО ГОРМОНА ГИПОФИЗА ЖЕНЩИН, БОЛЬНЫХ НЕЙРОДЕРМИТОМ С ПРИМЕНЕНИЕМ ИГЛОТЕРАПИИ, ПРЕПАРАТА БРОНХО-МУНАЛ И НАРУЖНОЙ ТЕРАПИИ Пулатов Б.Т., Пакирдинов А.Б.	117
37	ДЕЙСТВИЕ ИГЛОТЕРАПИИ, ПРЕПАРАТА БРОНХО-МУНАЛ И НАРУЖНОЙ ТЕРАПИИ НА УРОВЕНЬ ПРОЛАКТИНА В КРОВИ ЖЕНЩИН БОЛЬНЫХ НЕЙРОДЕРМИТОМ Пулатов Б.Т, Пакирдинов А.Б.	118
38	ДИНАМИКА СОДЕРЖАНИЯ ЭСТРАДИОЛА В ПЛАЗМЕ КРОВИ У ЖЕНЩИН, БОЛЬНЫХ НЕЙРОДЕРМИТОМ С ПРИМЕНЕНИЕМ ИГЛОТЕРАПИИ, ПРЕПАРАТА БРОНХО-МУНАЛ И НАРУЖНОЙ ТЕРАПИИ Пулатов Б.Т., Пакирдинов А.Б.	119

39	SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONALAR FAOLIYATI Rayimov A.X., Xolmatov N.	120
40	КОРРЕКЦИЯ ИММУНОГЕНЕЗА У ОБЛУЧЕННЫХ ЖИВОТНЫХ С ПОМОЩЬЮ РАСТИТЕЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ Расулов Ф.Х., Юлчиева С.Т., Акрамов Э.Б., Кўчқоров Н.З., Набиева С.А., Курбонов Н.П., Хасанов Н.Ф., Расулов Ф.Ф.	124
41	ИЗУЧЕНИЕ ГЕМОПОЭЗА У ОБЛУЧЕННЫХ ЖИВОТНЫХ С ПОМОЩЬЮ РАСТИТЕЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ Расулов Ф.Х., Хакимов Р.А., Абдуллаев Ғ.А., Расулов Ф.Ф., Акрамов Э.Б., Курбонов Н.П., Хасанов Н.Ф.	126
42	МОДЕЛИРОВАНИЕ МНОГОЛЕТНЕЙ ДИНАМИКИ СМЕРТНОСТИ ТРУДОСПОСОБНОГО НАСЕЛЕНИЯ БЕЛАРУСИ ¹ Романова А.П., ² Гвоздь Н.Г.	128
43	О РАЗВИТИИ АМБУЛАТОРНОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ Ростовцев В.Н., Терехович Т.И., Гончаров С.В.	132
44	ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ПРОБИОТИКОВ В КОМПЛЕКСНОМ ЛЕЧЕНИИ ОСТРЫХ КИШЕЧНЫХ ИНФЕКЦИЙ У ДЕТЕЙ Сайдуллаева К.М., Хожиматов Х.О., Мансуров М.Э., Маматова М.А.	134
45	KUN TARTIBIGA AMAL QILISH SOG‘LOM TURMUSH TARZI ASOSIDIR Saydullayeva K.M., Mamatova M.A.	137
46	МНЕНИЕ ВРАЧЕЙ СЕЛЬСКОГО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ – ОДНА ИЗ ОСНОВ УЛУЧШЕНИЯ МЕДИКО-САНИТАРНОЙ ПОМОЩИ Салиева М.Х., Мирзаева М.М., Юсупов К.М.	139
47	ATROF-MUHITGA OID JARIMALAR, INVESTORLARNING E'TIBORI VA FOND BOZORINING REAKTSIYASI: HAVO IFLOSLANISHINING MO''TADIL ROLI VA SANOATNING AHAMIYATI Safarov O.Sh.	145

48	AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASHDA MIKROELEMENTLARNING AHAMIYATI Soliyev B., Abduraxmonov Sh.Q.	152
49	РЕАЛИЗАЦИЯМОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЛАСТИ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ Солтан М.М.	153
50	ОБ ОЦЕНКЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ Терехович Т.И., Ростовцев В.Н., Кухарчук А.А., Башманова Т.Н., Гончаров С.В.	155
51	EMIZIKLI AYOLLAR OVQATLANISHI VA TAVSIYALAR Teshaboyev U.A., Madaminov S.M., Azimova M.K., Mamatxanova G.M.	157
52	SUTNING INSON ORGANIZMI UCHUN AHAMIYATI VA UNING BA’ZI KASALLIKLARNI DAVOLASHDA TUTGAN ORNI Teshaboyev U.A., Saydullayeva K.M., Maxamatov U.Sh.	159
53	TO‘G‘RI OVQATLANMASLIKNING SALBIY OQIBATLARI VA TO‘G‘RI OVQATLANISH BO‘YICHA TAVSIYALAR Teshaboyev U.A., Madaminov S.M., Azimova M.K., Mamatxanova G.M.	160
54	ОХРАНА ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ И ФОРМИРОВАНИЕ ПРИНЦИПОВ РАЦИОНАЛЬНОГО ПИТАНИЯ И ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ Дехканова Н.Н., Усманов А.	164
55	YURAK QON-TOMIR TIZIMI KASALLIKLARI BILAN XASTALANGAN PATSIENTLARNING OVQATLANISHIGAQO‘YILADIGAN GIGIENIK TALABALAR Xabibov Sh., Ermatov N.	167
56	XXI ASR TARAQQIYOTINING INSON RUXIYATIGA TA’SIRI Xojimatov X.O., Saydullayeva K.M.	168
57	QALQONSIMON BEZ FAOLIYATINING INSON ORGANIZMIDA TUTGAN O‘RNI Xojimatov X., Maxamatov U.	170
58	INSON ISTE’MOL QILADIGAN OSHQOVOQNING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI Xojimatov X.O., Teshaboev U.A., Maxamatov U.SH.	172

59	УПРАВЛЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМИ РИСКАМИ В ЗДРАВООХРАНЕНИИ Хейфец Н.Е., Солтан М.М., Хейфец Е.Н., Макаревич К.С.	173
60	SUZISH SPORTINING SALOMATLIKDAGI AHAMIYATI Sherqo'ziyeva G.F., Salomova F.I., Maxkamova N.	175
61	ICHIMLIK SUVINING SIFAT MONITORINGI NATIJALARI Sherqo'ziyeva G.F. ¹ , Abduvaliyeva F.T. ² , Bekmuratova S.B ¹ .	180
62	MILLIY G'OYA TARG'IBOTI VA YOSHLAR MUSTAQIL TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH Egamnazarov A.I, Imomnazarova D.A	186
63	MAKTABLARDA BOSHLANG'ICH SINFLARNING DARS JADVALI TUZILISHINI GIGIENIK TAHLILI Ermatov N., Djolimbetov K.	189
64	O'ZBEKISTONDA VIJDON ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABATLAR Qosimov K.I., Siddiqova R.	190